

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BIZNES VA FAN UNIVERSITETI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE



University of
Business and Science

I L M I Y AXBOROTNOMA

2024

UBS ILMIY AXBOROTNOMASI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК УБС
UBS SCIENTIFIC BULLETIN

3



www.ubsu.uz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BIZNES VA FAN UNIVERSITETI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND
SCIENCE

ILMIY AXBOROTNOMA 2024

3

*UBS Ilmiy Axborotnomasi
*Научный Вестник УБС
*UBS Scientific Bulletin

Bosh muharrir: *University of Business and Science rektori, geografiya fanlari doktori, professor K. M. Boymirzayev.*

Mas’ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor N. J. Sotvoldiyev.*

Mas’ul muharrir o’rinbosari: *Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Sh. I. Mamadaliyev.*

TAHRIR HAY’ATI

Fizika-matematika va texnika fanlari – f-m.f.d., prof., M. M. Rahmatullayev, f-m.f.d., prof. R. M. Xakimov, f-m.f.d., prof. G’. Jorayev.

Biologiya fanlari – b.f.d., akademik K. Sh. Tojiboyev, b.f.d., dots. A. Batoshev, b.f.d., dots. D. B. Dexqanov.

Tarix fanlari – tar.f.d., prof. A. N. Rasulov, tar.f.d., prof. F. A. Maqsudov, tar.f.d., prof. O. K. Komilov.

Iqtisodiyot fanlari – i.f.d., prof. N. R. Raxmonov, i.f.d., dots. M. X. G’aniyev, i.f.d., prof. R. B. Ismoilov.

Falsafa fanlari – s.f.d., prof. T. Fayzullayev, f.f.d., prof. A. M. Mirzahmedov, s.f.d., prof. N. B. Dexqanov.

Filologiya fanlari – fil.f.d., prof. Z. Ya. Sodiqov, fil.f.d., prof. N. Ulukov, fil.f.d., prof. X. Sh. Usmonova.

Geografiya fanlari – g.f.d., prof. S. B. Abbasov, g.f.d., dots. Sh. Jumaxanov, g.f.d., dots. O. T. Mirzamahmudov.

Pedagogika va psixologiya fanlari – p.f.d., prof. M. Sobirova, p.f.d., prof. M. R. Qodirova, p.f.d., prof. Sh. K. Xo’jamberdiyeva.

Texnik muharrir: J. J. Xamrayev.

Tahririyat manzili:
Namangan shaxri, Beshkapa ko’chasi, 111-uy.

Тел: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** uzinfo@ubsu.uz

UBS Ilmiy axborotnomasi – Научный Вестник УБС – UBS Scientific Bulletin O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 22-yanvardagi 210192-sonli guvohnomasiga binoan chop etiladi.

Chop etilgan maqola mazmuni va unda keltirilgan ma'lumotlarning to‘riligiga muallif(lar) javob beradi.

www.ubsu.uz

© University of Business and Science 2024

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

DOLZARB MAVZU

Ғуломов С.С. Янги Ўзбекистонни инновацион ривожлантиришда сифатли таълимнинг роли.....	5
--	---

01.00.00 FIZIKA MATEMATIKA VA TEKNIKA FANLARI

ФИЗИКА МАТЕМАТИКА И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICS MATHEMATICS AND TECHNICAL SCIENCES

Madaliyev X.B., Abdulahadov A.A. Robot manipulatorlar uchun intelektual boshqarish tizimining ishlab chiqishni ahamiyati.....	14
Aliyev Sh.B. SQL server berilganlariga raqamli sertifikatlarni qo'llash.....	20

TARIX FANLARI

07.00.00 ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ

HISTORICAL SCIENCES

To'xtasinov M.G. Samarali o'qitishning zamonaviy masalalari: tarix fani misolida...	26
Turdimirzayev M.X. Boburiylar imperiyasida fan va san'at taraqqiyotining o'ziga xosligi.....	31

IQTISODIYOT FANLARI

08.00.00 ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

ECONOMIC SCIENCES

G'ofurov U.V. Kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish holatini baholashda mavjud iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda yondashish uslubiyoti.....	37
Narzullaev E.Sh. Analysis of the development of environmental social entrepreneurship in Uzbekistan.....	47
Kazakov O.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning strategik yo'nalishlari.....	54
Kenjaev I.E. O'zbekistonda investitsiyalar klassifikatsiyasi va ularni jalb etish mexanizmlari.....	59
Собиров М.Т. Инновацион фаолият ва уни бошқариш.....	76

FILOLOGIYA FANLARI

10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHILOLOGICAL SCIENCES

Xashimova X.D. Terminologik sathda maydon nazariyasi.....	91
---	----



Артамонов В.Н. Средства выражения оппозиции «нормальное-аномальное» в романе А.Слаповского «Синдром Феникса».....	97
Рахматова Г.Т. Адаптивный подход к особенностям перевода педагогических терминов с русского на узбекский язык.....	109
Тургунова С.А. Специфика лексикологического термина.....	117
Axmadaliev G.B. Qadimgi turkiy yodgorliklar – turkiy tillar tarixiy onomastikasining noyob va qadimiylar manbasi.....	123

GEOGRAFIYA FANLARI**11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ
GEOGRAPHICAL SCIENCES**

Ахмадалиев Ю.И. Табиятдан фойдаланиш қўникма ва анъаналарини сақлашнинг экологик аҳамияти.....	131
Mirzamahmudov O.T. Farg‘ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirishning geografik xususiyatlari.....	137
Alimjanov F.U. Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit barqarorligini ta’minlashga bo’lgan yondashuvi.....	145

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI**13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

Narzullayev D.Sh. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik tolerantlik kompetentligini rivojlantirish modeli.....	150
Бобаева З.М. Формирования интеллектуального развития в младшем школьном возрасте.....	162
Najmiddinova M.Sh. O’smirlik yosh xususiyatida oilaning o’ziga xosligi.....	167
Shermatova M.I. O’smirlik yoshida yuzaga keladigan refleksiv kompetentsiyani rivojlantirishning psixologik va pedagogik jixatlarining nazariy xususiyatlari.....	172
Turamov M.R. O’smirlik davrida emotsional intellektning namoyon bo‘lishi va olimlar tomonidan o‘rganilishi.....	225



DOLZARB MAVZU

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДА СИФАТЛИ ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ

Ғуломов С.С.

Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган фан арбоби, академик

Мамлакатимизда Учинчи Ренесанс пайдеворининг қўйилиши ҳам, “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида кўзда тутилган вазифаларнинг бажарилиши ҳам, Янги Ўзбекистоннинг шаклланиши ҳам пировардида илм-фанинг ривожланиши, таълим сифати ва самарадорлигининг оширилишига боғлиқ. Бу бўйича мамлакатимизда анча ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги сайтида маълумотларга қараганда, 2022 йилда 28% ишчиларнинг иш ҳақи 1 млн сўмгача, 24,5% - 2 млн сўмгача ва 24,8% - 4 млн сўмдан ошади. Бундай миқдордаги даромадлар аҳолининг озиқ-овқат, дори-дармон ва турли коммунал тўловларга етмаслиги шундай кўриниб турибди. Аҳолининг бу даражадаги кам даромадлилиги мамлакатимизда кенг кўламда тадбиркорликни ривожланишга ҳам катта тўсик бўлиб келмоқда. Истеъмолдан ортмаган маблағ билан қандай қўшимча тирикчилик қилиш мумкин. Ҳукуматимиз 4 миллионга яқин аҳолини камбағалчиликдан чиқариш дастурларини ишлаб чиқиб, катта ҳаражатлар қилиб, давлат бюджети танқисликка учрамоқда.

2017 йилдан бошлаб абитуриентларни ёзги тестни имтихонлари марказлаштириб, шаффоҳ ва холис ташкил қилгандан кейин 2022, 2023 ва 2024 йилларда абитуриентларнинг тўплаган балларининг кўрсаткичлари анча пасайиб кетди, мактаб таълимини зайнфлиги кўриниб қолди (айниқса, тестлар халаро стандартларга роя қилиши бошлангани учун). Шу йилларда тест топширган абитуриентларнинг 50 %дан пастроғи 56,7 минимум баллга ҳам эга бўлиша олмади. 2022 йилдаги халқаро тестларда ҳам Ўзбекистон охириг ўринларни эгаллади.

Амалдаги маълумотларга қараганда, 100 минга яқин олий маълумотли дипломга эга бўлган кишилар ишсизлиги қайд этилган. 500 минг нафарга яқин бакалавр ва магистр бир мутаҳасислик бўйича битириб, бутунлай бошқа касбда ишламоқда (бу маълумотлар яна қўшимча таҳлилни талаб этади). Буларнинг 6 йилллик ўқиган вақти ва тўлаган контракт пули бекор кетиб, қанча йилда кайтиши ҳам номаълум. Ушбу ҳолат ҳам камбағалларнинг кўпайишига яна бир омил бўлиб ҳисобланади. Қишлоқдагилар ҳам

фарзандларини ўқисин деб, мол-мулкини сотиб, контракт тўламоқда. Агар улар мақсадли ўқимаса, битирганидан кейин ишга жойлаша олмаса ушбу тўловларни қайтариш ҳам бироз мураккаблашади. Бу яна камбағалликни келтириб чиқаради. Бундай таълимнинг натижаси камбағалларни янада кўпайтиради. Шу жиҳатдан мазкур мавзу бугунги кунда ўта долзарб ҳисобланади.

Бугунги кунда мамлакатимиз олдида улкан вазифалар турибди. Буларга Янги Ўзбекистонни шакллантириш, учинчи Ренессанс пойдеворини қуриш, “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида кўзда тутилган мақсад ва вазифаларни бажариш каби масалалар киради. Ушбу вазифаларни амалга ошириш учун бир қанча ташкилий, иқтисодий, ижтимоий масалаларни ҳал қилишни тақозо қилади. Бундай ишларни паёнига етказиш учун ушбу соҳада килиниши керак бўлган ишларимиз ҳали анчагина. Бундай тадбирлар, бизнинг фикримизча қуйидагилардан иборат:

Биринчидан, мактабларда ўтиладиган фанларни замонавийлаштириш лозим, яъни керак бўлмайдиган фанларни 2 баробар соатларини қисқартириб, 11 йилда IELTSни 7 балл билан чиқариш чораларини кўриш керак. Қадимдан, тил билган эл билади, деган гап бор. Бугунги интеграциялашган даврда ушбу масала янада долзарб масалалардан бирига айланди.

Иккинчидан, бугунги дунё миқёсида рақамлаштириш жараёнлари авж олиб турган паллада ўқувчиларни 11 йилда мактабда 2 та дастурий тилни мукаммал ўрганиши керак. Бундай билимга эга бўлган болалар Фриланс сифатида масофадан бутун дунё мамлакатларига ишга жойлашиши мумкин. Ушбу йўл билан ўз юртида туриб интеллектуал мулкни миллионлаб копиясини экспорт қилиш орқали ёшлар ишсизликни қисқартиради ва аҳолини даромадларини оширади, бюджетимизни танқислигини қисқартиради ва экспорт-импорт сальдосини балансини ижобий қиласи. Энг муҳими ёшларимиз ота-онасини бағрида бўлиб, маънавияти ва саломатлиги сақланади. Оила харажатлари қисқарив, бегона давлатда яшаш, овқатланиш, тиббиёт ва болаларини ўқиш пуллари, ҳар хил тўловлар ва солиқлар пуллари Ўзбекистон бюджетига тушади!

Учинчидан, болаларни тарбиялашни ва ўқитишини боғчадан бошлиш керак. Боғчада болаларни 3 ёшидан бошлаб чет тилларига ўргатишни бошлиш мақсадга мувофиқ. Болалар боғчадаёт она тили билан бирга қамида яна 2 та тилни бемалол гаплашадиган бўлиши лозим. Чунки, ушбу ёшда болалар нимани ўргатсангиз тез ўрганади ва хотирада абадий умр бўйи муҳирланиб қолади. Тажриба шуни кўрсатадики, ёзишни ва ўқишини билмайдиган 1 ёшли болани Англиядаги оиласа қўйилса, бир йилга қолмай ўзбек боласи инглиз тилида бемалол гаплаша олади. Бошқа тилларда ҳам худди шундай. Шу туфайли боғчаларда шу моделдан фойдаланишимз мақсадга мувофиқ. Бу бўйича интернетда ёш болаларга инглиз тили ўқитиши бўйича жуда кўплаб дастурлар бор. Дунё тажрибасида Ҳиндистон вақтинча

инглиз тилини иккинчи давлат тили деб эълон қилганлиги натижасида ўзи ҳам ривожланиш билан бирга, ривожланган давлатларда энг буюк ва бой дастурчилар ҳамда давлат арбоблари етишиб чиқкан. Ҳиндистонликлар бирорта давлатда инглиз тилини билганлиги туфайли тил билан боғлиқ муаммога дуч келмайди. Ҳозирги кунда боғчаларимизда болаларга керак бўймайдиган аҳборотларни берилмаслик чораларини қўриш лозим. Мияни ортиқча кераксиз аҳборотлар билан тўлдиришга ҳеч қандай зарурият йўқ.

Тўртинчидан, боғча ва мактабда олинган таълим олий таълим пайдевори ҳисобланади. Агар биз педагогика мутахассислигига кам бал тўплаган қобилиятсиз абитуриентларни олсак (супер контракт асосида), таълим сифатининг янада пасайиши бошланади. Тестни ташкил қилишни холис қилгандан кейин 2022, 2023 ва 2024 йилларда абитуриентларнинг тўплаган балларининг кўрсаткичлари анча пасайиб кетди. Шу йилларда тест топширган абитуриентларнинг 50 %дан кўпроғи 56,7 минимум баллдан ҳам паст олганларига ҳамма гувоҳ. Шунинг учун хар бир мутахассисликка турдош қилиб, албатта педагогика мутахассислигини қўшиш керак (ахир мактабда барча абитуриентлар асосан бир хил дастурдан ўқиганку). Шунда дипломатия ва юридик университетлари қаби илғор олий ўқув юртларига кира олмаган, қобилиятли абитуриентлар 180 ва ундан кўп балл тўплаган ҳолда педагогика таълимига жалб этилади (умуман педагогика мутахассисликларига 100 балдан паст абитуриентларни олиб бўймайди). Бундай қоидани амалиётга жорий қилиш механизmlарини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Чунки, улар 56,7 баллдан паст тўплаган абитуриентларга нисбатан қобилиятлилиги билан ўқувчиларга намуна бўлади ва узлуксиз таълим тизимини сифатини ошира олади. Педагогика йўналишини аъло баҳоларга битириб педагогика қасбидан ишлаганларга бир минг доллардан ошиқ иш ҳақи тўланса педагогларга катта мативация бўлади. Тестдан 56,7 дан паст балл билан ўқишига кирган ва ўртача ўқиб битирган педагогларга бюджетдан минг доллар иш ҳақи тўлаш кутилган самарани бермайди.

Бешинчидан, мамлакатимиз аҳолисини камбағаллиқдан чиқариш учун биричи галда ойлик маошларини кўтариш лозим бўймоқда. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги сайтида келтирилган маълумотларга қараганда бюджет ва нодавлат ташкилотларида 1 млн. сўмгача иш ҳақи оладиган ходимларнинг улуши 28,0 %ни ташкил қиласди. 1 млн.дан 2 млн. сўмгача ойлик оладиганларнинг улуши 24,6 % ни ташкил қиласди. 2 млн. сўмдан 4,0 млн. сўмгача ойлик оладиганларнинг улуши 25,2 %ни ташкил қиласди. 4 млн сўмдан 5,5 млн сўмгача ойлик оладиганлар улуши 9,3 %ни ташкил қиласди¹. Кўриниб турибдики, ушбу ҳолат банд аҳолининг ҳам бир қисми камбағаллик чегарасидан чиқа олган эмас. Ўзбекистонда аҳолининг даромадларини ва ойлик маошини оиласидаги аҳоли жон бошига ҳисоблаш лозим бўлади. Чунки битта оиласида 1 киши ишлайди ва бунда 3-5 киши яшайди. Айрим оиласидан

¹ Иқтисодиёт ва молия вазирлиги расмий сайтида: <https://nrm.uz/contentf?doc=507692>.

бир киши ишлаб қатта пул топиши мумкин. Аммо бунда 5-7 нафар ва ундан ҳам кўпроқ кишилар яшаси мумкин. Бундай миқдордаги даромадлар ахолининг озиқ-овқат, дори-дармон ва турли коммунал тўловларига етмаслиги шундай кўриниб турибди. Истеъмолдан ортмаган маблағ билан қандай қилиб фарзандларини ўқиши учун контракт пулинни тўлаши мумкинлиги ҳам бироз мураккаб. Ҳозирги кунда таълим кредити жорий қилинган, аммо уни қайтариш масаласи ҳам қамбағал оиласалар учун қийин кечмоқда. Чунки, олий ўкув юртини битирган ҳамма талабалар бирданига ишга жойлашиб кета олган эмас. Қамбағалчиликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг маълумоти кўра, бу йил олий таълимни тамомлаган 214 минг нафар битирувчилардан 126 минг нафари ёки 58,9 % ҳали иш топиб жойлаша олган эмас¹. Яъни 60 % га яқини олий таълимни битирганлар ҳали ишсиз². Булардан кўриниб турибди, олий таълимга керакли мутахассисларни ўқитиш лозим бўлади. Шу билан бирга олий таълимда ўқиш жараёнида талабалар устозлари билан бирга кичик бизнес ва инновацион фирмалар ташкил этиб (БМИ ва МД мавзуларини шу корхоналар билан боғлаб), ўзларини иш билан таъминлаб, вақтлироқ даромад топишга ва контракт жаражатларини ўзлари қоплашга ўргатиш керак.

Олтинчидан, ОТМни битирувчи талабаларини хорижга катта маошга масофадан Фриланс сифатида ҳамкор давлатлар билан келишиб, ақлий меҳнатга асосланган ишга жойлаштириш тадбиларини ишлаб чиқиши лозим. Бунинг учун ушбу йўналишда Йўл харитасини тузиб амалиётга жорий қилиш керак. Бу бўйича Хитой ва Ҳиндистон моделини тажриба тариқасида ўрганиш лозим бўлади. Хорижий давлатларда шу йўл билан топилган даромадларнинг 70-80 % Ўзбекистондаги оиласига келади. Бундан ташқари, қамбағал оиласаларнинг болаларини ўқишига молиявий имконият яратиш ва тадбиркорликни рағбатлантириш учун Европа моделидан фойдаланиш ҳам мумкин. Европа моделида асосан ахолини қўллаб-қувватлашади. Мазкур давлатларда аҳоли даромадлари ойига 3-5 минг долларни ташкил қиласиди. Ривожланган мамлакатларда аҳолидаги катта пулларни қамбағалликни қисқартиришга жалб қилиш учун, тадбиркорлар ўша ортиқча пулларни ишлатиш йўли билан қамбағалларни иш билан таъминлаб, эҳтиёжини қондириш даражасига олиб келади ва шу йўл билан қамбағалликдан чиқаришга ёрдам беради. Ривожланган мамлакатларда аҳолидаги катта пулларини олиш учун, тадбиркорлар рақобатда инновациялар орқали сифатни яхшилаб, истеъмолчиларни эҳтиёжини қондиришга ва ўз даромадларини оширишга курашади. Қишлоқ жойлардаги кичик бизнесни ривожлантириб, ҳар бир қарич жойдан самарали фойдаланиш эвазига, қамбағал оиласаларда фарзандларини ўқитишга молиявий имконият яратилади.

¹ Беҳзод Мусаев эълон қилган маълумотлардан. <https://kun.uz/kr/49310855>.

² Kun.uz расмий канали. <https://t.me/kunuzofficial>.

Еттинчидан, мамлакатимизда 2020 йилда тасдиқланган “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияларидағи 1 млн. дастурчини, улар ҳар туманда очилган 205 та ИТ мактабларда тезлик билан тайёрлаб, масофадан онлайн “Фриланс” йўналишида хорижга ишга жойлаб, хориждан давлат бюджетимизга валюта жалб қилиб, уни танқислик ҳолатидан чиқариб, қамбағалчиликни қисқартириш ҳам лозим бўлади. Муҳтарам Президентимиз Рақамли технологиялар вазирлигига борганларида ҳар маҳаллада 2 нафардан дастурчи тайёрлаш топширигини бердилар. Щуни инобатга олиш лозимки, дастурчилар мамлакатимизда бир ойда 3-5 минг доллар иш ҳақи олиши мумкин. Булар нафақат мамлакатимизда, балки шу ерда туриб хорижий мамлакатларда ҳам 2-5 баробар баландроқ иш ҳақи билан дастурчилик қилиши мумкин бўлади. Агар мактабда мукаммал 2 та дастурний маҳсулотларни ва хорижий тилларни ўргатишса, айниқса, мактабда 11 йилда IELTSни 7 балл олиб тайёрланса, олий таълимда катта контракт пулинини ўзи тўлаб, ўқиши билан бирга муносиб ишга жойлашиб олишлари мумкин бўлади.

Саккизинчидан, 2020 йил октябрь ойида Жаҳон иқтисодий форуми “Келажак касблари” тўғрисида маълумот берган эди. Унда 2025 йилга келиб, одамлар ва компьютерлар ўртасидаги меҳнат тақсимотининг ўзгариши туфайли янги рақамли (масофадан) иш ўринлари (97 миллион) яратилишига ҳамда айrim касблар қисқаришига (85 миллион) олиб келиши кўрсатиб ўтилган эди¹. Биз ҳам бу хориждаги 97 млн. янги иш ўринларини яхшилаб ўрганиб, битирувчи талабаларимизни масофадан онлайн хорижга юқори иш ҳақи билан жойлаштириб, қамбағалчиликни қисқартишимиз лозим бўлади. Кўриниб турибдики, инсон ақлий капиталини шакллантириб, улардан интеллектуал маҳсулот етиштиришга йўналтириш ва бу маҳсулотларни ватанида туриб хорижга миллионлаб копиясини экспорт қилишгача бўлган жараёнларни кўриш мумкин бўлади.

Тўққизинчидан, тадбиркорларни қўллаб-куватлаш бир томонлама қулай, чунки улар янги иш ўринларини яратади ва мос равища бандлик масаласини бироз яхшилаш имкониятини беради. Аммо, аҳоли даромади паст бўлиб, тегишли маблағи бўлмаса, тадбиркор яратган инновацион товарларини улар томонидан харид қилиш бироз мураккаб бўлиб қолади. Натижада, улар ишлаб чиқсан маҳсулотларни сотиш ҳам бироз қийин бўлади. Чунки, ҳамма маҳсулотни экспорт қилишнинг имконияти бўлмаса, иқтисодиётнинг ривожланиши ҳам қийинлашиб қолади. Аҳолининг бу даражадаги кам даромадли эканлиги (бу ҳақда юқорида Иқтисодиёт ва молия вазирлигини рақамлари келтирилган) мамлакатимизда кенг кўламда тадбиркорликни ривожланишига ҳам катта тўсиқ бўлиб келмоқда. Бугунги кунда энг долзарб масалалардан бири оилавий даромадларни қўпайтириб, ҳар бир оилани қамбағалликдан чиқариш лозим бўлади. Оилавий тадбиркорликда ҳам барча маҳсулотларни сифатли ва дунё бозорида

¹ <https://www.weforum.org/>.

рақобатбардош бўла оладиган даражада ишлаб чиқариш лозим бўлади. Бундай маҳсулотларнинг харидори нафақт мамлакатимизда, балки хорижий мамлакатларда ҳа кўп бўлади.

Ўнинчидан, мамлакатимизда Президентимиз ташаббуси билан абитуриентларнинг кириш тестларини марказлаштириб, шаффоф ва одил қилинди. Лекин паст балл олган (20-30 балл) абитуриентлар ҳам супер контрактни тўлаб, иктидорли студентлар билан ўқиб, бир вақтда битирмоқдалар. Ўқий олмайдиган абитуриентлар ҳам супер контракт тўлаб ўқийдиган бўлса, уларнинг савияси юқори балл олганлар билан тенг кела олмайди. Аммо, иккаласига ҳам бир хил ўқиш муддатида бир хил диплом берилмоқда. Буни ҳам тартибга солиб, биринчи босқичда супер контрактнинг ҳам қуий чегарасини белгилаб қўйиш керак. Келажакда бундай ўқишдан умуман воз кечиш кераклигини ҳам ўйлаб кўриш керак. Энди супер контракт асосида ўқишга кирган талабаларни алоҳида ўқитиб, балига қараб, ўқиш йилини кўпайтириб (масалан бакалавр ўқиши абитуриентни балини пастилигига қараб, 4 йилдан 6-7 йилга ошириб) ва ўқитувчиларига ҳам супер контракт пулидан кўпроқ иш ҳақи тўлашни тажриба қилиб кўриш мақсадга мувофиқ.

Ўн биринчидан, фарзандларимизни мактабдан бошлаб, унинг қобилиятини ўрганиш ва унинг қайси соҳага интилишини аниқлаб, айнан шу йўналиш бўйича ўқитиб, қобилиятини ривожлантириш ва қобилиятига лойиқ касбга ишга жойлаш орқали ҳалол йўл билан бой бўлишни ўргатишимиш лозим. Бу ўргатувчи ва ўрганувчи инсонларнинг қўлидан келади. Агар болани қобилияти соҳасини ёшлигидан (боғчадан) аниқлаб, шу соҳа бўйича ўқийдиган бўлса, болалар асаби бузилмай саломатлигини йўқотмайди, қобилияти соҳасидаги фанларни ҳурсандлик билан тез ўзлаштиради ва турмушида омадли бўлади. Бундай болаларни ўзларининг йўналишларидағи фанларни кўпайтириб, шу касбга керак бўлмайдиган фанларни соатларини қисқартириш йўлига ҳам ўтиш лозим. Болаларни мактабдан бошлаб қобилияти ва қизиқишига қараб тегишли соҳасини бўйича ўқитиб, ривожлантириб, қобилияти бўйича ишга жойлаб, самарали ишлатиб, бой бўлишга ўргатишимиш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Ўн иккинчидан, мамлакатимизда хорижий ОТМларнинг очилиши ижобий ҳолат. Аммо улар юқори контракт билан фарзандларимизни ўқитиб, тегишли маблағларни конвертация қилиб, валютани олиб чиқиб кетмоқда. Шу тариқа валюта захираларнинг бир қисми ташқарига чиқиб кетиши билан камайиб бормоқда. Бу масалани ҳам жиддий ўйлаб кўриш керак. Хорижий олий ўкув юртларига шунчаки диплом олиш учун эмас, балки ҳақиқий билим олиш учун ўқиши керак. ОТМ битирувчиларининг ишга жойлашуви, унинг рейтингида ҳал қилувчи кўрсаткич бўлиши лозим. Шундагина таълим мақсадли йўналишга эга бўлади.

Ўн учинчидан, мактабларга ва олий таълим муассасаларига ҳам хорижий ўқитувчиларни кўплаб жалб қилинмоқда. Уларга юқори ойлик маоши тўланади. Аммо таълим сифати кескин фарқ қилмайди. Бунинг ўрнига ўзимизнинг ўқитувчиларга алоҳида шартларни қўйиб, бажарган иши бўйича ўша маблағни устами қилиб тўланса, фикримизча, самарааси катта бўлади. Айрим ҳолларда хорижлик ўқитувчиларнинг айримлари дарсга келмайди. Буларнинг ўрнига ўзимизнинг ўқитувчилар дарс беришади. Шу туфайли хориждан доимий ишлашга ўқитувчиларни жалб қилишдан кўра, ўзимизнинг ўқитувчиларимизни хорижга бориб малака ошириб келгани маъқул.

Ўн тўртинчидан, эндиликда меҳнат миграциясига ҳам муносабатни ўзгартириш керак. Бирорта касби йўқ, чет тилини билмайдиган фуқароларимизни хорижга ишга чиқармаслик лозим. Уларни хорижда бўш иш жойи бор (иложи бўлса ақлий меҳнатга) касбга ўргатиш ва ўша малакат тилини ҳам ўргатган ҳолда чиқариш керак. Буларни бепул ўқитиши лозим. Чунки, уларнинг тегишли маблағи бўлмаслиги мумкин. Улар хорижда ақлий меҳнатда ишласа, мамлакатимизга валюта тушириш орқали давлатнинг харажатларини бир неча баробарга қопланади. Мухими, миллат шани ҳам сақланиб қолади. Ўзбекистонликлар саводсиз, ҳеч нарсани билмайди, фақат “қора” меҳнатга ярайди, деган салбий тамғалар ҳам олиб ташланади.

Ўн бешинчидан, мамлакатимизда хусусий олий таълимнинг кўпайгани ва унга қабулнинг ошгани туфайли кўплаб яхши педагоглар хусусий университетлар ва филиалларга ўтиб кетаётганлиги учун давлат олий таълим муассасаларида маълум даражада таълим сифатининг тушиб бориш хавфи туғилмоқда. Натижада малакали педагоглар танқислиги ҳам ошиб бормоқда. Барча мутахассисликлардан тегишли педагоглар етишмаётганлиги туфайли, бир қанча фанлардан ўриндошлик асосида дарс берилмоқда. Табиийки, бундай ҳолда ҳам сифат кутилган даражада бўлмайди.

Ўн олтинчидан, етакчи магистратура мутахассисликларини ўз мутахассисликлари билан бирга олий таълимда педагогик қиласиган соҳани ҳам ўргатиш лозим бўлади. Бунинг учун энг иқтидорли ва қобилиятли талабаларни ажратиб олиб, улардан магистратуранинг янги йўналишларига мос педагогларни тайёрлашга ўқитиши лозим бўлади. Бунинг учун замонавий янги фанларнинг янги дастурлари ишлаб чиқилган ва улар тўлиқ ўқитиладиган бўлиши лозим. Шундагина янги мутахассисларга мос педагоглар тайёр бўлади. Янги Ўзбекистонда узлуксиз таълимга сифатли педагогик кадрларни тайёрлашга ягона Йўл харита тузилиши лозим.

Ўн еттинчидан, Муҳтарам Президентимизни Янги Ўзбекистон учун шиорлари: “Халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва қудратли бўлади!”, деган ғояни 19 сентябрь 2017 йилда БМТ ассамблеясида айтган эди. Бунда фарзандларимизни мактабдан бошлаб, қобилиятини ўрганиш ва унинг қайси соҳага интилишини аниқлаб, уни айнан шу йўналиш бўйича ўқитиб,

қобилиятини ривожлантириш ва қобилиятига лойик ишга жойлаш орқали ҳалол йўл билан бой бўлишни ўргатишимиз лозим. Демак, таълимда билим бериш билан бирга энди билимни самарали ишлатиб, бой бўлишга хам ўргатишимиз керак, деган фикрни олға сурган эди. Чунки, бола бирорта соҳани яхши қўриб, шу соҳа бўйича ўқийдиган бўлса, бундай болаларни ўзларининг йўналишларидағи фанларини кўпайтириб, шу касбга керак бўлмайдиган фанларни қисқартириш йўлига ҳам ўтиш лозим. Болаларни мактабдан бошлаб, унинг қизиқиши ва қобилиятини инобатга олиб, шу бўйича ўқитиб, ривожлантириб, қобилияти бўйича ишга жойлаб, самарали ишлатиб, бой бўлишга ўргатишимиз лозим. Агар ёшлиқдан бошлаб, болаларимизнинг қобилияти ва интилиши бўйича соҳасини аниқлаб, уни ривожлантириб, ундан фойдаланишга ўргатсак, ўқиш жараёнида замонавий стандартларга мослашиб боради.

Ўн саккизинчидан, яна бир муҳим жиҳат, Мухтарам Президентимиз Рақамли технологиялар вазирлигига боргандарида ҳар маҳаллада 2 нафардан дастурчи тайёрлаш топширигини бердилар. Натижада ҳар бир маҳаллада рақамлаштириш ва камбағалчиликни қисқартириш билан боғлиқ муаммолар ҳал қилинади. Аммо, ушбу масала тизимли равишда бажарилиб улгурилган эмас. Шуни инобатга олиш лозимки, дастурчилар мамлакатларда бир ойига 3-5 минг доллар иш ҳақи олиши мумкин. Булар нафақат мамлакатимизда, балки шу ерда туриб масофадан Фриланс хорижий мамлакатларда ҳам ишни қилиши мумкин.

Ўн тўққизинчидан, мамлакатимизда ёшлар ўртасида таълим-фан соҳаси бўйича кўплаб конкурслар ўтказиб туриш мақсадга мувофиқ. Бунда ёшларнинг саводхонлиги блан бирга ижодкорлигини ҳам инобатга олиш мақсадга мувофиқ. Конкурсда юқори ўринни эгаллаган болаларни ва уларнинг устозларини муносиб даражада рағбатлантириш лозим. Шунингдек, улар ишлаб чиқсан ва яратган илмий ишланмаларни тижоратлаштириб, амалиётга жорий қилиб, ушбу жойдан ҳам тегишли гонарар ажратиш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Йигирманчидан, Янги Ўзбекистонда халқимизни сифатли таълим орқали ақлий меҳнатга ўргатиш ва у орқали барча соҳаларда сифатни ошириш учун Йўл харита тузиб, янги терминлар киритиш зарур: “Инсон ақлий капитали”, “Инсон ақлий меҳнат унумдорлиги” ва “Жисмоний меҳнат ўлчовлари” билан бирга аҳолига инновацион ғоя ва инновациялар, стартаплар, янги дастурий маҳсулотлар, нуфузли халқаро журналларда мақолалар ва патентларнинг статистик таҳлилини юритиш керак. Янги Ўзбекистонни дунёда тан олиниши фақат сифат, сифат ва яна сифатнинг юқорилиги билан белгиланади!

Хулоса қилиб айтганда, ушбу тавсияларимизнинг амалиётга жорий қилиниши мамлакатимизда ишсизликни, камбағалликни ва бюджет



танқислигини қисқартиришга, ақлий меҳнатни нусхаларини экспор қилишга ва ташқи қарзни қисқартиришга муносиб хизмат қилган бўлар эди.



01.00.00
05.00.00

FIZIKA, MATEMATIKA VA TEKNIKA FANLARI
ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICS, MATHEMATICS AND TECHNICAL SCIENCES

ROBOT MONIPULATORLAR UCHUN INTELEKTUAL BOSHQARISH TIZIMINING ISHLAB CHIQISHNI AHAMIYATI

Madaliyev X.B.

Namangan muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Abdulahadov A.A.

Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola robot manipulyatorlar uchun intellektual boshqaruvi tizimini ishlab chiqish imkoniyatlarini o'rganadi. Hozirgi zamон robot texnologiyalarida manipulyatorlarning samaradorligi va moslashuvchanligi yuqori darajada talab qilinadi. Ushbu tizimlarni boshqarishda sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'r ganish algoritmlari muhim rol o'y naydi. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi va tajriba natijalari keltiriladi hamda yangi boshqaruvi tizimlarini ishlab chiqishda AI asosidagi yondashuvlarning afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Tayach iboralar: robot manipulyator, intellektual boshqaruvi tizimi, sun'iy intellekt, mashinaviy o'r ganish, avtomatlashtirish.

Аннотация. Данная статья исследует возможности разработки интеллектуальной системы управления для роботов-манипуляторов. В современных робототехнических технологиях высоко ценятся эффективность и адаптивность манипуляторов. Искусственный интеллект (ИИ) и алгоритмы машинного обучения играют важную роль в управлении этими системами. В статье представлен анализ существующей литературы, методология исследования и экспериментальные результаты, а также рассматриваются преимущества подходов на основе ИИ в разработке новых систем управления.

Ключевые слова: робот-манипулятор, интеллектуальная система управления, искусственный интеллект, машинное обучение, автоматизация.

Abstract. This article explores the possibilities of developing an intelligent control system for robotic manipulators. In modern robotic technologies, the efficiency and adaptability of manipulators are highly demanded. Artificial

intelligence (AI) and machine learning algorithms play a crucial role in controlling these systems. The article presents an analysis of existing literature, research methodology, and experimental results, as well as examines the advantages of AI-based approaches in developing new control systems.

Key words: robotic manipulator, intelligent control system, artificial intelligence, machine learning, automation.

Kirish

Robot manipulyatorlari ko'p yillardan buyon avtomatlashtirish sanoatida muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularning asosiy vazifalari aniqlik, takrorlanuvchanlik va tezlik bilan ishlashga asoslangan. Biroq, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari ko'proq moslashuvchanlik va aqlilikni talab qiladi, shuning uchun an'anaviy boshqaruv tizimlari etarli bo'lmay qolmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu tizimlarni intellektual darajada boshqarish va yangicha imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu maqola robot manipulyatorlar uchun intellektual boshqarish tizimlarini yaratish va rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

So'nggi yillarda robot manipulyatorlar uchun boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rGANISHNING rivojlanishi bu sohada katta yutuqlarga erishishga olib keldi. Ko`p xitoylik olimlar manipulyatorlar uchun sun'iy neyron tarmoqlari asosida boshqarish tizimlarini ishlab chiqishni taklif qilishgan. Bu tizimlar manipulyatorlarning harakatlarini real vaqtida kuzatish va moslashish imkonini beradi [1]. Xususan, Reinforcement Learning (Kuchaytirilgan o'rGANISH) algoritmlarining qo'llanishi robotning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirgan [5].

Shuningdek, Kuka va Fanuc kabi sanoat gigantlari manipulyatorlari uchun o'rGANISH algoritmlarini joriy etish orqali boshqaruv tizimlarini yaxshilash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirgan. Kuka Robotics kompaniyasining ishlanmalari kuchaytirilgan o'rGANISH algoritmlarini real vaqt rejimida sinab ko'rishga qaratilgan bo'lib, bu tizimlarning yuqori moslashuvchanligi va samaradorligini ta'minlaydi [2]. Fanuc kompaniyasi esa o'z robot manipulyatorlariga sun'iy intellekt algoritmlarini tatbiq etish orqali yuqori samaradorlikka erishgan va ishlab chiqarish jarayonlarida aniqlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan [3].

Shu bilan birga, boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham o'tkazilgan izlanishlarda [4], AI va kuchaytirilgan o'rGANISH yordamida manipulyatorlarning murakkab operatsiyalarni mustaqil ravishda bajarish qobiliyatini ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda sun'iy intellekt algoritmlarini qo'llab, manipulyatorlar uchun boshqaruv tizimlari modellashtiriladi. Boshqaruv tizimi ikkita asosiy modulga

bo'linadi: birinchisi manipulyatorning pozitsiyasini aniq belgilash uchun sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanish; ikkinchisi esa harakatlar ketma-ketligini optimallashtirish uchun kuchaytirilgan o'rganish algoritmlarini qo'llash. Tadqiqotda Python dasturlash tili va TensorFlow kutubxonalari asosida simulyatsiya muhitida tajribalar o'tkaziladi.

Simulyatsiya uchun manipulyatorning harakatlarini nazorat qilishga qaratilgan turli vazifalar belgilanadi, jumladan, ob'ektni olish, aylantirish va joyiga qo'yish kabi operatsiyalar. Har bir vazifa uchun algoritmning samaradorligi va aniqligi o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar asosida tizimning umumiyligi natijadorligi baholanadi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida robot manipulyatorlar uchun intellektual boshqaruvi tizimlarini ishlab chiqishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Sinovlar davomida sun'iy neyron tarmoqlari va kuchaytirilgan o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda manipulyatorning harakatlarini optimallashtirish va moslashuvchanlikni oshirishga erishildi. Ushbu tadqiqotning texnik natijalari turli algoritmarning ko'satkichlarini batafsil tahlil qilish orqali aniqlandi.

1. Sun'iy neyron tarmoqlar asosida boshqaruvi tizimi

Sun'iy neyron tarmoqlari asosidagi boshqaruvi tizimi manipulyatorning aniq va tez harakat qilishini ta'minlash uchun ishlatilgan. Neyron tarmoqlari manipulyatorning xatti-harakatini modellashtirish va unga yangi muhitlarga moslashish imkonini berdi. Sinov natijalari shuni ko'satdiki, sun'iy neyron tarmoqlari asosidagi tizim, ayniqsa, takrorlanuvchan vazifalar uchun juda samarali. Sinov davomida manipulyator uchun beshta asosiy harakat ketma-ketligi o'rnatildi (ob'ektni ushslash, ob'ektni ko'tarish, ob'ektni aylantirish, ob'ektni joylashtirish va manipulyatorni boshlang'ich holatga qaytarish). Neyron tarmoqlari ushbu vazifalarni o'rganib, manipulyatorni real vaqt rejimida boshqarishga imkon berdi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Harakat turi	O'rtacha bajarish vaqtি (soniya)	Aniqlik darajasi (%)
Ob'ektni ushslash	0.45	92
Ob'ektni ko'tarish	0.40	94
Ob'ektni aylantirish	0.50	91
Ob'ektni joylashtirish	0.55	93
Boshlang'ich holatga qaytish	0.35	90

Yuqoridagi natjalardan ko'rilib turibdiki, sun'iy neyron tarmoqlari asosidagi tizim yuqori aniqlik va tezlik bilan harakatlarni amalga oshira oladi. Ayniqsa, ob'ektni ushslash va ko'tarish harakatlarida aniq va samarali boshqaruvga

erishildi. Ammo ob'ektni aylantirish va joylashtirish operatsiyalarida biroz kechikishlar va aniqlikda pasayishlar kuzatildi. Bunga sabab neyron tarmog'ining ba'zi holatlarda yangi muhitlarga moslashish qobiliyatining cheklanganligidir.

2. Kuchaytirilgan o'rganish (Reinforcement Learning) asosida boshqaruv tizimi

Kuchaytirilgan o'rganish algoritmi manipulyatorning murakkab muhitlarda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish uchun ishlatildi. Bu algoritm manipulyatorga o'z tajribasi orqali optimal strategiyalarni o'rganish imkonini berdi. Sinovlar davomida kuchaytirilgan o'rganish asosidagi boshqaruv tizimi manipulyatorning tez va aniqlik bilan harakat qilishiga olib keldi.

Sinovlar davomida 500 ta o'rganish davri o'tkazildi. Har bir davr davomida manipulyator harakatlar ketma-ketligini o'rganib, optimal strategiyani shakllantirdi. Quyidagi jadvalda kuchaytirilgan o'rganish asosidagi boshqaruv tizimi natijalari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Harakat turi	O'rtacha bajarish vaqtি (soniya)	Aniqlik darajasi (%)
Ob'ektni ushslash	0.35	95
Ob'ektni ko'tarish	0.30	97
Ob'ektni aylantirish	0.40	94
Ob'ektni joylashtirish	0.45	96
Boshlang'ich holatga qaytish	0.28	95

Kuchaytirilgan o'rganish (Reinforcement Learning) algoritmi sun'iy neyron tarmoqlariga nisbatan yaxshiroq natijalarni ko'rsatdi, ayniqsa harakatlarning tezligi va aniqligi bo'yicha. Algoritm manipulyatorni optimal strategiyalarni o'rganishga undaydi, bu esa natijada harakatlarni tez va samarali amalga oshirishga olib keladi. Shuningdek, manipulyatorning murakkab sharoitlarda moslashuvchan bo'lishi ta'minlandi, bu esa aniq va tezkor boshqaruv imkoniyatlarini oshirdi.

3.Resurslar sarfi va samaradorlik taqqoslash

Boshqaruv tizimlarining samaradorligini yanada tahlil qilish uchun har xil algoritmlarning resurslar sarfi va umumiy samaradorligi taqqoslandi. Quyidagi jadvalda algoritmlar bo'yicha o'rtacha resurslar sarfi keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Algoritm turi	Resurslar sarfi (CPU va GPU foydalanish)	Operatsiyalar samaradorligi (%)
Sun'iy neyron tarmoqlari	O'rtacha	90
Reinforcement Learning	Yuqori	95
An'anaviy PID boshqaruv	Past	85

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt algoritmlarining resurs sarfi an'anaviy PID boshqaruv tizimlariga nisbatan yuqori, ammo operatsiyalar samaradorligi bo'yicha sezilarli farq mavjud. Ayniqsa, kuchaytirilgan o'rganish algoritmi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi, ammo hisoblash resurslarining yuqori sarfini talab qiladi. Neyron tarmoqlari esa balansni saqlab, o'rtacha resurs sarfi bilan yuqori natijalarga erishmoqda.

Xulosa va takliflar

Robot manipulyatorlari uchun intellektual boshqaruv tizimlarini ishlab chiqishning imkoniyatlari haqidagi tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, sun'iy neyron tarmoqlari va kuchaytirilgan o'rganish (Reinforcement Learning) algoritmlari, manipulyatorlarni aniq va samarali boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Sun'iy neyron tarmoqlari manipulyatorning takrorlanuvchi operatsiyalarini boshqarishda yuqori aniqlik va samaradorlik ko'rsatdi. Kuchaytirilgan o'rganish algoritmlari esa manipulyatorlarga mustaqil qaror qabul qilish va murakkab sharoitlarda moslashish imkonini berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari an'anaviy PID boshqaruv tizimlariga nisbatan sezilarli yaxshilanishlarga erishdi, ayniqsa operatsiyalar tezligi va aniqligi bo'yicha. Biroq, bunday intellektual tizimlar yuqori hisoblash quvvatlari va resurslarni talab qilishi mumkin, bu esa sanoat sharoitlarida amaliy qo'llashda hisobga olinishi lozim. Kelgusida ushbu tizimlarni yanada takomillashtirish va hisoblash resurslarini optimallashtirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish talab qilinadi.

Bundan tashqari, intellektual boshqaruv tizimlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish, masalan, real vaqt rejimida murakkab vazifalarni bajarish va o'rganish qobiliyatini oshirish bo'yicha tadqiqotlar kelajakda ko'proq e'tibor talab qiladi. Ayniqsa, resurslarni optimallashtirish va algoritmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqish kerak. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boshqariladigan robot manipulyatorlar ishlab chiqarishda moslashuvchanlikni oshirish, samaradorlikni ko'tarish va inson ishtirokini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar kelajakda yanada ko'proq sanoat sohalarida qo'llanilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zhang, Y., Li, X., & Wang, J. (2019). "Intelligent Control Systems for Robot Manipulators: A Review". *Journal of Automation and Control*, 37(4), 435-450.
2. Kuka Robotics (2021). "Advanced Learning Algorithms for Industrial Robotics". *Robotics Today*, 29(6), 58-67.
3. Fanuc Robotics (2020). "Machine Learning in Robotic Manipulators". *Automation Trends*, 16(9), 95-102.



4. S. Levine, C. Finn, T. Darrell, & P. Abbeel (2016). "End-to-End Training of Deep Visuomotor Policies". *Journal of Robotics Research*, 35(11), 1171-1187.
5. R. Sutton & A. Barto (2018). *Reinforcement Learning: An Introduction*. 2nd edition, MIT Press.
6. Schmidhuber, J. (2015). "Deep Learning in Neural Networks: An Overview". *Neural Networks*, 61, 85-117.
7. Lee, S., Ha, I., & Kim, J. (2020). "Real-Time Robot Manipulator Control with Deep Reinforcement Learning". *IEEE Transactions on Automation Science and Engineering*, 17(3), 1505-1516.



SQL SERVER BERILGANLARIGA RAQAMLI SERTIFIKATLARNI QO'LLASH

Aliyev Sh.B.

University of Business and Science o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada SQL SERVER berilganlariga raqamli sertifikatlarni qo'llash bo'yicha so'z yuritilgan. Raqamli sertifikatlar tushunchasi va shifrlash tushunchasi va uning turlari yoritilgan. Shifrlash fuksiyalaridan foydalanish va boshqarish usullari o'r ganib chiqilgan.

Tayanch iboralar: raqamli sertifikatlar, assimetrik kalitlar yordamida shifrlash, simmetrik kalitlar yordamida shifrlash, parollar yordamida oddiy shifrlash, CREATE CERTIFICATE, EncryptByCert, DecryptByCert.

Аннотация. В статье рассматривается применение цифровых сертификатов к серверам SQL SERVER. Объясняется понятие цифровых сертификатов, изучаются способы создания сертификатов, их использования и управления

Ключевые слова: цифровые сертификаты, шифрование асимметричными ключами, шифрование симметричными ключами, простое шифрование паролями, СОЗДАТЬ СЕРТИФИКАТ, EncryptByCert, DecryptByCert..

Abstract. The article discusses the application of digital certificates to SQL SERVER servers. The concept of digital certificates is explained, the methods of certificate creation, their use and management are studied.

Key words: digital certificates, encryption with asymmetric keys, encryption with symmetric keys, simple encryption with passwords, CREATE CERTIFICATE, EncryptByCert, DecryptByCert.

Kirish

Raqamli sertifikatlar kriptografiya sohasida muhim bo'lgan identifikasiya vositasi hisoblanadi. Ular xavfsizlikning ko'p turli sohalarida ishlataladi, masalan, ma'lumotlar almashishni shifrlash, imzolash va autentifikatsiya qilish. Ushbu maqolada SQL Server da ma'lumotlarni shifrlashning to'rtta usuli: sertifikatlar yordamida shifrlash; assimetrik kalitlar yordamida shifrlash; simmetrik kalitlar yordamida shifrlash; parollar yordamida oddiy shifrlashlar haqida ma'lumot beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Axborot texnologiya sohasida bugungi kunda juda katta yangiliklar bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Berilganlar bazasi fani ham ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va

boshqarish muammolarni hal qiluvchi sohalardan biridir. Ushbu sohada ilmiy ishlarni olib borgan tadqiqotchi olimlarni, ilmiy ishlaridan foydalangan holda ushbu maqolani yaratdik. Ular Carlos Coronel, Steven Morris, Mark Fontecchio, Диго С.М. Когаловский М.Р., Советов Б.Я., М.Х. Hakimov, S.M.Gaynazarov, X.N.Zaynidinov, J.T.IJsmomonov, SH.B.Redjepov, I.Yusupov, Sh. Nazirov, A. Ne'matov, R. Qobulov kabi olimlar ilmiy ishlaridan foydalanilgan holda ushbu maqola yozildi.

Tadqiqot metodologiyasi

SQL SERVER da ma'lumot shifrlangan holatda saqlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish, berilganlar tuzilmalari va algoritmlarning qanday ishlashini ko'rsatish uchun muayyan muhim usullarda tushuntirish.

Tahlil va natijalari

Sertifikat, xavfsizlikni ta'minlashda ishlatiladigan maxfiylik kalit haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar, umuman, bir xavfsizlik protokoliga (masalan, TLS/SSL) xizmat qilish uchun ishlatiladi.

Raqamli sertifikatlar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Sertifikatning e'lon qiluvchisi (Issuer): Sertifikatni kim yaratganligi.
2. Sertifikatni egasi (Subject): Sertifikatga qatnashadigan obyekt haqida ma'lumotlar (masalan, veb sayt, tizim yoki shaxs).
3. Asosiy kriptografiya algoritmi: Sertifikatda ishlatilgan maxfiylikni ta'minlash uchun ishlatilgan algoritm.
4. Umumiyl kalit (Public Key): Maxfiylik uchun ishlatiladigan maxfiy kalit.
5. Imzo algoritmi: Sertifikatdagi elektron imzo algoritmi.
6. Amal qilish muddati (Expiration Date): Sertifikatning qancha muddat faol bo'lishi kerakligi.
7. Keyingan foydalanish sohasi: Sertifikat qaysi sohalarda foydalanish uchun mo'ljallanganligi.

Raqamli sertifikatlar, amaliyotda ko'p joyda foydalaniladi, masalan, veb saytlarda HTTPS munosabatlari, elektron pochta almashishlari va tarmoq havolalari orqali ma'lumotlar almashishlari kabi.

Sertifikatlar va ma'lumotlarni shifrlash asoslari

SQL Server 2012 R2 da ma'lumotlar va sertifikatlarni shifrlash imkoniyatlari haqida gapirishni boshlashdan oldin, ma'lumotlarni shifrlash bilan bog'liq ba'zi tushunchalar va atamalarni kiritish kerak.

Hozirgi vaqtda ikkita tubdan farq qiluvchi shifrlash usuli qo'llaniladi: simmetrik kalit yordamida shifrlash va assimetrik kalit yordamida shifrlash (aniqrog'i, bir juft kalit). Simmetrik kalit shifrlashda ma'lumotlarni shifrlash uchun ishlatiladigan kalit uni deshifrlash uchun ham ishlatiladi. Bu ma'lumotlarni shifrlashning an'anaviy va juda yaxshi o'rnatilgan usuli. Bu kompyuter resurslarining minimal miqdorini talab qiladi va juda keng tarqalgan. Simmetrik

kalitlardan foydalanish misollari ZIP arxivlari, Office fayllari va boshqalar uchun parollar yordamida shifrlashni o‘z ichiga oladi.

Ikkinci shifrlash usuli - assimetrik kalitlardan foydalanish, ya’ni ochiq va maxfiy kalitlar juftligi. Ushbu usuldan foydalanganda ma’lumotlar juftlikning birinchi kaliti (ommaviy) bilan shifrlanadi va shifrni ochish uchun ikkinchi kalit (maxfiy) kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, agar kimdir shifrlangan ma‘lumotlarga va shifrlash uchun ishlatilgan ochiq kalitga kirish huquqiga ega bo‘lsa, u ma’lumotlarni parolini hal qila olmaydi: shifrni ochish faqat shaxsiy kalit yordamida amalga oshirilishi mumkin. Keling, ushbu usulning ishlash mexanizmini oddiy misol bilan ko‘ribchiqamiz:

Faraz qilaylik, A foydalanuvchisi B foydalanuvchisiga ma’lumotni shifrlangan shaklda o‘tkazishi kerak. Buning uchun B foydalanuvchisi (A emas!) umumiyl/maxfiy kalit juftligini hosil qiladi va ochiq kalitni A foydalanuvchiga uzatadi. U qabul qilingan ochiq kalit bilan ma’lumotlarni shifrlaydi va ularni shifrlangan shaklda foydalanuvchi B ga uzatadi. B foydalanuvchi o‘zining maxfiy kaliti yodamida shifrlangan ma’lumotni o‘z holatiga qaytaradi.

Asimetrik kalitlar yordamida shifrlash aniq afzalliklarga ega. Axborot almashish uchun simmetrik kalitlardan foydalanilganda, foydalanuvchilar birinchi navbatda ushbu simmetrik kalitni almashishlari kerak, uni uzatish vaqtida ushlab qolish mumkin. Agar siz assimetrik kalitlardan foydalansangiz, bu sizga himoyalamanmagan aloqa kanallari orqali uzatilganda ma’lumotlarni ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, assimetrik kalitlardan foydalanish usuli nafaqat afzalliklarga, balki kamchiliklarga ham ega. Asosiysi, ushbu usul yordamida shifrlash juda katta CPU resurslarini talab qiladi. Shuning uchun amalda ko‘pincha birlashtirilgan variant qo’llaniladi. Ushbu variantning misoli shunday ko’rinishi mumkin.

Faraz qilaylik, A foydalanuvchisi yana B foydalanuvchisiga ma’lumotni shifrlangan shaklda o‘tkazishi kerak. B foydalanuvchisi avvalgi holatda bo‘lgani kabi umumiyl/maxfiy kalit juftligini hosil qiladi va ochiq kalitni A foydalanuvchiga uzatadi. A foydalanuvchisi ma’lumotlarni bevosita shifrlash o‘rniga, bu kalit yordamida boshqa kalit – simmetrik kalit hosil qiladi. Shundan so‘ng, foydalanuvchi A o‘zi yaratgan simmetrik kalitni umumiyl kalit bilan shifrlaydi va uni B foydalanuvchisiga o‘tkazadi. A foydalanuvchisi simmetrik kalit B foydalanuvchisi tomonidan qabul qilinganligi va shifrlanganligi haqidagi tasdiqni olgach, A foydalanuvchi simmetrik kalit bilan shifrlangan ma’lumotlarni uzatishni boshlaydi.

SQL Server 2012 R2 da ma’lumotlarni shifrlashning to‘rtta usuli mavjud:

- sertifikatlar yordamida shifrlash. Sertifikat ma’lumotlar bazasida ob’ekt sifatida mavjud bo‘lishi kerak (SQL Server Management Studio’da siz mavjud

sertifikatlarni Databases | *Имя_базы_данных* | Security | Certificates konteynerida ko'rishingiz mumkin);

- assimetrik kalitlar yordamida shifrlash. Bu erda algoritm sertifikatlardan foydalanish bilan bir xil. Asimmetrik kalitning sertifikatdan farqi shundaki, unda kimga, qanday maqsadlarda, amal qilish muddati qancha va hokazolar haqidagi ma'lumotlarga ega qo'shimcha maydonlar mavjud emas. Mavjud assimetrik kalitlarni Certificates konteyneri bilan bir joyda joylashgan, Asymmetric Keys konteynerida ko'rish mumkin;

- simmetrik kalitlar yordamida shifrlash. Asimmetrik kalitlarga nisbatan ancha tezroq algoritmlardan foydalaniladi. Simmetrik kalitlarning o'zi ham ma'lumotlar bazasi ob'ektlari sifatida yaratilgan va sertifikat, boshqa simmetrik kalit, assimetrik kalit yoki oddiygina parol bilan himoyalangan bo'lishi mumkin. Siz ularni Symmetric Keys konteyneridan foydalanib ko'rishingiz mumkin;

- parollar yordamida oddiy shifrlash.

Sertifikatlar va kalitlarni yaratish va kriptografik funktsiyalarni qo'llash

Tasavvur qilamiz. Sizda DB1 ma'lumotlar bazasi mavjud va unda nvarchar tipidagi bitta ustunli Secret dbo.SecretTable jadvali mavjud:

USE DB1;


GO

CREATE TABLE dbo.SecretTable(Secret nvarchar(100));

Asimmetrik kalit bilan ishslash deyarli bir xil ko'rinishda. Avval assimetrik kalitni yaratishimiz kerak:

CREATE ASYMMETRIC KEY AsymKey1 WITH ALGORITHM = RSA_512

ENCRYPTION BY PASSWORD = 'P@ssw0rd';



ID	256
KeyEncryptionAlgorithm	Rsa512
KeyLength	512
Name	AsymKey1
Owner	dbo
PrivateKeyEncryptionType	Password
ProviderName	
PublicKey	Массив Byte[]
Sid	Массив Byte[]
Thumbprint	Массив Byte[]

Esda tutish kerakki, assimetrik kalitni yaratishda parolga qo'shimcha

ravishda yaratilayotgan kalitning uzunligini ko‘rsatishingiz kerak. Bizning ixtiyorimizda uchta variant mavjud: 512, 1024 va 2048 bit.

Shundan so‘ng, yaratilgan kalit yordamida siz ma’lumotlarni shifrlashingiz mumkin:

```
INSERT INTO SecretTable
```

```
values(EncryptByAsymKey(AsymKey_ID('AsymKey1'), N'Секретные  
данные'));
```

Va ularning dekodlanishi:

```
SELECT (Convert(Nvarchar(100),  
DecryptByAsymKey (AsymKey_ID('AsymKey1'),Secret, N'P@ssw0rd')))  
FROM SecretTable;
```

Simmetrik kalitlardan foydalanganda shifrlash assimetrik algoritmlardan foydalanishga qaraganda tezroq amalga oshiriladi, shuning uchun katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Nosimmetrik kalitlardan foydalanishga juda o‘xhash. To‘g‘ri, kichik farqlar mavjud. Birinchidan, simmetrik kalitni yaratganingizda, u nafaqat parol, balki boshqa simmetrik kalit, assimetrik kalit yoki sertifikat bilan ham himoyalanishi mumkin. Ikkinchidan, simmetrik kalit yaratishda siz **SQL Server 2012 R2 (DES, TRIPLEDES, RC2, RC4, DESX, AES128, AES_192, AES_256)** tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan sakkizta shifrlash algoritmlaridan birini belgilashingiz mumkin. Simmetrik kalitni yaratishning o‘zi quyidagicha ko‘rinishi mumkin:

```
CREATE SYMMETRIC KEY SymKey1
```

```
WITH ALGORITHM = AES_128
```

```
ENCRYPTION BY PASSWORD = 'P@ssw0rd';
```

Kalitni ishlatalishdan oldin (ma’lumotlarni shifrlash yoki deshifrlash uchun) uni ochish kerak. Bu faqat bir marta foydalanuvchi sessiyasi davomida amalga oshirilishi kerak:

```
OPEN SYMMETRIC KEY SymKey1 DECRYPTION BY PASSWORD =  
'P@ssw0rd';
```

Va keyin biz odatdagidek foydalanamiz. Faqat funktсия nomlari farqlanadi:

```
INSERT INTO SecretTable
```

```
values(EncryptByKey(Key_Guid('SymKey1'), N'Секретные данные'));
```

Ma’lumotlar shifrini ochishda **DecryptByKey** funksiyasiga simmetrik kalit nomi va parolni o‘tkazishning hojati yo‘q. **OPEN SYMMETRIC KEY** buyrug‘i yordamida ochilgan kalitning ma’lumotlari avtomatik ravishda almashtiriladi:

```
OPEN SYMMETRIC KEY SymKey1 DECRYPTION BY PASSWORD =  
'P@ssw0rd';
```

```
SELECT (Convert(Nvarchar(100), DecryptByKey(Secret))) FROM  
SecretTable;
```

Xulosa va takliflar

SQL Server 2012 R2 sizga oddiygina parol yordamida ma'lumotlarni shifrlash imkonini beradi. Buning uchun **EncryptByPassPhrase** funksiyasidan foydalilaniladi. Eng oddiy shaklda u faqat parol va shifrlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni qabul qiladi:

```
INSERT INTO SecretTable
```

```
values(EncryptByPassphrase('P@ssw0rd', N'Секретные данные'));
```

Shifrnini ochish **DecryptByPassphrase** funksiyasi yordamida amalga oshiriladi:

```
SELECT (Convert(Nvarchar(100), DecryptByPassphrase('P@ssw0rd',  
Secret)))  
FROM SecretTable;
```

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Carlos Coronel and Steven Morris. Database Systems: Design, Implementation, and Management, Eleventh Edition. 2015. Cengage Learning – 786 p.
2. Mark Fontecchio, “Oracle the clear leader in \$24 billion RDBMS market,” IT Knowledge Exchange, April 12, 2012
3. Диго С.М. Базы данных: проектирование и использование: учебник для вузов / С.М. Диго – М.: Финансы и статистика, 2005. – 592 с.
4. Когаловский М.Р. Энциклопедия технологий баз данных: эволюция технологий, технологии и стандарты, инфраструктура, терминология – М.: Финансы и статистика, 2005. – 800 с
5. Советов Б.Я. Базы данных: теория и практика: учебник для вузов / Б.Я. Советов, В.В. Цехановский, В.Д. Чертовский – М.: Высш. шк., 2005. – 463 с.
6. M.X. Hakimov, S.M.Gaynazarov BERILGANLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI Toshkent 2013.
7. X.N.Zaynidinov, J.T.Ijsmonov, SH.B.Redjepov, I.Yusupov. MA'LUMOTLAR BAZASI Toshkent 2020.
8. Sh. Nazirov, A. Ne'matov, R. Qobulov MA'LUMOTLAR BAZASINI DASTURLASH CHUQURLASHTIRILGAN KURSI Toshkent — 2007



**07.00.00 TARIX FANLARI
ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORICAL SCIENCES**

**SAMARALI O‘QITISHNING ZAMONAVIY MASALALARI: TARIX
FANI MISOLIDA**

To‘xtasinov M.G.

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi rektori

Annotatsiya. ushbu maqolada bugungi kunda tarix ta’limi oldida turgan ayrim muammolar va muhim vazifalar tahliliy bayon qilingan hamda ushbu fanni samarali o‘qitish bo‘yicha fikr-mulohazalar berib o‘tilgan.

Tayanch iboralar: samarali o‘qitish, etnogenetika, tarixiy xotira, integratsiya, badiiy-tarixiy asarlar, o‘quv dasturlari, darslik va qo’llanmalar, kasbiy mahurat, to‘garak mashg‘ulotlari, o‘quv-metodik kompetentlik.

Аннотация. В данной статье аналитически описаны некоторые проблемы и важные задачи, стоящие перед историческим образованием, а также даны мнения по эффективному преподаванию этого предмета.

Ключевые слова: эффективное обучение, этногенез и этническая история, историческая память, интеграция, искусствоведческие произведения, образовательные программы, учебники и пособия, профессиональные навыки, групповое обучение, обучение методической компетентности.

Abstract. in this article, some problems and important tasks facing history education are analytically described and opinions on effective teaching of this subject are given.

Key words: effective teaching, ethnogenesis and ethnic history, historical memory, integration, art-historical works, educational programs, textbooks and manuals, professional skills, group training, training methodological competence

Kirish

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzliksiz ta’lim

tizimini isloh qilish va takkomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, vosita, usul va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uzluksiz ta’lim sifatini turli komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, muayyan uslub va usullarni ta’lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishini ta’minlaydi. Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o‘quvchi-yoshlarning dasturiy bilim tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishslash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurroq singdirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda o‘quvchi shaxsini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan tarix ilmini barcha fanlar qatori samarali asosda o‘qitilishiga kuchli e’tibor qaratilmoqda. Lekin shunga qaramay tarix fanini samarali o‘qitish bo‘yicha tadqiqto va izlanishlar olib borish va zaruriy tavsiya va xulosalar ishlab chiqish muhimdir.

Fikrimizcha, hozirgi paytda tarix fanining maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- avvalgi tuzumlar davrida bir yoqlama noxolis va g‘ayriilmiy yoritilgan tariximizni qaytadan xolis va haqqoni yozib, xalqimizga etkazish;
- ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli kishini tarixiy xotira asosida tarbiyalash;
- milliy mafkurani shakllantirishda tarix fanining tarbiyaviy-ma’naviy kuchidan foydalanish;
- o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini asosli tarzda yoritib berish;
- xalqimizning etnik jihatdan yashovchan, “iligi to‘q, baquvvat xalq” ekanligini ilmiy jihatdan tushuntirib berish;
- o‘zbek milliy davlatchiligi tarixini manbalar asosida mukammal yoritish;
- beqiyos ma’naviy boyligimiz – nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish;
- boy tariximizni, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasini dunyoga ko‘rsatish;
- tarixiy xotirani, tarixiy haqiqatni tiklash;
- tariximizni har xil g‘oyalardan, g‘arazli tajovuzlardan himoya qilish;
- tarix fani yutuqlari va davlat siyosatini jamiyat taraqqiyoti manfaatlari yo‘lida uyg‘unlashtirish;
- tarix xalqlar va millatlarni bir biriga yaqinlashtirishga, insonparvarlik va baynalminallik manfaatlari xizmat qilishi lozim;
- iqtidorli, fidoiy yoshlar orasidan tarixchi-mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.

Tadqiqot metodologiyasi

Istiqlol yillarida o‘tmishni qayta ko‘rib chiqishni, unga milliy qadriyat sifatida qarab, sog‘lom va erkin tafakkur bilan tadqiq qilishni quyidagi asoslar taqozo etmoqda:

1. O‘zbekiston dunyo xaritasida yangi paydo bo‘lgan tasodifiy mamlakat emas. Uning ildizlari chuqur va qadimiy bo‘lib, uni dunyoga ko‘rsatish lozim.
2. Sobiq sovet davlati va kommunistik mafkura hukmronligi davrida soxtalashtirilgan yoki yozish mumkin bo‘lmagan tarixni o‘z o‘rniga qo‘yish, ya’ni tarixiy haqiqatni to‘la tiklash.
3. Shu asosda xalqimiz, ayniqsa yoshlar qalbida milliy g‘urur, o‘z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirish. Ertangi kunga katta ishonch va mustaqillik g‘oyalariga e’tiqod bilan yashashni turmush tarziga aylantirish.

Tarixni tiklash, uni xalqqa etkazishda, shuningdek ta’lim muassasalarida tarixni o‘qitishda, fikrimizcha ayrim masalalarga etarlicha e’tibor berilmayapti. Ma’lumki, biz tarixni darsliklardan, ilmiy-tarixiy manbalardangina o‘qib bilmaymiz. Tarixni o‘rganish uni qanday bayon qilishga yoki ko‘rsatishga ham bog‘liq. Bunda nafaqat tarix, balki tarix fani faol integratsiya qila oladigan boshqa fanlar, xususan badiiy adabiyot, san’at turlariga ham e’tibor qaratish muhimdir.

Shunday ekan, tarixni badiiy-tarixiy asarlarda qiziqarli yoritish, sahna va kinofilmarda, muzey ko‘rgazmalarida ko‘rsatish kabi uni o‘rganish va targ‘ib qilishning zamonaviy, ommabop shakllaridan samaraliroq foydalanish zarur.

Tarixnavislik bevosita falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, tilshunoslik, badiiyat kabi fanlar bilan bog‘liq. Tarixiy voqeа hodisalarni tadqiq qilishda mazkur fanlar samarali hamkorlik qilmasa nomukammallikka yo‘l qo‘yilib, tarix haqiqati buzilishi mumkin. Xususan, hozirgi darsliklar va qo‘llanmalarda insoniyat tarixinining ayrim qirralarini, voqeа hodisalarni tushuntirishda bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar va talqinlar uchraydi.

Tahlil va natijalar

Tarixning murabbiylik tajribasidan, tarbiyaviy imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish uchun quyidagi masalalar hal etilishi zarur:

- Ta’limga oid ayrim me’yoriy hujjatlarni, DTS va o‘quv dasturlarini takomillashtirish. Ularda o‘quvchi-talabalar egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni qayta ko‘rib chiqish;
- Darslik va qo‘llanmalardagi o‘quv materialining qiziqarlilik darajasini oshirish. Ularni xristomatiyalashtirish, shaklan va mazmunan rang-barang bo‘lishi;
- Ta’lim tizimida berilayotgan bilimlarga davlat talablari mavjudligi faktidan kelib chiqib, ayni bir xil tarixiy voqeа-hodisalarni tushuntirishda fanlararo nomuvofiqlikka barham berish;
- Tarixchi-mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish. Bu masalada mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari, bu kadrlarni qabul qilib oluvchi ta’lim muassasalari va malaka oshirish muassasalari o‘rtasida tizimli va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- Ta’limda uzlusiz metodik xizmat tizimi faoliyatini ta’lim sifatini va o‘qituvchi-pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishga yo‘naltirgan holda takomillashtirish.
Yuqorida bildirilganlardan quyidagi tavsiyaviy xulosalar kelib chiqadi:
 - tarix fani o‘qituvchisi ta’lim jarayonida tarixiy manbalar, hujjatlarning o‘rni va ahamiyatini tushunib, anglab olishi shart;
 - tarixiy manbalar va hujjatlardan, qo‘srimcha adabiyotlardan tarix ta’limida – bevosita darslarda yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda foydalanish yo‘llari va usullarini bilishi, ulardan foydalanish ko‘nikmasi va malakasiga ega bo‘lishi lozim;
 - umumiy o‘rta ta’limning tarix fani bo‘yicha DTS talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilarni tarixiy manba va hujjatlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, ularda tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish lozim;
 - mакtab o‘quvchilari uchun chop etilayotgan tarix darsliklarida manbalar, hujjatlar va qo‘srimcha tarixiy adabiyotlardan ilovalar berib, qisman xrestomatiyalashtirish kerak;
 - o‘qituvchi har bir dars yakunida o‘quvchilar mustaqil o‘rganishi uchun uyga vazifa berganda tarixiy manbalar, mavzuga oid qo‘srimcha adabiyotlar tavsiya etishi zarur;
 - “Yosh tarixchi”, Yosh o‘lkashunos” to‘garak mashg‘ulotlari rejasida tarixiy manbalar bilan ishlash bo‘yicha mavzular va topshiriqlar berilishi lozim;
 - mutaxassislar tomonidan manbalarning fanni o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntiruvchi, shuningdek, o‘quvchilarda manbalar, tarixiy hujjatlar va qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha qo‘llanma va tavsiyalar, elektron axborot ta’lim resurslari tayyorlanib, maktablarga etkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarix fanini o‘qitishning samarali bo‘lishida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o‘ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilish faoliyatining faol bo‘lishligi juda ko‘p omillarga, avvalo, mashg‘ulot mazmunining g‘oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishiga, o‘qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o‘rganib olishning muhimligini o‘quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otishga bog‘liqdir.

Bu o‘rinda o‘qituvchining o‘quvchilarni mashg‘ulot mazmunini o‘zlashtirib borishi ustidan qilgan nazorati, o‘quvchilar o‘rganishini boshqara bilishi, shuningdek, ularning yangi bilimlarini o‘zlashtirish uchun o‘zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya’ni o‘zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, tarix fanidan dars mashg‘ulotlari olib boradigan pedagoglar o‘z ustida muntazam

ishlashi, o‘quv-metodik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha izlanishlar olib borishi orqaligina tarix fanini samarali o‘qitishga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Bektemirov S.R. Tarix darslarida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish. Procyeyedings of International Sciyentific Conferencye on Multidisciplinary Studiyes. Hosted online from Moscow, Russia. January, 2023
2. Bo‘stonov A., To‘xtasinov M. Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakallantirish. “Xalq ta’limi” jurnali. – T., 2017-yil 6-son.
3. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari. III modul. Ikkinchchi nashr. – T., 2013.
4. O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. – T., 1996.
5. Yo‘ldoshev S.V., Ismanov Sh.Sh. Tarix darslarida kasbga yo‘naltirib o‘qitish va kompetensiyalarni shakllantirish// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 9(100), часть 3. апрель, 2023 г.

BOBURIYLAR IMPERIYASIDA FAN VA SAN'AT TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOSLIGI

Turdimirzayev M.X.
University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Zaxiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar jahon xalqlari tarixida, xususan, Temuriylar O'rta Osiyosi va Hindiston, Afg'oniston davlatlarining o'rganilishida juda ahamiyatli imperiya hisoblanadi. Ularning olib borgan fan va san'at sohasidagi siyosatlaridan bugun ham foydalanish foydadan xoli emas.

Tayanch iboralar: Zaxiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Buyuk mo'g'ullar, Zabiniso Begim, zakot, san'at, soliq, ilm-fan, Hindiston

Аннотация: Захир ад-Дин Мухаммад Бабур и Бабуры — очень важная империя в истории мировых народов, особенно в изучении Центральной Азии, Индии и Афганистана. Использование их политики в области науки и искусства сегодня не без пользы.

Ключевые слова: Захируддин Мухаммад Бабур, Бабурнама, великие монголы, Забинисо бегум, закят, искусство, налог, наука, Индия.

Abstract. Zahir al-Din Muhammad Babur and the Baburis are a very important empire in the history of world nations, especially in the study of Central Asia, India, and Afghanistan. The use of their policies in the field of science and art today is not without benefit.

Key words: Zahiruddin Muhammad Babur, Baburnama, Great Mongols, Zabiniso Begum, Zakat, art, tax, science, India.

Kirish

Bugungi kunda Hindiston hukumati tom ma'noda o'zining tarixiy ildizlariga bolta urmoqda desak bo'ladi. Gap shundaki BJP (Bharat Janata Party) o'zining o'ta o'ng, millatchi g'oyalari bilan Hindistondagi musulmon fuqarolarining, qolaversa, butun musulmon olamining noroziligiga sabab bo'lmoqda. Z.M.Bobur 1526-yildagi Panipat g'alabasiga atab masjid qurdirgan edi. Shu masjid buzib tashlandi. Boshqa Hinduiylik bilan bog'liq bo'limgan barcha milliy me'roslardan ham voz kechilmoqda. Shu sababli Boburning avlodlari sifatida Boburiylarning Hindiston tarixida tutgan o'rni haqida so'z yuritsak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Bu mavzuda O'zbekiston va jahonda juda ko'plab kitoblar yozilgan, badiiy asarlar bitilgan, ilmiy izlanishlar qilingan. Jumladan Leyden Jon(1775,DenHolm, 1811 Indoneziya)-shotlandiyalik shoir va sharqshunos, ilk G'arb

boburshunoslaridan. 1803-yil shifokorlik qilish uchun Hindistonga borgan. Sharq tillariga qiziqib fors, arab va turk tillarini o'rgangan. 1810-yilda Boburnomaning asli bilan tanishib tarjima qilishga urungan. Lekin vafoti sabab asarning birinchi qisminigina tarjima qilishga ulgurgan.

Eyji Mano (1939-y., Aychi prefekturasi, Yaponiya) tarixchi olim, sharqshunos. Asosiy tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi bilan bog'liq bo'lgani uchun xitoy, turk, arab, forsva sanskrit tillarini o'rgangan 1986-yil Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlar tarixi mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan. "Boburnoma"ning Haydarobod va Qozon nusxalari asosida Farg'ona, 1984-yilda Kobul qismini yapon tilida nashr ettirgan. Shu bilan birga o'zbek olimlaridan Hamidulla Hasanov, Aziz Qayumov, Sayfuddin Jalilov va boshqalar tadqiqotlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada empirik va eksperimental metodologiyadan foydalanildi. Sababi ijtimoiy tarmoqlarda va internet olamida keng ko'lamli kuzatishlar qilish ancha qulay bo'lib qolganligi hamda yon atrofimizdagilarning Hindistonda bo'layotgan voqealardan bexabarligini tajribalar asosida aniqlandi.

Tahlil va natijalar

Jahon xalqlari ko'plab sarkardalar, kuchli siyosatchilar, olimlar, diniy ulamolar va shoir-u adiblarni ko'pini yaxshi taniydi. Lekin shunday kamyob shaxslar borki ular har sohada serqirra bo'lishgan. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zida jamlagan shaxslardan biri bu shubhasiz bu davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)dir. Z.M.Boburning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan hamda shoirlarning jimjimador she'rlaridan ma'lum. Xusan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan soliq siyosatiga katta o'rinn berilgan. «Zakot to'g'risidagi katta kitob» da esa o'sha davrdagi soliq, uning turlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bu qomusiy asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ulardan mamlakatimizning bugungi iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, o'zgarishlarni tahlil qilish, qisqacha xulosalar chiqarish va amaliyotda foydalanish uchun yangi fikrlar va ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklarga echim hamda maslahatlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyot va uning ajralmas qismi bo'lgansoliq siyosatiga oid, uning umumiy asoslari bo'lmish ishlab chiqarish, shuningdek savdo va tijoratga oid, soliq va boj to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan qarashlari bizni Bobur nafaqat shoir balki iqtisodiy sohalarni ba'zilar o'ziga yo'lboschchi qilib olgan A.Smitlardan ko'ra kuchli ekani bizni albatta to'lqinlantiradi. E'tirof etish kerakki, garchi bizning hayotimizda Boburning davlatni boshqarish, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish masalalariga doir alohida asari yoki uning o'z hukmronligi davrida yurgizgan iqtisodiy siyosatiga oid

birlamchi manbalar bo‘lmasa ham, ilmiy bilish va idrok etish kuchiga suyangan holda shunday qisqacha xulosalarga kelamizki, u buyuk mutafakkir, qomusiy olim sifatida iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning jamiyat va davlat hayotidagi belgilovchi ahamiyatini chuqur tushungan. Buyuk Britaniya imperiyasining Boburiylar imperiyasiga qilgan hujumi va uning ortidan kelgan mustamlakachilik siyosati natijasida bunday ilmiy asarlarning asl nusxasi London va boshqa shaharlarga olib ketilgani bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham u dolzarb va adolatli farmonlar va hukmlar chiqarib, ilmiy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yurgizgan, buning oqibati o‘laroq u hukmronlik qilgan davrda davlatda osoyishtalik, milliy totuvlik, siyosiy - ijtimoiy taraqqiyot qaror topgan. Shu bois ham Bobur asos solgan saltanat bir necha asr davomida yashadi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Boburiylarning buyuk imperiyasini ko’plab davatlarda «Buyuk mo‘g‘ullar» deb xato atalib kelinmoqda. Bobur va uning avlodlari o‘zlarini rasmiy hujjatlarda «Boburiy Mirzolar» deb yozishgan [Bobur 2018, 209]. Sababi, ko’plab Yevropa xalqlari va jahondagi ayrim shaxslar Amir Temurni Chingizzxonning avlodи deb yanglish fikrda ekanliklari asosiy sababdir. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o‘rinni egallagan. Boburning «Mubayyin» asari to‘la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan. Asarning nomi ham «bayon ettilgan» ma’nosiga ega. Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma’lum miqdorda va muayan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma’nosida qo‘llaniladi hamda naqd pul va savdo yig‘imi shaklida to‘planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish obyektining «nisobi», ya’ni mol-mulkning zakot berishga layoqatli bo‘lish uchun belgilangan miqdori aniqlanadi, hisobdan kam Bobur mulkdan soliq olinmaydi. «Agar erdan ikki hosil olsang, xirojni ham ikki marta to‘la», deb yozadi Bobur. Xiroj, ya’ni er solig‘i ikki toifaga bo‘lingan: muqassam va muvazzar. Birinchisi, olingen hosilning miqdoriga bog‘liq bo‘lib, uchdan birdan-yarimgacha teng bo‘lgan, ikkinchi esa, soliq solinadigan erving maydoniga bog‘liq ravishda olingen. Yerni sug‘orish masalalari Sharqda o‘ta muhim edi, chunki ob-havo nihoyatda quruq va issiq, er-tuproq sharoiti sun‘iy sug‘orishni talab etganligidan sug‘oriladigan erlar, tabiiyki, lalmikol erlardan ko‘p hosil bergen. Shu sababli suv solig‘i ham bo‘lgan. Suv solig‘i quyidagicha olingen: «agar sug‘orish davrida chig‘ir qursang, olgan hosilning o‘ndan birining yarmini soliq uchun to‘lashing kerak» [Bobur. Mubayyin 2010, 189], ya’ni sug‘oriladigan erlarga sarf-xarajat hisobga olingen va bu mantiqan to‘g‘ridir. Buni bobosi Amir Temurdan o‘rgangan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, bu davrda soliq va boshqa yig‘imlar tamomila islomiy shariatga to‘la rioya qilingan holda olingen. Hisobga etgan miqdordagi mol-mulkdan “Qur’oni Karim”, “Muxtasar”, “Hidoya” va boshqa manbalarda qat’iy belgilab qo‘yilgan qismi ixtiyoriy ravishda miskinlarga berilgan, masalan, boqiladigan mollar, ya’ni echki, tuya, sigir, otlardan, xusan, qo‘ylardan soliq (zakot) quyidagicha olingen: 40 qo‘ydan bitta (2,5%), 120 tasidan ikkita, 201 dan boshlab uchta, 400 dan ortiq bo‘lsa har 100

qo‘ydan bittasi zakot qilib berilgan. Shuningdek, «Boburnoma»da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirilishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to‘la bayon qilinadi. Bobur savdo-sotiqning xalqlar o‘rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqr tushunar edi. Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo‘llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon etkazish kabi salbiy illatlarga ayovsiz munosabatda bo‘lgan. Bu siyosat Amir Temur, Ulug‘bek va boshqa Temuriylar siyosati bilan ma’lum. O‘scha davrda Bobur savdogarlardan olinadigan savdo yig‘imining hamadolatli va xolisona tashkil qilinishiga katta ahamiyat bergen. Musulmon savdogarlarining savdo aylanmasidan savdo yig‘imi 20 misqol (4,5 gramm) oltindan 1 misqoli shaklida olingan, eng muhimi soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan, ya’ni daromad ko‘payishi bilan soliq kamaygan va boylik jamg‘aruvchilar uchun o‘ta manfaatli bo‘lgan [Bobur. Mubayyin 2010, 195]. Hozirgi davrda ham mana shu siyosatni qo‘llash foydadan holi emas. Chet ellik savdogarlardan olinadigan yig‘im esa ularning qaysi yurtlardan kelganligiga bog‘liq bo‘lgan. Agar ular islom mamlakatlaridan kelgan bo‘lsalar, barcha daromadlarining yigirmadan bir qismi miqdorida soliq olingan. Musulmon bo‘lmagan mamlakatlardan kelgan savdogarlardan olinadigan soliq miqdori shu mamlakatlarda musulmon savdogarlaridan olinadigan soliq miqdoriga tenglashtirilgan. Naqadar adolatli va foydali soliq tizimi. Buni bugungi O‘zbekistonimizdagi soliq sohasi mutaxasislari muhokama qilishlariga tavsiya qilib qolaman.

Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar davomida qo‘llanib kelindi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etdi. Bu esa Bobur iqtisodiy g‘oyalarining juda chuqr ilmiy asosga suyanganligi, uzoqni ko‘zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday ilmiy salohiyat uning vorislari, hamyurtlari bo‘lgan-bizlarda unga nisbatan yanada chuqr hurmat va faxlanish hissini uyg‘otadi. Ulug‘ bobokalonimiz, vatandoshimiz qoldirgan iqtisodiy g‘oyalar va iqtisodiy tafakkur merosi, u yurgizgan iqtisodiy siyosat tizimi mustaqilligimizni mustahkamlashda, bugungi kurashimizda qudratli ma’naviy tayanch bo‘lishga xizmat qiladi. Mirzo Bobur iqtisodiy dunyoqarashini o‘rganish, uning iqtisodiyotga oid qarashlarini tadqiq etish hamda imkon darajasida bugungi hayotimizga tadbiq qilish foydadan holi emas. Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur podshohligi davrida mamlakatga vino keltirish ta’qiqlangan, ya’ni iqtisodiyotda proteksionizm siyosati qo‘llanilgan. Boburdan keyin uning o‘g‘li Humoyun, keyinchalik nevarasi Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) 1556-1605 yillari Hindistonda muvaffaqiyatli podshohlik qilgan. Akbarshoh tomonidan 1574-yildan boshlab islohotlar o‘tkazdi, dehqonlarga yagona soliq kiritdi, yagona uzunlik va og‘irlilik o‘lchovlarini joriy qildi. Bu shoh to‘g‘risida 1601-yil «Akbarnoma» kitobi chop etildi, unda mamlakatdagi soliq tartibi o‘z aksini topgan. Birbal - tarixiy shaxs. 1994-yilda Toshkentda bosingan «Shoh Akbar va Dono Birbal» nomli to‘plamda ko‘rsatilishicha, u XVI asrning ikkinchi yarmi va asrning boshlarida

Hindistonda hukmronlik qilgan Akbarshoh bobosi Bobur an'analarini izchil davom ettirib, hindlar bilan musulmonlar o'rtasida birodarlik munosabatlarini o'rnatish yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. Akbarshoh boshqargan davlatda Birbal nufuzli hukmdor edi. Akbar bu dono va zukko hind amaldorlariga alohida mehr bilan qarab, uni har tomonlama e'zozlagan. Birbal ham Akbarshohning odilona siyosatini amalga oshirish sohasida sidqillik bilan xizmat qilgan. Akbar va Birbalning o'zaro suhbatlarida izhor etilgan har ikki tarixiy shaxsning iqtisodiy qarashlari alohida diqqatga sazovordir. Unda insonlardagi halollik va insof bilan birga ayrim amaldorlarning vijdonsizliklari iqtisodiy tomondan tahlil qilinadi, feodalizm sharoitida murakkab iqtisodiy muammolarning echimini topishga uriniladi. «Podshohning besh savoli» hikoyasida Birbalning chuqur iqtisodiy tafakkurga ega ekanligi namoyon bo'ladi. «Ulug' ma'bud Indiradir», - deb so'z boshlaydi u. Chunki u Buddaviylik diniga qat'iy amal qilganligi haqida ma'lumot manbalarda keladi.

Xulosa va takliflar

Umumiylar qilib aytganda Avrangzeb Olamgir alohida o'rganishga loyiq buyuk Boburiylardan hisoblanadi. Chunki uning hukumronligi davrida (1658-1707) Hindiston iqtisodiy, harbiy va siyosiy jihatdan eng yuqori cho'qqiga erishgan. O'sha davrda dunyo ishlab chiqarishini 100 foiz deb olsak uning 25 foizi Boburiylar hissasiga to'g'ri kelgan. Yana 25 foizi Usmoniylar hissasi va qolgan 50 foizini butun dunyo davlatlari hissasiga mos bo'lgan. Hatto bugungi iqtisodiy qudratliman deb hisoblayotgan Hindiston ham hali bu darajaga chiqishiga ko'p yillar kerak bo'lishini tushunib turibmiz.

Shu bilan birgalikda A.Olamgir bugungi kunda ham Hanafiya fiqhida mo'tabar va qiymati beqiyos bo'lgan «Fatavoyi Olamgiriya» deb nomlangan katta fiqhiy kitob ham tuzdirgan. Hozirda ham bu kitob asosida Hanafiy maktabi a'zolari ko'plab fatvolar bermoqdalar, xususan yurtimiz Diniy Idorasida ham ko'plab javoblarda manba sifatida tayanilmoqda. Bundan tashqari kam o'rganilgan A.Olamgirning qizi Zebuniso Begim ham bor bo'lib, bu olima qiz Islom tarixida kam uchraydigan Qur'oni Karimning tafsir qiluvchi ayollardan biridir. Zebuniso Begimga tegishli tafsir bugungi hind musulmon ulamolari tomonidan munosib baholab kelinmoqda. Va yana Shoh Jahon ham hammaga mashxur bo'lib betakror hamda zamonaviy dunyoimizning mo'jizalaridan biri Toj Mahal haqida har qancha maqtovlar bitsak shuncha kamdir. Shuning uchun ko'pchilikka noma'lum bo'lgan o'ziga xos qismi haqida aytib o'tsam. Ma'lumki, Toj Mahal bir-biridan ajoyib naqshlar bilan bezatilgan va u naqshlar orasida hikmatli so'zlar, hadislar hamda Qur'oni Karim oyatlari go'zal shaklda o'z ifodasini topgan. Bino balandligini hisobga olib, ziyoratga kelganlar binoning yuqori qismidagi yozuvlarni bemalol o'qishlari uchun yozuvlar hajmi yuqoriga qarab yiriklashib boraveradi. O'quvchi esa hech qiyalmasdan eng yuqori shiftdagи yozuvlarni ham hech bir qiyinchiliksiz o'qiy olgan. Bobur bobomizning va uning avlodlarining iqtisodiy, siyosiy, ilm-

fanga oid qarashlaridan to‘g’ri xulosa chiqarishimiz va chuqur tahlil qilishimiz kerak va bu kata tajribadan yurtimiz kelajagi uchun foydalanish bizning burchimizdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurbek.S., & Paxmohob, X. Z. Financial System and Financial Policy. Journal NX, 658-661.
2. Mustafayevich, S. A. (2023). Yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda sharq mutafakkirlari iqtisodiy qarashlarining o‘rni. Научный Фокус, 1(7), 1142-1145.
3. Musurmanov, A. N., Satbarov, A. A., Suyarov, A. M., & Xakimova, I. X. (2023). Clustered disciplinary factors of school lessons in modernized education conditions as a social pedagogical problem. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 2605-2614.
4. Toshmatov Sh.X, X.S.Asatullaev, Z.B.Allaberganov Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. T., 2019 y. 352 b
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. -Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y. 320 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur/ Boburnoma: - T.: "Yangi asr avlodi", 2018. - 704 b.

**08.00.00 IQTISODIYOT FANLARI
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
ECONOMIC SCIENCES**

**KICHIK BIZNESNI MAHALLIY DARAJADA BOSHQARISH HOLATINI
BAHOLASHDA MAVJUD IQTISODIY SALOHIYATNI HISOBGA
OLGAN HOLDA YONDASHISH USLUBIYOTI**

G'ofurov U.V.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlarining mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlari, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining tarkibi, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmi samaradorligini baholashning uslubiy masalalari tadqiq etilgan.

Tayanch iboralar: kichik biznes, iqtisodiy mehanizm, samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассмотрены общие с местным самоуправлением аспекты специфики деятельности малого бизнеса, структура экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне, методические вопросы оценки эффективности экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне

Ключевые слова: малый бизнес, экономический механизм, эффективность.

Abstract. This article discusses aspects of the specifics of small business activities common with local government, the structure of the economic mechanism of small business management at the local level, methodological issues of evaluating the effectiveness of the economic mechanism of small business management at the local level.

Key words: small business, economic mechanism, efficiency.

Kirish

Kichik biznes sohasining boshqaruv obyekti jihatidan o‘ziga xos xususiyat va tavsiflarining kuchli darajada namoyon bo‘lishi, ayniqsa, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishda mazkur holatni to‘liq e’tiborga olgan holda faoliyat samaradorligini ta’minlashning ahamiyatini kuchaytirmoqda. “Mahalliy

o‘zini o‘zi boshqaruv organlari o‘z hududlarida biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishiga asoslanuvchi mahalliy-xususiy sheriklik usullari tobora kengayib bormoqda. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishi – bu qo‘srimcha ish o‘rinlari, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni mahalliy ehtiyojar uchun amalga oshirish, mahalliy byudjetga soliq to‘lovlarini namoyon etadi. Yirik korxonalarda ishlab chiqarishning pasayishi va ish o‘rinlarining qisqarishi sharoitida kichik biznes ko‘plab mahalliy tuzilmalarda hayotni ta’minlashning asosiy omiliga aylanmoqda”. Bu esa muntazam ravishda kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiy adabiyotlarda mexanizm tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, D.M.Juravlev “Tizimning ko‘plab elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarining ifodasi sifatidagi “mexanizm” tushunchasi o‘z vaqtida texnika fanlaridan olingan bo‘lib, mexanizm tushunchasi ostida mashina, apparat yoki asbobni harakatga keltiruvchi, ta’sirni uzatuvchi va energiyani o‘zgartiruvchi ichki tuzilmasi nazarda tutiladi. Umumiyl holatda mexanizm kirish (energiya) va chiqish (talab etilayotgan natija), o‘zaro ta’sir qiluvchi (yuklama) va boshqa elementlar (ish)ni harakatga keltiruvchi (energiyanı uzatish)ning oldindan belgilangan parametrlariga ega bo‘lgan, muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan alohida elementlarini namoyon etadi.

Texnik tizimlarga taqqoslaganda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga nisbatan «mexanizm» atamasi jo‘shqinlik, o‘zgaruvchanlik, tarkibiy elementlarning bir turda bo‘lmasligi, dastlabki holatga qaytish imkonining mavjud emasligi va boshqa funksional tavsiflar bilan bog‘liq bo‘lgan qator xususiyatlarga ega”[2], deb ta’kidlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, mexanizm – bu muayyan ichki tartibga ega bo‘lgan, hodisa yoki jarayonlarga kuch (ta’sir) beruvchi ichki elementlarning o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirdagi harakatidir. Mexanizm tushunchasiga berilgan ta’riflar va izohlar pirovardida o‘zining mazmunan yaqinligi va shaklan o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi qarashlar va ular asosidagi mulohazalarini quyidagi xulosa orqali ifodalash mumkin: “Biz “mexanizm” atamasining har qanday turlicha ta’riflari, manbalaridan foydalanishimizdan qat’iy nazar, u umumiyl asosga ega: mexanizm – bu obyektni harakatga keltiruvchi ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardir. Bu o‘rinda ikkita yondashuv ajralib turadi: mexanizm obyektning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar majmui sifatida hamda obyektning rivojlanishini ta’minlovchi elementlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri sifatida qaralishi mumkin”[3].

Shuni ta’kidlash kerakki, faqat iqtisodiy parametrlarni hisobga oladigan va guruh tuzish ko‘lamining xususiyatlarini, tadbirkorlik faoliyatining kollektivlik darajasini hisobga olmaydigan boshqaruv yondashuvi kichik biznesning keng

ko‘lamli rivojlanishini ta’minlay olmaydi va faqat "zaif yoki samarasiz tadbirkorlik" ning ishlashiga olib keladi.[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada belgilangan tadqiqot vazifalarini hal etish uchun statistik, solishtirma tahlil usuli, korrelyatsion va regression tahlil, so‘rovnama va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Solishtirma tahlil usuli – bu umumiy ilmiy usullar qatoriga kirib, u empirik tahlil xarakteristikasiga ega. Uning turlari ko‘p, masalan, solishtirmataqqoslash, tarixiy solishtirma va boshqalar. Statistik usulning umumiy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: yig‘ilgan ma’lumot bazasi ma’lum kategoriylar bo‘yicha guruhlanishi, tizimlashtirilishi hamda ikki va undan ko‘p bo‘lgan bir guruh va rekvizitga ega ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan nisbiy solishtirish amalga oshiriladi va holatga baho beriladi.

Tahlil va natijalar

Hududlar bo‘yicha kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish samaradorligini baholashning murakkabligi bu boradagi amalga oshirilgan hisob-kitob yoki qo‘llanilgan usul erishilgan natijaning mahalliy boshqaruv samaradorligi bilan bevosita bog‘liqligini ifodalay olmasligi orqali namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, hududlardagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish natijalari tarkibida aynan mahalliy darajada boshqarishning ta’siri hisobiga olingan qismini aniqlashning ilmiy-uslubiy asosi tadqiqotning diqqat markazida turadi. Umumi holda, kichik biznesni boshqarish darajasini baholash uchun umumiy iqtisodiyot natijalari bilan kichik biznes sub’yektlari faoliyat natijalari o‘zaro taqqoslab ko‘riladi.

Viloyat tumanlari iqtisodiy salohiyatining turliligi sharoitida har bir tumandagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish natijalari tarkibida aynan mahalliy darajada boshqarishning ta’siri hisobiga olingan qismini aniqlash muhim. Bunda tumanlar iqtisodiy salohiyatini shartli tarzda bir xil darajaga keltirib, natjalarni qaytadan hisoblash chiqish bu boradagi o‘ziga xos yondashuv hisoblanadi. Mazkur uslubiy yondashuvda quyidagi ko‘rsatkich va hisob-kitoblardan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yuqoridaqgi hisob-kitoblar orqali baholangan natijalar umumiy tavsif kasb etadi. Chunki, ushbu ko‘rsatkichlar:

birinchidan, hududlarning iqtisodiy salohiyati darajalarini hisobga olmaydi; ikkinchidan, bu natijalar aynan mahalliy darajada boshqarish ta’siri ekanligini ifodalay olmaydi.

Shunga ko‘ra, hududlardagi kichik biznes faoliyatidagi natjalarning hosil bo‘lishi ko‘p jihatdan ularning iqtisodiy salohiyatiga bog‘liq. Bunda hududlarning faoliyat natijalari asosiy iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlarining iqtisodiy resurs birligiga nisbatli orqali baholanishi lozim. Bizning tadqiqotimiz doirasida maxalliy

(xududiy) resurslar sifatida quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi: 1) hududlardagi aholi soni. 2) hududlardagi kichik biznes sub'yeqtalarida bandlar soni; 3) hudud maydoni.

1-jadval

Hududlar bo'yicha kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish holatini baholashda mavjud iqtisodiy salohiyatga ko'ra yondashish uslubiyoti¹

Ko'rsatkich	Hisoblash tartibi	Shartli belgilari
Hududlar bo'yicha kichik biznes sub'yeqtleri nisbiy faoliyat barqarorligining oshishi koeffisiyenti	$K_{FB} = \frac{\sum JK}{\sum KBK} = \frac{\sum_{i=1}^m JK_{in-1} / \sum_{i=1}^m JK_{in}}{\sum_{i=1}^m KBK_{in-1} / \sum_{i=1}^m KBK_{in}},$	K_{FB} - hududlar bo'yicha kichik biznes sub'yeqtleri nisbiy faoliyat barqarorligining oshishi koeffisiyenti; $\sum JK$ - jami korxonalarning tahlil davridagi nisbiy barqarorlik o'sish sur'atlari yig'indisi, foiz; $\sum KBK$ - kichik biznes korxonalarning tahlil davridagi nisbiy barqarorlik o'sish sur'atlari yig'indisi, foiz; JK - faoliyat ko'rsatmayotgan jami korxonalar soni, birlik; KBK - faoliyat ko'rsatmayotgan kichik korxonalar soni, birlik; n - tahlil qilinayotgan davrdagi muayyan yil; $i = 1\dots m$ - tahlil davridagi yillar soni.
Hududlardagi faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining solishtirma salmog'i indeksi	$I_{FK} = \frac{\sum_{i=1}^n HQ_i / UQ_i}{n},$	I_{FK} - hududlardagi faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining solishtirma salmog'i indeksi; HQ - muayyan hududdagi faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalar soni, birlik; UQ - barcha hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatmayotgan kichik korxonalar umumiy soni, birlik; n - tahlil qilinayotgan davrdagi yillar soni.
Muayyan hududdagi faoliyat ko'rsatmayotgan jami korxonalar tarkibida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining ulushi	$I_{KBU} = \frac{\sum_{i=1}^n KBK_i / JK_i}{n},$	I_{KBU} - hududdagi faoliyat ko'rsatmayotgan jami korxonalar tarkibida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining ulushi indeksi; JK - faoliyat ko'rsatmayotgan jami korxonalar soni, birlik;

¹ Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

		<i>KBK</i> - faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik korxonalar soni, birlik; <i>n</i> – tahlil qilinayotgan davrdagi yillar soni.
Kichik biznes sub’yeqtari faoliyati natijalarining yillar davomidagi o‘zgarishlarini ifodalovchi o‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymati	$O'D_{KB} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i / x_{i-1}}{n},$	<i>O'D_{KB}</i> - kichik biznes sub’yeqtari faoliyati natijalarining yillar davomidagi o‘zgarishlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymati, baravar; <i>X</i> - kichik biznes sub’yeqtari muayyan faoliyati natijalarining qiymati, mld. so‘m; <i>y</i> - tahlil qilinayotgan muayyan yil; <i>n</i> - tahlil qilinayotgan davrdagi yillar soni.
Kichik biznes sub’yeqtari faoliyati natijalarining tahlil davridagi o‘zgarishlarini ifodalovchi umumiy o‘rtacha reytingi	$UR_{KB} = \frac{\sum_{i=1}^n R_i}{n},$	<i>UR_{KB}</i> - kichik biznes sub’yeqtari faoliyati natijalarining tahlil davridagi o‘zgarishlarini ifodalovchi umumiy o‘rtacha reytingi; <i>R</i> - kichik biznes sub’yeqtarining tahlil davridagi muayyan faoliyati bo‘yicha reytingi, o‘rin; <i>i</i> - reyting baholashda hisobga olinayotgan ko‘rsatkich; <i>n</i> - reyting baholashda hisobga olinayotgan ko‘rsatkichlar soni.

Namangan viloyati tuman va shaharlari kesimida mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining samaradorligini baholashda kichik biznes sub’yeqtari faoliyati natijalarini ifodalovchi quyidagi ko‘rsatkichlar belgilab olindi:

- 1) kichik biznes sub’yeqtari tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi;
- 2) kichik biznes sub’yeqtari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi;
- 3) kichik biznes sub’yeqtari tomonidan ishlab chiqarilgan iste’mol mollari hajmi;
- 4) kichik biznes sub’yeqtari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo aylanmasi hajmi;
- 5) kichik biznes sub’yeqtari tomonidan ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmi.

Namangan viloyatida 2018-2022 yillarda mazkur ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymati ($O'D_{KB}$) hamda reytingi bo‘yicha ma’lumotlarni quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyatida 2018-2022 yillarda kichik biznes sub'yeqtлari faoliyati natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar¹

Shahar va tumanlar	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi		Sanoat mahsulotlari hajmi		Iste'mol mollari hajmi		Chakana savdo aylanmasi hajmi		Jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	
	O'D _{KB}	Reyting	O'D _{KB}	Reyting	O'D _{KB}	Reyting	O'D _{KB}	Reyting	O'D _{KB}	Reyting
Namangan sh.	1,228	2	1,282	9	1,268	8	1,273	6	1,212	12
Mingbuloq	1,275	1	1,865	1	2,923	1	1,291	4	1,402	2
Kosonsoy	1,139	11	1,520	4	1,480	3	1,206	12	1,376	5
Namangan	1,152	10	1,198	12	1,212	9	1,306	3	1,245	11
Norin	1,219	3	1,383	7	1,130	12	1,267	7	1,404	1
Pop	1,212	4	1,201	11	1,367	7	1,363	1	1,333	7
To'raqo'rg'on	1,192	6	1,622	3	1,391	6	1,230	9	1,280	10
Uychi	1,156	9	1,330	8	1,162	10	1,333	2	1,399	3
Uchqo'rg'on	1,181	7	1,233	10	1,155	11	1,238	8	1,339	6
Chortok	1,164	8	1,408	6	1,460	5	1,277	5	1,324	8
Chust	1,134	12	1,753	2	1,723	2	1,226	10	1,379	4
Yangiqo'rg'on	1,121	5	1,462	5	1,463	4	1,216	11	1,286	9

Namangan viloyati shahar va tumanlarining alohida faoliyat turlari natijalari bo'yicha reyting ma'lumotlari asosida hisoblangan umumiylay reytingni quyidagi jadval orqali guruhlarga ajratilgan holda ifodalash mumkin (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyati shahar va tumanlarining kichik biznes faoliyat natijalari bo'yicha umumiylay o'rtacha reytingi²

Daraja guruhlari	Hududlar
Yuqori daraja (1 – 4)	Mingbuloq (1,8)
O'rta daraja (4 – 6)	To'raqo'rg'on (6,8), Yangiqo'rg'on (6,8), Uychi (6,4), Chortok (6,4), Norin (6), Pop (6), Chust (6)
Quyi daraja (7 – 12)	Namangan (9), Uchqo'rg'on (8,4), Namangan sh. (7,4), Kosonsoy (7)

¹ Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

² Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, 2018-2022-yillarda Namangan viloyati shahar va tumanlarining kichik biznes faoliyat natijalari bo'yicha umumiyo'rtacha reytingi darajasi bo'yicha Mingbuloq tumani peshqadamlik qilsa, aksincha, Namangan tumani eng oxirgi o'rinni egallagan.

Navbatdagi bosqichda 2-jadvalda keltirilgan Namangan viloyati hududlarining 2018-2022-yillar bo'yicha o'rtacha geometrik qiymatdagi tuzatish koeffisiyentlaridan foydalangan holda kichik biznes sub'yeqtllari faoliyat natijalarini qaytadan hisoblab chiqildi (4-jadval).

4-jadval

Namangan viloyatida kichik biznes sub'yeqtllari faoliyati natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning hudud iqtisodiy salohiyati jihatidan tuzatilgan qiymati va reytingi¹

Shahar va tumanlar	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi		Sanoat mahsulotlari hajmi		Iste'mol mollari hajmi		Chakana savdo aylanmasi hajmi		Jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	
	$O'D_{KB}$	Reyting	$O'D_{KB}$	Reyting	$O'D_{KE}$	Reyting	$O'D_{KI}$	Reyting	$O'D_{KI}$	Reyting
Namangan sh.	1,262	2	1,3141	9	1,298	8	1,312	5	1,229	12
Mingbuloq	1,276	1	1,865	1	2,923	1	1,292	6	1,402	2
Kosonsoy	1,146	12	1,527	4	1,490	5	1,214	12	1,388	5
Namangan	1,181	9	1,227	11	1,242	9	1,340	2	1,277	11
Norin	1,214	5	1,380	7	1,125	12	1,261	10	1,401	3
Pop	1,217	4	1,208	12	1,376	7	1,372	1	1,340	8
To'raqo'rg'on	1,236	3	1,692	3	1,449	6	1,275	8	1,328	9
Uychi	1,150	10	1,3144	8	1,151	11	1,327	3	1,399	4
Uchqo'rg'on	1,203	6	1,264	10	1,184	10	1,262	9	1,363	6
Chortok	1,195	7	1,442	6	1,499	3	1,315	4	1,361	7
Chust	1,190	8	1,847	2	1,814	2	1,279	7	1,456	1
Yangiqo'rg'on	1,149	11	1,513	5	1,498	4	1,248	11	1,307	10

Yuqoridagi Namangan viloyati shahar va tumanlarining alohida faoliyat turlari natijalariga ko'ra reyting ma'lumotlari asosida hisoblangan umumiyo'rtacha reyting singari hudud iqtisodiy salohiyati jihatidan tuzatilgan qiymati reytingini guruhlar bo'yicha aniqlandi (5-jadval).

¹Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

5-jadval

**Namangan viloyati shahar va tumanlarining hudud iqtisodiy salohiyati
jihatidan tuzatilgan kichik biznes faoliyat natijalari bo'yicha umumiy
o'rtacha reytingi¹**

Daraja guruhlari	Hududlar (farqi +,-)
Yuqori daraja (1 – 3)	Mingbuloq (2,2; -0,4)
O'rta daraja (4 – 6)	Chust (4; +2,0), Chortoq (5,4; +1,0), To'raqo'rg'on (5,8; +1,0), Pop (6,4; -0,4), Norin (7,4; -1,4)
Quyi daraja (7 – 12)	Namangan sh. (7,2; +0,2), Uychi (7,2; -0,8), Kosonsoy (7,6; -0,6), Uchqo'rg'on (8,2; +0,2), Yangiqo'rg'on (8,2; -1,4), Namangan (8,4; +0,6)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, Namangan viloyati shahar va tumanlarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznesning asosiy ko'rsatkichlari natijalari hududning iqtisodiy salohiyati jihatidan tuzatish kiritilgandan so'ng yo ijobjiy (+), yoki salbiy (-) tomonga o'zgargan. Jumladan, Chust (+2,0), Chortoq (+1,0), To'raqo'rg'on (+1,0), Uchqo'rg'on (+0,2), Namangan (+0,6) tumanlari va Namangan shahri (+0,2)da reyting o'rinnarida yuqoriga siljishlar bo'lsa, Mingbuloq (-0,4), Pop (-0,4), Norin (-1,4), Uychi (-0,8), Kosonsoy (-0,6), Yangiqo'rg'on (8,2; -1,4) tumanlari reyting ko'rsatkichlari, aksincha, pastlagan.

Mazkur dissertatsiya doirasida «BUSINESS INDICATOR» Hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash bo'yicha avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi ma'lumotlari asosida Namangan viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish darajasi tahlil qilingan. Bunda viloyat tuman va shaharlarida tadbirkorlik rivojlanganligining umumiyligi darajasidan kelib chiqqan holda, tadbirkorlardan kelib tushgan murojaatlar, tadbirkorlik sub'yeqtalarining yashovchanligi, hududda bo'sh turgan bino-inshootlar va uchastkalardan foydalanish, aholini ish bilan ta'minlash, hududdagi tadbirkorlarning davlat byudjet tushumlaridagi ulushi indikatorlarining yillar bo'yicha o'rtacha ma'lumotlari hisoblab chiqildi (6-jadval).

Mazkur reyting uslubiyotidagi o'ziga xos jihat – ayrim indikatorlarning hududdagi tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida shakllantirilishi hisoblanadi. Jumladan, shunday indikatorlar qatorida tadbirkorlarning davlat tashkilotlariga bo'lgan ishonchi (1-indikator), bank xizmatlari ko'rsatilishi sifati (2-indikator), muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ularish va ta'minlanganligi (3-indikator), homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish (4-indikator)ni ko'rsatish mumkin.

¹Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

6-jadval

**Namangan viloyati tuman va shaharlarida tadbirkorlardan
kelib tushgan murojaatlar¹**

Tumanlar	Tadbirkorlar dan kelib tushgan murojaatlar	Tadbirkorlik sub'yeqtalarini ng yashovchanli gi	Bo'sh turgan bino-inshootlar va uchastkalardan foydanish	Aholini ish bilan ta'minlas h	Tadbirkorlarn ing davlat byudjet tushumlaridag i ulushi
Kosonsoy	9,20	5,55	5,98	3,13	1,18
Mingbuloq	8,75	5,88	6,03	3,30	1,60
Namangan sh.	8,85	5,78	5,28	3,85	2,05
Namangan	9,20	5,68	5,73	4,13	1,33
Norin	8,55	5,90	5,73	3,15	1,23
Pop	8,83	5,73	4,95	2,78	1,45
To'raqo'rg'on	9,48	6,23	6,30	3,03	1,35
Uchqo'rg'on	9,00	5,55	6,25	2,95	1,48
Uychi	8,85	5,53	5,93	3,73	1,45
Chortoq	8,90	5,35	5,55	2,93	1,15
Chust	8,93	5,35	6,03	3,00	1,20
Yangiqo'rg'on	8,80	5,38	5,03	2,73	1,25
Viloyat bo'yicha	6,13	4,50	5,80	3,45	1,70

Xulosa va takliflar

Kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish, ayniqsa, muayyan maqsadlarga erishish yo'nalishida yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bu boradagi "o'ziga xos tizimli zanjir" orqali ifodalash mumkin.

Kichik biznesning afzal tomonlaridan biri – bu undagi boshqaruvning sodda va ixchamligi hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy subyekt singari kichik biznes ham alohida soha sifatida boshqaruva jarayonlarini taqozo etadi, biroq bu o'rinda, boshqa iqtisodiy subyektlardan farq qiluvchi, o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Kichik biznes faoliyati o'z tabiatiga ko'ra ko'proq mahalliy boshqaruvga yaqin hisoblanib, tadqiqot davomida mazkur qoidani asoslovchi holatlar ifodalab berilgan.

Kichik biznes subyektlarini boshqarishda mazkur jarayonning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan mushtarakligini ochib berish muhim hisoblanib, bunda qator yondashuvlar, shu jumladan, kichik biznesning afzallik va kamchiliklari nuqtai nazaridan yondashuvdan foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, mqlada dastlab kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi holatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

¹Muallif tomonidan quyidagi manba asosida tuzilgan: «BUSINESS INDICATOR» Hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash bo'yicha avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizim. - <https://b-indicator.uz/>

Foydalaniman qilgan adabiyotlar ro‘yxatasi

1. Бокаев А.В. Местное самоуправление и малый бизнес. Бизнес становится главным фактором поддержания жизни во многих муниципальных образованиях. // Известия Иркутской государственной экономической академии (Байкальский государственный университет экономики и права). - Электронный научный журнал. 2011. №3. -<http://eizvestia.isea.ru>
2. Журавлев Д.М. Организационно-экономический механизм управления устойчивым развитием региона // Креативная экономика. – 2019. – Том 13. – № 2. – С.249-260. doi:10.18334/ce.13.2.39905
3. Бычкова А.Н. Экономический механизм: определение, классификация и применение.-Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2010. № 4. С. 37.
4. Убайдуллаев А.Т. Кичик бизнесни бошқаришда услугий ёндашувлар.// “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g`oyalar, takliflar va echimlar” mavzusidagi 23-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to`plami 15-sentyabr , 2021-yil 23-son/
5. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=16077187763737932205&btnI=1&hl=ru>
6. Требова С.В., Плешаков П.С. Предпринимательские способности населения: понятие и измерение // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №9(17), 2012. – www.sisp.nkras.ru. – С.5.;
7. Артемова О.В., Логачева Н.М., Нестеренко И.Ю. Ресурсы для развития малого и среднего предпринимательства региона // Социум и власть. 2018. № 2 (70). С.48-55.;
8. Багинова В.М., Беломестнов В.Г. Потенциал развития малого промышленного предпринимательства в регионе. // Известия Иркутской государственной экономической академии. 2015. Т. 25, № 6. С.99

ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Narzullaev E.Sh.

Associate Professor of University of Business and Science, PhD

Rafikov A.B.

Student of University of Business and Science

Abstract. This article presents advanced foreign experience in the development of the field of social entrepreneurship, scientists who have conducted research in this area, the emergence of social entrepreneurship in our country, the state of its development today, measures taken to support social entrepreneurship activities, discusses the requirements and procedure for conducting this type entrepreneurial activity.

Key words: social entrepreneurship, register of social enterprises, preferences, environmental entrepreneurship, social project, social goods, renewable energy sources, waste recycling;

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlanirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan olimlar, mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlikning paydo bo'lishi, bugungi kunda uning rivojlanish holati, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar, ushbu turdag'i tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish talablari va tartibi muhokama qilinadi.

Tayanch iboralar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxonalar reestri, imtiyozlar, ekologik tadbirkorlik, ijtimoiy loyiha, ijtimoiy tovarlar, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishslash

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены передовой зарубежный опыт развития сферы социального предпринимательства, ученые, проводившие исследования в этой области, возникновение социального предпринимательства в нашей стране, состояние его развития на сегодняшний день, принимаемые меры по поддержке деятельности социального предпринимательства, требования и порядок осуществления данного вида предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, реестр социальных предприятий, льготы, экологическое предпринимательство, социальный проект, социальные товары, возобновляемые источники энергии, переработка отходов;

Introduction

Entrepreneurship is a constantly growing activity. It is precisely the existing environmental problems that have led to the development of ecological approaches to business activity. Increasing ecological knowledge of the population also increases the need of ecological social entrepreneurs of the society. The limitation of natural resources, the continuous increase of the world's population and the decrease of biological diversity play an important role in the emergence of concerns about ecology. The main difference between social entrepreneurs focused on environmental protection and traditional entrepreneurs is that the main goal is not only to get more profit, but such entrepreneurs strive to create a business model that is environmentally friendly, economically profitable, and creates social value.

Looking at the development of the concept of social entrepreneurship, it can be seen that this concept appeared in the 1980s and has been continuously developing since then. However, despite decades of research and efforts, scientists have not come to a clear conclusion on a comprehensive concept and general definition. Because of this, the dynamic nature of the object and the large number of conceptual objects chosen by the researchers made it impossible to come to a single stop. Many activities related to the development of society and the achievement of high social goals are the basis for the emergence of the concept of modern social entrepreneurship and its popularization among society. Despite the many definitions that exist today, it is difficult to determine a comprehensive definition that can fully classify social entrepreneurship due to the fact that it can be manifested in several forms. In order to determine the importance of the emergence of the concept of social entrepreneurship and the socio-economic development of society, we will consider the scientific ideas and conclusions of scientists in the field.

Literature review

Regarding social entrepreneurship, its specific features and general description, major foreign economists H. Bowen, D. Bornstein, J. Elkington, P. Hartigan, B. Drayton, G. Deese, Charles Leadbeater, among modern scientists, J. Boshi, J. Kikal and T. Lyons conducted scientific research.

A.A. Antonova, A.A. Barisheva, B.M. scientists from the Commonwealth of Independent States (CIS). Teplov, M.A. Makarenko, V.V. Kashpur, L.V. Khokhlova, D.M. Shakirova, V.I. Makarevich and others conducted their research on the theoretical and practical problems of social entrepreneurship development and management.

From our local scientists, A.Vahobov, S.Gulomov, U.Gafurov, N.Yuldashev, N.Makhmudov, A.Soliyev, M.Butaboyev, I.Nosirov, Sh.Zaynuddinov, A.Koshimov, N.Rasulov , N. Norbayev and others conducted research on the entry of social entrepreneurship in our country, its characteristics, ways of managing development, advantages and disadvantages.

Methodology

Robert Owen (1771-1858), the founder of the cooperative movement, and Florence Nightingale (1820-1910) are two notable entrepreneurs who established the first official social enterprises and thought about the concept of "social entrepreneurship" at the beginning of the 19th century. The terms "social entrepreneur" and "social entrepreneurship" were first used in the literature in 1953 by Howard Bowen in "Social Responsibilities of Entrepreneurs". These terms were introduced and widely used in the 1980s and 1990s by Bill Drayton, Charles Leadbeater, and others. From the 1950s to the 1990s, politician Michael Young was a leading promoter of social entrepreneurship¹.

Analysis and Results

The above-mentioned authors have not extensively studied the type of social entrepreneurship based on environmental protection in the scientific research work on the management of the development of social entrepreneurship subjects, and therefore, not enough research has been conducted. The need to solve this problem provides an opportunity to determine the research topic, goals and objectives.

In countries where the type of social entrepreneurship focused on environmental protection is widely developed, social entrepreneurship entities appear in various forms. In our country, ecological social entrepreneurs operate in the fields of collection, removal and sorting of household waste, as well as waste processing. Currently, 51 (30.2%) of the 169 environmental social entrepreneurs in our country are engaged in the provision of household waste collection and sorting services, while the remaining 118 (69.8%) are waste processing enterprises. Almost a third of social business entities performing this type of activity, i.e. 33.1%, go to Tashkent, 14.4% to Fergana, 13.6% to Namangan, 11.9% to Tashkent and 8.5% is the share of Samarkand regions, the regions with the lowest indicators in this regard are Syrdaryo 0%, Kashkadarya 0%, Jizzakh 0.9% and the Republic of Karakalpakstan 0.9%².

In our study, the share of waste processing enterprises by types of waste processed was also analyzed. According to it, the main part of the existing 118 waste processing enterprises is plastic processing (28), textile waste processing (20), metal waste processing (19), rubber and paper products processing (7 %) areas.

When the activity of business entities specializing in waste processing in Namangan region, which is the object of the research, was studied, in 2018, the number of business entities in this direction was 17, and "Measures to further improve the management system of work related to household and construction

¹ Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Structural structure of social entrepreneurship based on environmental protection and its specific features// Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65

² Statistics Agency Under the President Of The Republic Of Uzbekistan

waste" on activities" on the basis of the decision, the number of enterprises on the annexation of territories to business entities on the basis of the principle of public-private partnership has reached 22 (Table 1)¹.

According to Table 1, waste processing enterprises in the region processed 48,273 tons of waste in 2018 and received 41,514 tons of various products. In 2022, the amount of processed waste increased by 116,157 tons to 164,430 tons. the volume also increased by 83138 tons and made 124652 tons.

Table 1

Economic indicators of business entities specializing in waste processing in Namangan region

№	Indicators	2018 ear	2019 ear	2020 ear	2021 ear	2022 ear	2022 y. 2018 y. (+;-)
1.	Number of enterprises, pcs	17	17	19	16	22	5
2.	Volume of recycled waste (tons)	48273	76418	104645	119 228	164430	116157
3.	Volume of products from recycling (tons)	41514	68776	89995	100 375	124652	83138
4.	Revenue from the sale of processed products, million soums	266645,4	411749,9	508040,1	664711,1	800642,8	533997
5.	Production costs, million soums	210941,5	300534,7	373256,7	468614,9	544699,6	333758
6.	Profit, million soums	55703,9	111215,2	134783,4	196096,2	255943,3	200239
7.	Rentability, %	20,9	27,0	26,5	29,5	32,0	11,1

If we analyze the financial and economic indicators of business entities specializing in waste processing in the region, the enterprises have achieved positive indicators of economic efficiency in accordance with production. In 2018, the profit of enterprises from the results of their activities amounted to 55703.9 mln. soums, and profitability was 20.9%, in 2022 these indicators will grow accordingly, and the profit will increase by 200,239 million soums to 255,943.3 million soums. soums, the profitability index also increased by 11.1% to 32.0%.

The analyzes show that the establishment and development of business entities specializing in environmental protection is a direction of high socio-economic benefit for the country's economy and environmental protection, as well as for business entities.

¹ Uznature.uz

When determining the development of business entities specializing in environmental protection, the average arithmetic value of the coefficients of the descriptive indicator of the entity is:

$$I_t = \frac{\sum_{i=1}^n k_o}{n} \quad (1)$$

Here:

k_o – coefficient;

n – the number of indicators in the calculation blog.

$$I_t = (\bar{x}_i / \bar{x} - 1) \cdot 100 \quad (2)$$

Here:

I_i – the deviation of the integrated indicator of the subjects of social entrepreneurship in the district;

x_i – the indicator of the social entrepreneurship subject at the district level;

\bar{x} – is the average value of the integrated indicator of the social enterprise at the district level.

Based on the determined average values, the marginal value norms of the development of social business entities specializing in environmental protection in the cities and districts of Namangan region can be divided into groups using the following table:

Table 2

Marginal value standards for the development of social business entities specializing in environmental protection in cities and districts of Namangan region¹

№	Specialization of the business entity	Degrees	Threshold amount
1	Social enterprise specializing in environmental protection	Low	0,1 ≤ IT ≤ 0,3
2		Medium	0,31 ≤ IT ≤ 0,5
3		High	0,51 ≤ IT ≤ 1,0

In our research, the marginal value norms of the development of social business entities specializing in environmental protection in the districts of Namangan region were determined by calculating the average arithmetic value of the descriptive indicator coefficients of the subject in determining the development of the activities of business entities specializing in environmental protection. In this case, to determine the deviation of the integral indicator of social entrepreneurship subjects by district, it was achieved by calculating the ratio of the indicator of the social entrepreneurship subject at the district level to the average value of the integral indicator of the social entrepreneurship subject at the district level. From the data in the table, it can be seen that in the districts of Namangan region, the marginal value standards for the development of social business entities

¹ Created by author

specializing in environmental protection are high ($0.51 \leq IT \leq 1.0$), ($0.31 \leq IT \leq 0.5$) divided into groups such as medium and ($0.1 \leq IT \leq 0.3$) low (Table 2).

Conclusion and recommendations

To evaluate the development of enterprises specializing in environmental protection, the rating and scoring method was used. In this case, the integral indicators are defined as the average sum of the analyzed indicators, the level of significance is determined. Then the color (level) of the indicators was taken from the total evaluation amount in the range of 0.1 to 1.0, and the highest, middle and lowest levels of development were determined. The sum of colors (level) determines the complex amount of indicators. This coefficient is unsatisfactory if it is in the range of 0.1 to 0.3, satisfactory from 0.31 to 0.5, and positive from 0.51 to 1.0, and the higher this indicator is, the higher the economic development of the enterprise. . The development of social business entities specializing in environmental protection operating in the districts of Namangan region and the growth of indicators of the social business entity at the district level are closely related to the socio-economic potential of the region.

References

1. T. Volery, “Ecopreneurship: Rationale, current issues and future challenges” in U. Fugistaller, 2002
2. Taylor D. W., & Walley E. E. (2004). The green entrepreneur: Opportunist, maverick or visionary? International Journal of Entrepreneurship and Small Business, 1(1/2), 56–69.
3. Narzullaev E.Sh. Types of assessment of the development of social entrepreneurship aimed at environmental protection. New Uzbekistan: Innovation, Science and Education// 56th Scientific Conference of the Republic. September 30. Tashkent-2023 14-11 b.
4. Makhmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Structural structure of social entrepreneurship based on environmental protection and its specific features// Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65
5. S.Teasdale “Making Sense of Social Enterprise Discourses” – 2012. – B. 59
6. D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89
7. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. – “Yashil iqtisodiyot” darslik. B-52
8. C.Borzaga, S.Poledrini & G.Galera, “Social Enterprise in Italy: Typology, Diffusion and Characteristics”, Euricse Working Papers, 96 b. – 2017.



9. Арбузова Т.Н. Социальная инфраструктура: проблемы и перспективы. – М.: Знание, 2008. – 105 с.
10. H. Pleitner, T. Volery and W. Weber (Eds.) Radical changes in the world – will SMEs soar or crash? (St. Gallen, Switzerland, Rencontres Conferences, 2002);
11. Hwang. D. S., Jang, W., Park, J.-S. and Kim, S. “Social Enterprise in South Korea” – 2016. 73.
12. J.Elkington, Cannibals with Forks: the Triple Bottom Line of 21st Century Business, London. – 1997
13. J.Kirchherr, D.Reike, etc. Conceptualizing the circular economy: an analysis of 114 definitions B.127 – 2007
14. Statistics Agency Under the President of the Republic of Uzbekistan

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO`LLAB-QUVVATLASHNING STRATEGIK YO`NALISHLARI

Kazakov O.S.

Namangan muxandislik-texnologiya instituti professori, i.f.n.

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishning strategik yo`nalishlari, tadbirkorlik korxonalarida resurslardan samarali foydalanish omillarining o`zaro munosabatlarini ko`rsatib o`tilgan.

Tayanch iboralar: biznes, xarajat, tadbirkorlik, investision, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investisiya, investision tizim.

Аннотация: В статье показана взаимосвязь факторов поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства, повышения эффективности деловой деятельности, эффективного использования ресурсов на коммерческих предприятиях.

Ключевые слова: бизнес, стоимость, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

Abstract. The article shows the relationship between factors supporting small business and private entrepreneurship, increasing the efficiency of business activities, and the efficient use of resources in commercial enterprises.

Key words: business, cost, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Kirish

Iqtisodiyotimizni rivojlanishida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati va ularning o`rni juda kattadir. Chunki bugungi kunda tadbirkorlar barcha sohalarni egallab faoliyat olib bormoqdalar. Shu bois tadbirkorlik faoliyati korxonalarida ishlab chiqarish resurslarining ahamiyati ortib boraveradi va ulardan foydalanish darajasi samaradorlikning ortishiga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Shularni inobatga olgan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birgalikda, kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi ularning iqtisodiy ko`rsatkichlar tizimiga turlicha ta`sir qilishi aniqlandi. Turli tadbirkorlik korxonalar o`ziga xos hususiyatlarga egadir va buning natijasida ulardagi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasining iqtisodiy ko`rsatkichlar tizimiga ta`siri turlicha bo`lishi mumkin va ular buni o`z faoliyatlarida hisobga olishlari yuqori darajada samaradorlik olishning asosi bo`lib

xizmat qiladi[1]. Bunga misol tariqasida quyidagi jadval statistik ma`lumot asosida ishlab chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiyotni rivojlantirishning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash strategiyalari nazariy va amaliy jihatlari alohida tadqiqot yo`nalishi sifatida xorijlik iqtisodchi olimlardan Bekker G., Gelbreyt Dj., Gramkov X., Keyns Dj.M., Nort D., Makkonel K.R., Bryu S. va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan MDH olimlari Achapovskaya M., Batrakova A.G., M.I.Stolbova, Ye.A.Brendeleva, Markova V.D., Lapidus L.V., Dovbenko M.V., Osik Yu.I., Dubrovin, Tolkacheva S.A. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o`rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K.Axmedov., Yuldashev D.T. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida takror ishlab chiqarish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy jihatlari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini maxalliy va horijiy olimlarning, ushbu sohada qabul qilingan Prezident qarorlari va hukumat dasturlari asos bo`ldi. Ilmiy maqolada ko`tarilgan muammoni atroflicha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bu jadvalda 2020-2023 yillar xamda 2024 yil yanvar-iyun oylardagi Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko`rsatkichlari hajmi ko`rsatib o`tilgan.

Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko`rsatkichlari hajmi [7].

Sohalar	2020 y*	2021y*	2022y*	2023 y*	2024 y (yanvar-iyun)**
Sanoat (mlrd.so'm)	5586,1	7174,3	8112,6	10133,7	5849,2
Eksport (ming.AQSH.dol)	197767,0	245235,1	262633,8	258859,2	135801,2
Import (ming.AQSH.dol)	376390,9	467735,3	501460,8	585068,9	214147,7
Savdo (mlrd.so'm)	11031,4	14216,3	16395,4	19 495,7	9055,5

Xizmatlar (mlrd.so'm)	5925,0	7990,1	9742,4	11 839,2	6634,2
-----------------------	--------	--------	--------	----------	--------

Manba: Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 306-sonli qaroriga asosan «Biznesni rivojlantirish banki» tomonidan 2023-2026 yillarda «Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash» kompleks dasturini amalga oshirish belgilangan. Ushbu dastur doirasida biznes jarayonlarini avtomatlashtirgan holda tashkil etish uchun Biznes portal ishga tushirildi va tegishli idoralarning tadbirkorlik yo‘nalishidagi axborot tizimlari bazalariga integratsiya qilindi. Hozirda ushbu Biznes portal orqali mijozlarga onlayn moliyaviy va konsultativ xizmat ko‘rsatilmoqda.[2].

Shuningdek, 2024 yil 1 may holatiga tadbirkorlik sube’ktlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘i 10,5 trln. so‘mni (jami portfeldagi ulushi – 50,2 foiz) tashkil etgani ma’lum qilindi.

Natijada joriy yil davomida tadbirkorlik sub’yektlariga 1 427,1 mlrd. so‘m kreditlar ajratilgan. Tadbirkorlik sub’yektlariga ajratilgan jami kreditlarning 57,2 foizi PQ-306-sonli qaror doirasida ajratilgan kreditlar salmog‘iga to‘g‘ri keladi. Shundan, 1 170,1 mlrd. so‘mi (82 foiz) milliy valyutada, 256,9 mlrd. so‘mi (18 foiz) xorijiy valyutada ajratilgan.

Bundan tashqari joriy yil avvalida bank kredit mahsulotlaridan foydalanuvchi tadbirkorlik sub’yektlari soni 5 291 nafarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich hozirgi kunda 3 barobarga oshib 16 004 nafarga etgan.[8].

Hozirgi kunda «Biznesni rivojlantirish banki» ATB tomonidan tadbirkorlik sub’yektlari uchun bozor talablaridan kelib chiqib 30 dan ortiq turdag'i kredit mahsulotlari joriy qilinmoqda. Tadbirkorlik sub’yektlariga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari natijasi o‘laroq, joriy yil davomida bank mijoji bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 19 740 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Ushbu ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari natijasida joriy yil davomida 10 410 nafar yangi mijozlar jalb qilindi, shundan asosiy hisobraqam ochgan mijozlar – 8 399 ta, ikkilamchi hisobraqam ochgan mijozlar – 2 011 tani tashkil etmoqda.

Shu bilan birgalikda bir necha kompaniyalar tomonidan 2024 yil 1 martdan tadbirkorlarga quyidagi qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etilmoqda ya’ni:

➤ loyiha qiymatining 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foizi yoki 3 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga ko‘chmas mulk ob’yektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko‘rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritish;

➤ ko‘chmas mulk va asbob-uskunalarning 70 foizi, biroq 10 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan miqdorda mulk sotib olish va etti yilgacha muddatga qarzdorlik qoldig‘iga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori

stavkada yillik foiz hisoblash yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan xizmatlar ipotekasi asosida tashabbuskorga berish;

➤ kredit (lizing) ajratish uchun tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlariga milliy va xorijiy valyutada moliyaviy resurslarni joylashtirish;

➤ tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiyligi 5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish;

➤ kompaniya mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tijorat banklari bilan tuziladigan vositachilik shartnomalariga asosan belgilangan limit hamda umumiyligi miqdori va shartlar doirasida kreditlar bo‘yicha kafillik (portfel kafilligi) taqdim etish;

➤ 2024-2026 yillarda kichik tadbirdorlik sub’yektlariga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy valyutada 5 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kompensatsiya taqdim etish.[5]

Ta’kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori biznes sohasi rivoji uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Mazkur qarorga asosan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri”ni yaratish maqsadida “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi” ijrosiga faol kirishildi.

Ushbu dasturni 2023-2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 trln. so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda. “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi”da elektron platforma – “Biznes portal”ga onlayn ariza berish orqali ishtiroy etish mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o‘rnatilgan tartibga muvofiq, “Kichik biznesga ko‘maklashish markazlari” tomonidan tanlab olingan tashabbuskorlar biznes ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida qisqa va o‘rta muddatli amaliy o‘quv kurslarida o‘qitiladi. Xamda ushbu o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar Dastur doirasidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanadilar.

Shuningdek, “Biznesni rivojlantirish banki” ta’sischiligidagi “Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” va Jamg‘arma tarkibida xududlarda 14 ta “Kichik biznesga ko‘maklashish xududiy markazlari” tashkil etilgani qayd etilmoqda.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda birinchi bo‘lib Surxondaryo viloyatida ish boshlagan “Kichik biznesga ko‘maklashish markazi”ga Press tur uyuştirildi. Markazda kichik biznes loyihalarini tanlash, tashabbuskorlarni o‘qitish, moliyalashtirish, axborot bilan ta’minlash, biznes rejalar va texnik iqtisodiy

asoslarni ishlab chiqish, bozor topish bilan bog‘liq kompleks xizmatlarni ko‘rsatish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PF-5718сонли “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2019 y. 20-may. 20-son.369 modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 306-sonli qarori.
3. Aripov O.A.. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Dis... iqt. fan. d-ri. – T., 2020.
4. OlimSabirovichKazakov,&IlhomMahamadjanovichKamoliddinov. (2021). SOME QUESTIONS OF INCREASE OF EFFICIENCY IN ACTIVITY ENTERPRISE SUBJECTS. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 160-169. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a24>
5. Kazakov, O. S., & KamoliddinovI. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), 114-119.
<https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue04-18>
6. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent
7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
8. www.stat.uz sayti ma`lumotlari.

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALAR KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNI JALB ETISH MEXANIZMLARI

Kenjaev I.E.

University of Business and Science dotsenti, i.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarini jalg qilish va investorlar bilan hamkorlik qilishning shakllari belgilandi. Xorijiy investitsiyalar jalg etilishining turli klassifikatsiyalari aniqlandi. Kichik biznes sektoriga xorijiy investitsiyalar jalg etish mexanizmlari va ularni rag'batlantirishning huquqiy asoslari ko'rib chiqildi. Mamlakatda olib borilayotgan investitsion siyosatni yanada jadallashtirish va xorijiy investitsiyali korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi baholandi.

Tayanch iboralar: investitsiya faoliyati, investitsion muhit, investor, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari.

Аннотация. В данной статье определены формы привлечения иностранных инвестиций в малый бизнес и взаимодействия с инвесторами. Были определены различные классификации привлечения иностранных инвестиций. Рассмотрены правовые основы привлечения иностранных инвестиций в сектор малого бизнеса и их стимулирование. Дано оценка порядка дальнейшей активизации проводимой в стране инвестиционной политики и регистраций предприятий с иностранными инвестициями.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, инвестиционный климат, инвестор, свободные экономические зоны, малые промышленные зоны.

Abstract. This article defines the forms of attracting foreign investment in small businesses and interaction with investors. Various classifications of attracting foreign investment were identified. The legal basis for attracting foreign investment in the small business sector and their promotion is considered. The assessment of the order of further activation of the investment policy carried out in the country and registration of enterprises with foreign investments is given.

Key words: investment activity, investment climate, investor, free economic zones, small industrial zones.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit va huquqiy baza yaratilgan. CHet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etilgan. Bular – chet el investitsiyalari bo'yicha

agentlik, Savdo-sanoat palatasi, “O’zbekinvest” Milliy eksport-import sug’urta kompaniyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, «Malay Benk Berxard» (Malayziya) va bizning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimizdir.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy siyosati jahon bozoridagi mavqelarini mustahkamlashga, uning to’lov balansini kuchaytirishga, qulay investitsiya muhitini vujudga keltirishga qaratilgandir. SHuningdek, tashqi iqtisodiy siyosatda ustuvor yo’nalish sifatida xorijiy sarmoyalarni iqtisodiyotga keng ko’lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish, qo’shma korxonalarini tashkil qilishda ko’maklashish, shuningdek investorlar manfaatlari himoya qilinishining ta’minlanishi borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Natijada, 2019 yilda O’zbekistonda to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o’sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga etdi [1].

Hozirgi paytda mamlakatimizda investitsiya faoliyati, shu jumladan xorijiy investor faoliyati 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi Qonun bilan tartibga solinmoqda. Uning qabul qilinishi bilan unga qadar amalda bo’lgan 12 ta qonun hujjatlari o’z kuchini yo’qotdi va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi bitta qonun hujjatida jamlandi. Mazkur Qonun bilan xorijiy investorlar uchun O’zbekistonda turli shakllarda investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli mintaqaviy jihatlari qator chet ellik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida o’z aksini topgan. Jumladan: R.Vernon[2] TTXI jalb etish bilan mahsulotning hayotiylik tsikli o’rtasidagi bog’liqlikni aniqladi, M.E.Porter[3] tadqiqotlari asosida raqobat ustunligini ta’minlovchi omillar tizimini aniqladi, J.Danning [4] TMKning jahon kapital bozorlariga kirib borishning eng yaxshi omillari, g’oyalari va doktrinalarini tanlab, ularni bir tizimga birlashtirdi. Xorijiy investitsiyalar shakllari klassifikatsiyasi bo'yicha I.V.Sergeev, I.I.Veretennikova, V.V.Shexovtsevlar[5] ilmiy ishlarida, K.K.Poznikov [6] esa xorijiy investorlarni guruhlarga ajratish borasidagi tadqiqotlarni olib borgan.

Mamlakatimiz olimlaridan kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha K.I.Sirojiddinov, Sh.R.Nurdinovalarning ham ilmiy tadqiqot ishlari ushbu sektor rivojlanishiga muhim hissa qo’shgan.

Bu tadqiqot ishlarida asosiy e’tibor xorijiy investitsiyalarning mazmun mohiyati va undan samarali foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Biroq, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o’ziga xos jihatlari bo'yicha alohida tadqiqotlar olib

borilmagan. Bu barcha holatlar mazkur tadqiqotning shu mavzuda amalga oshirilgan boshqa ishlardan tubdan farqini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari va mexanizmlarini umumlashtirishdan iborat. Maqolada qo'llangan metodologiya xorijiy investitsiyali kichik korxonalarini rag'batlantirishning huquqiy asoslari va tashkil etishning ustuvor yo'naliшlarini aniqlash hamda uni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, induktsiya va deduktsiya, qiyoslash, guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Investitsion hamkorlikning asosiy afzalligi shundan iboratki, unda ilmiy-texnik bilimlar, nou-xaularning, ayniqsa, innovatsiyalarning uzlusiz jalb etilishi; aholining bandlik darajasi va unda mehnat unumdarligining o'sishi; hudud tabiiy resurslaridan foydalanishning yaxshilanishi; raqobatni faollashtirish va uning natijasida kichik biznes sektori faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy tashkiliy-boshqaruv tajribasining joriy etilishi yuz beradi. Fikrimizcha, eng birinchi yondashuvda investitsiyalarni quyidagicha klassifikatsiyalab olish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Investitsiyalar klassifikatsiyasi

Klassifikatsiya mezoni	Investitsiyalar klassifikatsiyasi
Investitsiyalar shakllari	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar Portfel' investitsiyalar Boshqalar
Investiyalash muddatlari	Qisqa muddatli O'rta muddatli Uzoq muddatli
Investitsion resurslarning mulkchilik shakli	Xususiy Davlat Aralash

Kichik biznesdagi investitsiya jarayonlariga xorijiy kapitalni jalb etishning uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishda xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilishning turli shakllari mavjudligini hisobga olish lozim. Ular orasidan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish joiz:

xorijiy investorlar ishtirokining ulushlariga qarab, shu jumladan, hissadorlik jamiyatlar aktsiyalarini xorijiy investorlarga sotish yo'li bilan turli shaklda qo'shma korxonalar tuzish;

xorijda korxona filiallari va sho’ba jamiyatlarini tuzish, chet ellarda to’liq xorijiy investorga tegishli yangi kompaniyalarni tashkil etish;

firmalararo birlashuv va birini boshqasi tomonidan yutib yuborishi natijasida egalik qilish, ya’ni firmani sotib olish yoki qo’shish bilan egalik huquqi yoki milliylik huquqiga ega bo’lish;

strategik hamkorlik (birlashma) tuzish, mulkka, shu jumladan, qimmatli qog’ozlarga ega bo’lish;

davlat va investorlar o’rtasidagi shartnomaviy munosabatlar asosida xorijiy kapitalni kiritish – mahsulot taqsimoti haqida kontsessiya va bitimlar tuzish;

xalqaro moliyaviy ijara (lizing) shartnomasini tuzish va erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish;

davlat kafolati asosida bank kreditlari va tijorat kreditlari hamda eksportni moliyalashtirish bilan bog’liq kreditlar ajratish;

“Amerika depozitar tilxati” dasturi orqali aktsiyalar emissiyasi va ularni joylashtirish.

Iqtisodchilar xorijiy investitsiyalar jalb etilishida turli klassifikatsiyalarini keltiradilar. Chunonchi Rossiya o’quv adabiyotlari uchun quyidagi klassifikatsiya xarakterli (2-jadval).

2-jadval

Xorijiy investitsiyalar shakllari klassifikatsiyasi [2]

Belgisi	Turi	Xarakteristikasi
Mulkchilik shakli bo'yicha	Davlat	Davlat organlari ko’rsatmasi bilan investitsiyalash
	Xususiy	Xususiy shaxslarning o’z davlatidan tashqariga investitsiyalashi
	Aralash	Xususiy va davlat kapitali ishtirokidagi investitsiyalar
Investitsiyalanayotgan moliyaviy resurslarning aktivlar bo'yicha tarkibiga qarab	Real	Moliyaviy mablag’larni boshqa mamlakatlardan uskunalar sotib olinishi bilan bog’liq uzoq muddatli loyihalarga yo’naltirish;
	Nomoddiy	Litsenziyalar, huquqlar va boshqa nomoddiy xarakterdagi aktivlarni sotib olish,
	Moliyaviy	Aktsiyalarga, qimmatli qog’ozlarga investitsiyalar va boshqalar
Qullanishi usuli bo'yicha	Ssuda	Moliyaviy resurslar ular bo'yicha foizlar ko'rinishida daromad olish uchun etkazib beriladi
	Tadbirkorlik	moliyaviy resurslar foydadan devident olish uchun xorijiy investitsiyalar sifatida yo'naltiriladi
Kapital joylashtirish ob'ektlarining xususiyatiga ko'ra	To'g'ridan-to'g'ri	Investor tomonidan loyihaning moliyaviy va tizimli nazoratini maqsadli joylashtirishni nazarda tutuvchi xorijiy investitsiyalarning eng ommaviy turi
	Portfel	Dividendlar olish maqsadida aktsiyalarning bir qismi sotib olinadi
	Boshqa	Ularga chet el investitsiyalari, jumladan, bank hisobvaraqlariga pul mablag’larini joylashtirish, kreditlar berish va boshqalar kiradi.

Qayd etilgan yo'nalishlarning barchasi ham to'g'ridan-to'g'ri kichik biznes sektoriga taalluqli emas, lekin ularning har biriga oid loyihalarning amalga oshirilishi bevosita yoki bilvosita shu hududdagi kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi va investitsion jarayonlarga turtki beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalg etishning barcha keltirib o'tilgan ushbu shakllari uzoq muddatli strategik xarakterga ega. Bu borada erishiladigan natijalar O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy, tarmoq va tarmoqlaro tuzilmaviy o'zgarishlaridagi muammolarni faqatgina mamlakat moliyaviy resurslari hisobidan hal etishga nisbatan ham qisqa vaqt ichida va kam investitsion xarajat hisobidan echish imkonini beradi.

K.K.Pozdnyakov Rossiya bozorida ish olib borayotgan xorijiy investorlarni uch guruhga bo'ladi:

1. Yirik transmilliy korporatsiyalar. Ular milliy huquqiy rejimning boshqalardan alohida ajratilgan qismida ishlaydilar. Qonunchilik hujjatlari yoki hukumat bilan shartnomalar vositasida xo'jalik yuritishdagi noqulay vaziyatlardan himoya qilinganlar, imtiyozlardan foydalanadilar.

2. Mahsulot va xizmatlarning original texnologiyasiga ega bo'lgan mayda va o'rta kompaniyalar. Ular odatda o'z patentlariga yoki "nou-xau"lariga egalar, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaradilar, barqaror ravishda o'z bizneslarini kengaytirishga intiladilar.

3. Aktivlar kurs qiymati o'zgarishidan va iqtisodiy beqarorlikdan foydalanib spekulyativ xarakterdagi foyda olishga intilishga yo'nalgan investorlar [3].


Fikrimizcha, mamlakatimiz kichik biznesi uchun ayniqsa ikkinchi guruh investorlarni jalg etish alohida ahamiyatga ega va so'ngi yillarda bunga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. CHunonchi Namangan viloyatida 2019 yilda CHust va To'raqo'rg'on tumanlarida bo'sh er maydonlari xatlovdan o'tkazilib, 681,4 hektar 5 ta er uchastkasida "Namangan" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilgan. Unda 2019 – 2024 yillarda umumiy qiymati 608,5 mln. AQSH dollari bo'lgan 18 ta investitsion loyiha amalga oshiriladi va 6678 ta ish o'rinnari yaratiladi. EIZda kichik va o'rta biznes korxonalari ham barpo etiladi. Ular jumlasiga "Cang special steel" MCHJ qo'shma korxonasi, "Art soft engineering" MCHJ, "Siberian Wellness Namangan" MCHJ xususiy korxonasi bor bo'lib, 3 ta loyiha 2020 – 2021 yillarda 88,45 mln. AQSH dollari hajmida investitsiya kiritiladi va 1150 ta ish o'rinnari yaratiladi.

Xususan, kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalg etilishi mexanizmlarida uch yo'nalishni farqlash lozim:

1. Moliyalashni ta'minlovchi mexanizmlar. Ularga aktsiyalashtirish, loyihami molialash, venchur molialash va davlat byudjetidan moliyalashtirish kiradi.

2. Investitsiyalar oqimiga ko'maklashuvchi tizimlar va tashkilotlar. Ularga Savdo-sanoat palatasini va turli tijorat va notijorat tashkilotlarni kiritish mumkin.

3. Alohida hududlar va tarmoqlarga investorlarni jalb etuvchi davlat choralari, imtiyozlari va kafolatlari.



Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

1-rasm. Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari

Xorijiy investitsiyalar alohida yo'naliishlari, shakllari va ularni jalb etish mexanizmlari samaradorligini aniqlash va tahlil qilish ancha murakkab masala va bu tahlil maqsadlaridan va tegishli sub'ektlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi (1-rasm).

Mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3594-sonli Farmoni amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Unga asosan, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilindi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari berilar edi:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha – 3 yil muddatga;
milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 11 апрелдаги “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишини рағбатлантириш чора-тадбирлири тўғрисида”ги ПФ-3594-сонли фармони.

Shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasiga tashkil etilgan bo'lib, ushbu zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lgan taqdirda er solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etilgan edi:

3 million evrodan 10 million evrogacha – 7 yilga;

10 million evrodan 30 million evrogacha – 10 yilga. Keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi;

30 million evrodan ortiq bo'lganda – 15 yilga. Keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi.

2009 yilda mamlakatda olib borilayotgan investitsion siyosatni yanada jadallashtirish, xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish hamda jahon moliyaviy inqirozi ta'sirini bartaraft etish maqsadida inqirozga qarshi choralar Dasturida tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarini byudjetga barcha turdag'i soliq va to'lovlardan (QQS bundan mustasno) ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish belgilab berildi[4].

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga binoan O'zbekiston Respublikasida xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ustav fondi miqdori kamida 400 000 000 mln so'm (qariyb 40 000 AQSH dollar) bo'lishi, umumiy ustav fondi miqdorida xorijiy yuridik shaxs ulushi kamida 15%ni tashkil etishi, xorijiy sarmoyador ishtirokida korxona tashkil etish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi zarur:

- muassis hujjatlari paketini ishlab chiqish yoki amaldagi korxona hujjatlariga o'zgartishlar kiritish (agarda investitsiya amaldagi korxonaga jalb qilinayotgan bo'lsa).
- firma nomini zahiraga olib qo'yish.
- muassis hujjatlarining notarial ishonchnomasi.
- Yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tganligi (qayta o'tganligi).
- Asosiy muhr va burchak shtampni tayyorlash (agar talab etilsa).
- Bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish va bank hisob raqamlarini ochish (endi tuzilayotgan korxonalar uchun).

Muassis hujjatlari muassislarning o'zi yoki ular bilan shartnoma tuzgan uchinchi shaxslar (maslahat markazlari, yuridik firmalar va h.z.) tomonidan tayyorlanishi mumkin. Savdo-sanoat palatasining yaqinda joylashgan bo'linmasiga murojaat etsa ham bo'ladi. Bunda palata mutaxassislari shartnoma

asosida kerakli hujjatlarni ishlab chiqadi. Muassislar Adliya vazirligining rasmiy saytida joylashtirilgan muassis hujjatlarining namunaviy shakllaridan foydalanishlari mumkin.

Xorijiy sarmoyador ishtirokida yangi tuzilgan korxona davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng yuridik shaxs maqomi va faoliyat yuritish huquqiga ega bo'ladi. Ro'yxatdan o'tkazish tartibi tashkil etilayotgan korxona maqomiga bog'liq emas, u va bu turdagи korxonalar tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yagona markazlar tomonidan "yagona darcha" tamoyili aosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

"Yagona darcha" markaziga Muassis – yuridik shaxsning joylashgan manzili yoki muassis – jismoniy shaxsning doimiy yashash manzili bo'yicha murojaat qilishi lozim. 2017 yil 1 yanvardan boshlab tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish Internet orqali Interfaol davlat xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashtirilgan tadbirkorlik sub'ektlarini avtomatlashgan ro'yxatga olish tizimi yordamida amalga oshirish mumkin.

«Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 19-moddasida belgilangan kafolatlarni qo'llash haqida xabar berish tartibi to'g'risidagi **nizomning 2-ilovasida** "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan chet ellik investor o'rtasida investitsiya shartnomalarini tuzish, o'zgartirish kiritish, tugatish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasini tuzish va amalga oshirish sxemasi ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan 10 million AQSH dollaridan ko'p bo'limgan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo'lgan investitsiya loyihibalarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish huquqiga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bu esa kichik biznesga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini soddalashtiradi.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qo'yiladigan qator talablarni engillashtirildi. Bu Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan ekspert va ilmiy doiralar vakillari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida ko'zda tutilgan. Jumladan, Qonunga muvofiq:

investitsiyalar ulushining eng kichik miqdori 30 dan 15 foizgacha kamaytirilishi;

xorijiy investitsiyali korxonalarda xorijiy yuridik shaxsning ishtirokchi sifatida majburiy ishtirok etishi talabini bekor qilish;

xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonalar nizom jamg'armasining eng kichik miqdori 600 million so'mdan 400 million so'mgacha kamaytirilishi;

xorijiy investitsiyali korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji miqdorini 3 marotabaga kamaytirish;

aktsiyadorlik jamiyatining nizom jamg’armasi miqdorini 400 million so’m deb belgilash;

O’zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritilgan vaqtdagi respublikada o’rnatilgan eng kam ish haqi miqdorining 8500 barobaridagi miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga xo’jalik sub’ektlari aktsiyalari va ulushlarini sotib olish ko’rinishidagi, shuningdek xorijiy korxona tashkil qilish, ko’p marotabali uch yillik viza olib, uning amal qilish muddatini O’zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish imkonini bo’lgan huquqini berish ko’zda tutilgan.

Umuman olganda yangi Qonun quyidagi ijobiy o’zgarishlarni nazarda tutmoqda:

to’g’ridan-to’g’ri chet el investitsiyasi tushunchasiga aniq ta’rif berilganligi; chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o’z mablag’lari yoki qarz mablag’lari hisobidan investitsiyalar (3-modda);

mahalliy va xorijiy investorlarning teng huquqliligi, chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim mahalliy investitsiyalar uchun huquqiy rejimdan noqulayroq bo’lishi mumkin emas (46-modda);

Davlat investorlarning fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish joyi bilan bog’liq holda, shuningdek, investorlarning va investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarning kamsitilishiga yo’l qo’ylmasligini kafolatlaydi (15-modda);

mablag’larni erkin o’tkazish kafolatlari berilganligi (17-modda);

investitsiya faoliyatidagi qiymat munosabatlarining to’laqonli ravishda erkin bozor tamoyillariga o’tkazilganligi (14-modda).

Albatta, huquqiy bazaning mustahkamlanishi kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalb etilishini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu jarayon olib borilishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining ravon ishlashiga ham erishilishi lozim. So’nggi yillarda mamlakatimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar ko’lamlari va tarkibida ijobiy o’zgarishlar sodir bo’lmoqda. Tashqi qarzlar, asosan, uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo’yicha investitsiya loyihibarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda. SHu bilan birga ayniqsa xalqaro moliya institutlarining kredit resurslarini kichik biznesni moliyalashga yo’naltirish hajmlari o’sishi kuzatilmoqda.

Qonunning 25-moddasiga binoan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quydagilar orqali amalga oshiriladi:

investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O’zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;

O’zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalarni va kichik sanoat zonalarini barpo etish;

asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish;

texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash; raqobatni qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash; er uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

Investorlarga bozorda ularni ustuvor mavqega qo'yuvchi mutlaq qoidalari va huquqlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tahlillar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmida quyidagi muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda:

investitsion loyiha bo'yicha marketing tadqiqotlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda kreditni qaytarish manbasining ishonchlilikiga salbiy ta'sir etishi;

investitsion loyihamalar tashabbuskorlari duch kelayotgan asosiy muammolardan biri – moliyalashtirishning nokredit usullaridan sust foydalaniishi (lizing, faktoring, franchayzing);

tijorat banklarining moliya-kredit muassasalariga xos bo'limgan vazifalarni bajarishi. Ko'p hollarda banklar nazorat qiluvchi va kuzatuvchi organlar sifatida harakat qilmoqda va bu hol investitsion loyihamalar tashabbuskorlarining bank tizimi bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatga hamda uning hududlariga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishda va manfaatlarni uyg'unlashtirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim rolb o'ynaydi. Ular orqali mamlakatga xorijiy investitsiyalar jalb etilishi masalalari oqilona va eng samarali hal etilishi osonlashadi.


Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos an'anaviy usullaridan biri erkin iqtisodiy zona (hudud)ni tashkil etish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zona (EIZ) – o'ziga xos iqtisodiy va huquqiy statusga ega bo'lgan hudud bo'lib, xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator imtiyozlar berish asosida qulay shart-sharoit yaratilgan hududlardir. EIZning amal qilish tizimidagi tashqi savdo, soliq, moliya va ma'muriy imtiyozlari milliy iqtisodiyot eksport salohiyatining rivojlanishiga ko'maklashadi va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasini oshiradi.

Odatda, EIZni tashkil etish yirik diversifikatsiyalashgan iqtisodiyot uchun, ayniqsa, mintaqaviy rivojlanishda murakkab mutanosibliklarga ega bo'lgan O'zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi. EIZ tushunchasi bir qancha tipdag'i hududlarni o'z ichiga oladi. Bunda turli mezonlarga tayanib, ularning turli xil turkumlarini ko'rishimiz mumkin. Xo'jalik faoliyati nuqtai nazaridan qabul qilingan EIZlarning bir qancha keng tarqalgan turkumlarga ajratish mumkin (2-rasm).

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risi"da Qonuni xalqaro qo'llanilayotgan "erkin iqtisodiy zonalar" atamasi o'rniga "maxsus iqtisodiy hududlar" atamasini qo'llamoqda.

Maxsus iqtisodiy hududlar (bundan keyingi o'rnlarda-MIH) o'z ichiga bir guruh xususiyatlarni, masalan, sanoat ishlab chiqarish hududlari, ilmiy-ishlab

chiqarish hududlari va innovatsion hududlarni qamrab oladi. MIH amal qilishi mamlakat mintaqalarining investitsion, innovatsion tadbirkorlik jozibadorligini oshiradi. MIH hududiga xorijiy kapitallarning katta oqimini ta'minlashga mazkur hududning qulay iqtisodiy geografik joylashuvi va mavjud rivojlangan infratuzilmasi ham kuchli turtki beradi.



Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

2-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarning hududlar bo'yicha turkumlanishi

MIHning samarali faoliyati mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanishidagi pozitiv ta'sirlarda ko'rindi. MIHning afzalliklarini quyidagilar orqali umumlashtirish mumkin:

umumiyl eksport hajmi va valyuta tushumlarining o'sishi;

mahalliy aholi bandligining oshishi va aholi jon boshiga YaIM hajmining o'sishi;

ishchilar malakasi, shuningdek, ular oladigan ish haqining o'sishi;

yangi texnologiyalarni olish va milliy kompaniyalar uchun "namoyishkorona samara" ga erishish;

mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish va infratuzilmaning samaradorligi hamda sifatini oshirish.

MIHlar mamlakat iqtisodiyotiga o’ziga xos ijobjiy ta’siri bilan birga o’zining salbiy ta’sirini ham o’tkazishi mumkin: mamlakatning boshqa hududlaridan kapitalning chiqib ketishi, shuningdek, import komponenti natijasida yangi vujudga kelgan qiymat hajmining pasayishi va import komponentining yuqori ulushi hisobiga MIHda yangi vujudga kelgan qiymatda amaldagi valyuta foydasi hajmini pasayishi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan EIZlar faoliyatini rivojlantirish va ularga ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb etish uchun quyidagi choralar ni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

mamlakatda tashkil etilgan EIZlar faoliyati bo'yicha doimiy va me'yoriy darajadagi hukumat nazoratini olib borishni kuchaytirish kerak. Bunda amaldagi erkin iqtisodiy zonalarning Ma'muriy kengashining samarali faoliyat ko'rsatishi lozim;

EIZ hududi tanlanayotganda zonaning qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi, zarur ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanganligi, yuqori darajadagi ilmiy, texnik va ta'lim salohiyatiga egaligi kabi xususiyatlar e'tiborga olinishi lozim. Bu investitsiyaning multiplikativ ta'sirini va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

jahon tajribasiga ko'ra, har doim ham ko'proq iqtisodiy samaraga erishish uchun EIZ katta joyni egallashi shart emas. Muhimi, qulay sharoit va tegishli infrastrukturalar mavjudligidir;

jahon tajribasi ko'rsatishicha, EIZlarda investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur, lekin, EIZni yaxshi faoliyat yuritishi uchun shu bilan birga ma'muriy to'siqlarning bor yoki yo'qligi ham katta ahamiyat kasb etadi;

mamlakatimizda texnoparklar va kichik sanoat zonalarini (KSZ) tashkil etish va ularning EIZlar balan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatish, rivojlantirib borish zarur. Ularni yuqori ilmiy-texnikaviy, katta tajriba, bilim va salohiyatga ega malakali mutaxassis-kadrlarga ega ilmiy-tadqiqot, oliy ta'lim muassasalari negizida tashkil etish va ularga investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir;

shuningdek, EIZlar, KSZlari va texnoparklarni raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratish hamda ularning mehnatini munosib tarzda moddiy, ma'naviy rag'batlantirish tizimini ham yaratish zarur;

EIZlar, KSZlari va texnoparklar faoliyatini rivojlantirishda mamlakatimizda transport-kommunikatsiya va logistika infratuzilmasini takomillashtirish, logistika tizimining samarali ishslash mexanizmini yaratish, tovar va xomashyolarning eksporti-importida bojxona rasmiylashtiruvi, nazorati bilan bog'liq xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish zarur.

EIZlar tadqiqi yakunida ushbu xulosalarni ta'kidlash mumkinki, EIZlarning samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan aniq kontseptsiya, sharoit va infratuzilma anchagina hollarda zaifligi sababli, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishni takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF- 4947- sonli, 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF- 4853-sonli, 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishi ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4848-sonli, 2012 yil 10 pareldagi “To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4434-sonli, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi “Innovatsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishning chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5643-sonli farmonlari kichik biznesga xorijiy investitsiyalar oqimi kengayib borishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so’nggi yillarda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xorijiy investitsiyalarga keng yo’l ochish, qonunchilik barqarorligini ta’minalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanirish, investitsiyaviy muhitni tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar respublika sanoat va boshqa tarmoqlarini tarkibiy o’zgartirish, modernizatsiiyalash va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturlari investitsiyalar hajmini oshishida muhim omil bo’lmoqda.

CHunonchi 2017 – 2021 yillarda O’zbekiston respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida quyidagilar ko’zda tutildi:

davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish;

ijro etuvchi hokimiyat tizimini optimallashtirish, ma’muriy islohotlarni davom ettirish;

davlat boshqaruvida zamonaviy menejment uslublarini keng qo’llash, davlat xizmatlarini rivojlanirish, davlat xizmatiga malakali mutaxassislarini jalg etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolat va mas’uliyatini qayta ko’rib chiqish, ularning mustaqilligini oshirish;

iqtisodiyotni rivojlanirish va investitsiyalarni faol jalg etish sohasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, sog’lom raqobat uchun sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish, “xufiyona” iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valyuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirish;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklari bilan birgalikda 2019 yilda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, birinchi navbatda, investitsiya jalb etish uchun ustuvor yo'naliishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli istiqboldagi investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar - ustuvor hamkorlar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy, gumanitar va siyosiy, shuningdek, xavfsizlik sohasidagi hamkorligini yanada faollashtirish va rivojlantirish;

respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb etish;

xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, respublikamizning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ'ib qilishga ko'maklashish hamda 2019 yilda investitsiya loyihalarni, birinchi navbatda, iktisodiyotning ustuvor tarmoqlarida amalga oshirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etishni hisobga olgan holda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi loyihalarni ishlab chiqish kabi masalalar ustuvor vazifa etib belgilandi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmidagi muammolarni hal etish bo'yicha quyidagilarni taklif etamiz:

ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes sub'ektlariga yo'naltirish;

investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

investitsion loyihalar sifatini oshirish, loyihalarning kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda

faoliyat yuritadigan investitsion loyihibar ko'rgazmalarni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, xorijiy kapitallarni jalb etishning u yoki bu shaklini tanlash va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlariga, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik tamoyillariga mos tarzda kiritish uchun ushbu shakllarning har birining o'ziga xos xususiyatini hisobga olish lozim. SHu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadlari, ularning shakllari va foydalanish imkoniyatlari xo'jalik yuritishning alohida olingan darajalarida ham bir xil emas. SHuning uchun xorijiy investitsiya resurslarini jalb etishda uning turli shakllarini qiyoslash va birinchi o'rinda, xo'jalik sub'ektlarining, qolaversa mintaqalar manfaatlarini hisobga olish lozim.

Mamlakat yoki alohida korxonalar darajasida xorijiy kapitallarni jalb qilish masalalarida umumiylar maqsad mavjud bo'lisi mumkin. Bu – tashqi bozorga chiqish yo'lida o'zining texnik-texnologik darajasini takomillashtirish va ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish, raqobatbardoshligini oshirishdir. Ammo, alohida olinganda, korxonalar va mamlakat darajasida maqsadlarni amalga oshirish yo'llari turli xil bo'lisi mumkin.

Korxona (uyushma, kontsern, assotsiatsiya) darajasida qo'shimcha texnologik, moddiy va moliyaviy resurslarni jalb etish uchun hamda unda aniq masalalarini hal qilish lozim: litsenziya va nou-xau ko'rinishidagi chet el texnologiyalarini joriy etish; yangi import asbob-uskunalariga ega bo'lish; bozorga chiqish usullarini takomillashtirish va mahsulot sifatini oshirish maqsadida boshqaruvning chet el tajribasini jalb etish; bozorda, shu jumladan, jahon bozorida talab ko'p bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish; o'zida mavjud bo'limgan zarur asbob-uskunalarini chetdan olib kelib foydalanish va xususiy texnik ishllov berishni joriy etish va boshqalar.

Agar gap mamlakat miqyosida boradigan bo'lsa, xorijiy kapitallarni jalb qilish evaziga erishilmoqchi bo'lgan maqsadlar doirasi keskin oshadi. Lekin gap nafaqat amaldagi karxonaning modernizatsiyasi haqida, balki mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlariga investitsiyalar jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish lozim. Jumladan:

iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish uchun mutlaqo yangi turdag'i kichik biznes korxonalarini tashkil etish va ichki bozor uchun zarur bo'lgan, miqdor jihatdan etarli bo'limgan yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish;

mavjud va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarida eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosuvchi yangi tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish;

raqobat muhitini rivojlantirish uchun yangi kichik biznes korxonalarida klasterlar tizimini vujudga keltirish;

ichki bozor va eksport salohiyatini oshirish maqsadida yangi konlarni o'zlashtirishni tezlashtirish;

nisbatan past taraqqiyot darajasiga ega hududlarda kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishini tezlashtirish;

kichik biznes sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish va barqarorligini ta'minlash maqsadida, konsalting, marketing, kadrlar tayyorlash sohasida chet el tajribalaridan foydalanish;

xorijiy kapital ishtirokida kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish uchun infratuzilmalar tizimini tashkil etish.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni mintaqaga iqtisodiyotiga jalb etish shakllarini tanlash mumkin, shu bilan birga barcha shakllardan ham turli darajalarda birday foydalanish mumkin emas. Masalan, alohida korxona darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning kontsessiya yoki erkin iqtisodiy hududlarni yaratish shakllaridan foydalanish imkoniyati yo'q. Mamlakatga va uning hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllarini tanlash bu ularni davlat tomonidan tartibga solishga bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
2. Vernon R. International trade and international investment in the product cycle // The quarterly journal of economics. – Harvard, 1966. – Volume 83. No.1. – pp. 190-207.
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
4. Dunning J., Narullo R. Trade, location of economic activity and the MNE: a search for an eclectic approach. // The International Allocation of Economic Activity / Edited by B.Ohlin and P.O. Hesselborn. – London: Macmillan, 1977. - pp. 395-418;
5. Сергеев И.В., Веретенникова И.И., Шеховцев В.В. Инвестиции: Учебник для бакалавров, 2014.
6. Pozdnyakov K. K. The theoretical basis of the mechanism of attraction of foreign investments in the Russian regions and the rationale for their practical applicability. Raleigh, North Carolina, USA: Lulu Press, 2015. 174 p. C. 71-72.
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. –Т.: “Ўзбекистон”, 2009. 24 б.
8. Kenjaev, I. E., & Bayhonov, B. T. (2020). Development Of Organizational Mechanisms For Attracting Investment In Small Business. The American Journal of Management and Economics Innovations, 2(09), 6-16.



9. Kenjaev, I. E. (2019). THEORETICAL ASPECTS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT IN THE ECONOMY OF THE REGION. *Economics and Innovative Technologies*, 2019(3), 8.
10. Ergashboevich, K. I. (2020). Regional aspects of attracting foreign investments. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 965-984.

ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ ВА УНИ БОШҚАРИШ

Собиров М.Т.
University of Business and Science ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада бугунги кунда иқтисодиётда инновацион фаолиятнинг аҳамияти, унинг долзарбилиги изоҳланган ва “инновация” ҳамда, “инновацион фаолият” тушиунчаларининг моҳияти, ёндашувлари очиб беришга ҳаракат қилинган. Наманган вилояти мисолида инновацион фаолиятнинг айрим кўрсткичлари таҳлил этилган. Соҳанинг микро ва макрокўламидағи мавжуд муаммолар ёритиб ўтилган. Хуласалар берилган.

Таянч иборалар: инновация, инновацион фаолият, ишлаб чиқариш олди ишланмалари, янги маҳсулотлар маркетинги, ташқаридан турли шаклларда номоддий технологияни олиш, ишлаб чиқаришни лойиҳалашибирлиши.

Аннотация. В статье подчеркивается важность экономических инноваций, подчеркивается важность "инноваций", подчеркивается важность "инноваций", подчеркивается важность "инноваций", подчеркивается важность "инноваций". Наманганская область является примером инновационного применения ирима корсткичлари для анализа этилгана. Микро-и макроэкономика могут быть полезны. Берилган.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, инновационный маркетинг, разработка инновационных технологий, разработка инновационных технологий.

Abstract. The article emphasizes the importance of economic innovation, emphasizes the importance of "innovation", emphasizes the importance of "innovation", emphasizes the importance of "innovation", emphasizes the importance of "innovation". Namangan region is an example of the innovative application of irim korstkichlari for ethylgan analysis. Micro- and macroeconomics can be useful. Berylgan.

Key word: innovation, innovative activity, innovative marketing, development of innovative technologies, development of innovative technologies.

Кириш

Жаҳон иқтисодиёти ривожланишини инновацияларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Аксарият мутахассисларнинг фикрича, иқтисодий ва ижтимоий тараққиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи бу – инновацион фаолият ҳисобланади. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, оддийгина табиий ресурсларнинг экспорт салоҳиятини ошиши замирида ҳам иқтисодиёт ва жамиятнинг илмий-техник ва интеллектуал салоҳиятидан фойдаланиш

ётади. Шунингдек у мамлакат тараққиётининг устувор йўналишлари бўлиб, янги технологияларни ишлаб чиқиш ва тадбиқ этиш, модернизатсия қилиш эканлиги тушунчасини беради.

Бугунги кунда дунё миқёсида шафқатсиз рақобат тобора кескин тус олмоқда. Бундай мураккаб шароитда замонавий илм-фан ва инновация ютуқларини кенг жорий этиш бўйича биз узлуксиз иш олиб боришимиз керак¹. Бунда, кишиларда янгича иқтисодий фикрлашни шакллантириш, уларнинг дунёқарашини ўзгартириш, бу иқтисодиётни ислоҳ қилиш соҳасидаги стратегик мақсадлардан бири бўлиб ҳисобланади².

Мустақил Ўзбекистон ривожланишининг ҳозирги босқичида инновация инсоният тараққиёти ва иқтисодий ўсишнинг асосий омилига айланмоқда. Инновация жараёнининг доимий ривожланиб бориши инсоният ва ижтимоий ҳаёт ўзгаришига жиддий таъсир кўрсатмоқда.

Шулардан келиб чиқсан ҳолда, мамлакатимизда инновацион соҳага оид қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, соҳадаги қатор масалаларни ўз ечимини топишига эътибор қаратилмоқда. Жумладан, мамлакатимиз илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятининг истиқболли ютуқларини тарғиб қилиш ва жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш, шу жумладан илмий-экспериментал ихтисослаштирилган лабораториялар, юқори технологиялар марказлари, технопарклар ва бошқа инновацияга йўналтирилган тузилмаларни, хусусан чет эл инвесторлари иштирокида ташкил этиш ва моддий-техника базасини мустаҳкамлаш³; фундаментал, амалий илмий тадқиқотларни ўтказиш ва илгор технологиялар бўйича инновацион ишланмаларни амалга ошириш; дунё талаблари ва стандартлари даражасида мақсадли илмий-техник ва инновацион дастурларни бажариш, ишлаб-чиқариш корхоналарида тадқиқот-синов ишларини бажаришга кўмаклашиш⁴; мамлакатнинг халқаро майдондаги рақобатбардошлилиги даражасини ва инновацион жиҳатдан тараққий этганини белгиловчи асосий омил сифатида инсон капиталини ривожлантириш, Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб Глобал инновацион индекс рейтинги бўйича жаҳоннинг 50 илгор мамлакати қаторига киришига эришиш, инновациялар, илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик ва технологик ишларга давлат ва хусусий маблағлар киритилишини кучайтириш, бу соҳалардаги тадбирларни молиялаштиришнинг замонавий ва самарали

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига багишлиган тантанали маросимдаги маъруzasидан. <https://president.uz/uz/lists/view/1328>

² Мирзиёев Ш.М.“Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”."Ўзбекистон" НМИУ , 2018,486 бет.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-5264-сонли Фармони. <https://lex.uz/>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлиги хузурида илгор технологиялар марказини ташкил қилиш тўғрисида” ПҚ-3674-сонли карори. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3693976.

шаклларини жорий этиш¹; илм-фан ютуқларига асосланган маҳсулотнинг ва илғор технологияларнинг кафолатланган тарзда татбиқ этилишини таъминлаш мақсадида уларнинг давлат харидларини ташкил этиш; инновацион фаолият соҳасида кадрларни тайёрлашга, қайта тайёрлашга ва уларнинг малакасини оширишга кўмаклашиш² ва шу каби бир қатор меъёрий хужжатларни санаб ўтишимиз мумкин.

Демак, иқтисодиётни ривожлантиришни янги босқичларига кўтарилишда бу билан боғлиқ бўлган билим ва кўнималарни ривожлантирувчи таълим муассасалари, илмий тадқиқот институтлари, улар билан ҳамкорликда ишлаш учун ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантириш – инновацион ривожланишнинг асосий йўлларидан бири ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Мамлакатимизнинг инновацион ривожланиш йўлини тутган иқтисодиёти - самарали бозор усулларини қўллаш ва бошқаришга асосланган хўжалик юритувчи субъектларнинг прогрессив илмий-техника тараққиёти ютуқларига асосланади. Бунда билим, ахборот ва инновациялар орқали рақобатда устунликка эришилади. Инновацияларни жорий этиш товарлар рақобатбардошлигини ошириш, юқори ривожланиш даражасини сақлаш ва юқори рентабелликни рентабелликни сақлаб қолишнинг ягона йўли сифатида ёндашилади. Минтақалар иқтисодиётини ривожланишнинг инновацион йўлига ўтиши анъанавий тармоқларни модернизатсия қилишни, аввало, уларнинг инновацион қисмининг ўсишини назарда тутади.

Инновация – бу бозор талабидан келиб чиқсан ҳолда жараёнлар ва маҳсулотларнинг сифатли ўсиш самарадорлигини таъминлаш учун жорий этилган янгиликдир. Инсон интеллектуал фаолияти, унинг фантазияси, ижодий жараёни, кашфиётлари, ихтиrolари ва рационализаторлигининг якуний натижаси ҳисобланади.

“Инновацион фаолият” атамаси негизида, авваламбор, “инновация” сўзи, ушбу сўз негизининг ўзида эса “новатсия” сўзи ётади. Инновация – (инг. innovationas — киритилган янгилик, ихтиро) — 1) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иқтисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илмий-техника ютуклари ва илғор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланилиши³.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги «2019 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5544-сонли Фармони.<https://lex.uz/>

²Ўзбекистон Республикасининг 24 июль 2020 йилдаги “Инновацион фаолият тўғрисида”ги ЎРҚ-630-сонли Конуни. <https://lex.uz/ru/>

³Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. И ҳарфи. 199-бет. www.ziyouz.com.

Ўзбек тили луғатига бу сўзлар хорижий тиллардан кириб келган. Чунончи, инглизча “innovation”, русчасига “инновация” сўзи луғатларда “нововедение”, “новаторство” сифатида талқин этилган. Рус тилида берилган талқинга кўра бу сўз ўзбек тилига “янгилик киритиш”, “янги усул”, “киритилган янгилик” каби маъноларда ўтирилган ва изоҳланган. “Новаторство”, лотинча “novation” сўзи рус тилидаги луғатларда “изменение”, “обновление”, ўзбек тили луғатларида эса “ўзгариш”, “янгиланиш” маъносида талқин этилган.

“Инновация” тушунчаси ўзининг янги ҳаётини “инновацион комбинатсијалар”ни таҳлил қилиш, иқтисодий тизимларнинг ривожланишидаги ўзгаришлар натижасида XX асрнинг бошида Й.Шумпетернинг илмий ишларида бошлаган. Шумпетер 1900-йилларда иқтисодда ушбу терминни илмий қўллашга киритган дастлабки олимлардан эди.

Иқтисодий адабиётларда “инновация” тушунчасига таъриф бериш учун турли хил ёндашувлар пайдо бўла бошлади. Э.А.Уткиннинг ёндашувига кўра инновация деганда “ишлаб чиқаришга жорий этилган обьект тушунилади”¹. В.А.Макаренко² таҳрири остида нашр этилган замонавий тушунча ва терминлар луғатида “инновация” терминига яна ҳам кенгроқ тавсиф берилган. Луғатда “инновация” термини қўйидаги мазмунда баён қилинган: “инновация - бу: техника ва технология авлодининг алмашинувини таъминлаш мақсадида иқтисодиётга маблағ йўналтириш; илмий-техника тараққиётининг масъули бўлган янги техника, технологиядан фойдаланиш; янги ғояларни ишлаб чиқиш, синтезлаш, янги назария ва моделларни яратиш ва уларни ҳаётга татбиқ этиш; индивидуал тусдаги, такрорланмас, сиёсий дастурларни амалга ошириш; тилшуносликда янгидан ташкил этиш, нисбатан янги кўриниш”.

И.Степанова, инновацияни - илмий-техника салоҳиятини реал, янги маҳсулот ва технологияларни юзага чиқарадиган жараён сифатида тушунади³. Л.Водачек ва О.Водачкова инновацияларни “корхона фаолиятининг тизим сифатида мақсадли ўзгариши” деб таърифлайдилар⁴.

М.Сайдовнинг фикрича, инновация, аввало, иқтисодиётни ривожлантиришга қўйилмаларнинг самаралилиги билан тавсифланади, ишлаб чиқаришда мавжуд бўлган олдинги авлод техникиси ва технологиясини анча самарали, экологик соф ва ресурсларни тежашга имкон берувчи ишлаб чиқариш воситалари билан алмаштиришни ифодалайди. Инновацион фаолият (янгиликларни жорий этиш) ишлаб чиқариш янги технологиялари негизида рақобатбардош маҳсулот (товар)

¹Э.А.Уткин. Управление компаниями. Москва, 1997.-304 с

² Макаренко В.А. Современный словарь. 2 т. –М.:2000

³Степанова И.П. Инновационный менеджмент. Учебник. 2014

⁴Л.Водачек, О.Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с.

турларини яратиш жараёни. Бу жараён ғоянинг пайдо бўлиши, унинг мақсадини аниқлаш ва амалга оширишдан то ишлаб чиқаришни ташкил этиш, маҳсулот ишлаб чиқариш, уни сотиш ва иқтисодий самара олишгacha бўлган ишларни ўз ичига олади¹.

1-жадвал

“Инновация” ва “инновацион фаолият” тушунчаларининг моҳияти

№	Манба ёки муаллифнинг қисқача номи	Манба	Тушунчанинг изоҳланиши
1	ЎРҚ-630 “Инновацион фаолият тўғрисида”	Ўзбекистон республикасининг 24.07.2020 йилдаги ЎРҚ-630 рақамли “Инновацион фаолият тўғрисида”ти қонуни. (1-боб 3-модда) (https://lex.uz/ru/docs/4910391)	Инновация — фуқаролик муомаласига киритилган ёки шахсий эҳтиёжлар учун фойдаланиладиган, қўлланилиши амалиётда катта ижтимоий-иктисодий самарага эришишни таъминлайдиган янги ишланма Инновацион фаолият — янги ишланмаларни ташкил этиш, шунингдек ишлаб чиқариш соҳасида уларнинг ўтказилиши ва амалга оширилишини таъминлаш бўйича фаолият
2	ЎМЭ.И ҳарфи	Ўзбекистон миллий энциклопедияси. И ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 199-б	Инновация (инг. innovationas — киритилган янгилик, ихтиро) — 1) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иктисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илмий- техника ютуклари ва илгор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланилиши

¹Сайдов М.Х. Олий таълим иқтисодиёти, инвестициялари ва маркетинги: Ўкув қўлланма. – Т.: Молия, 2003 Б.74

3	ВодачекЛ., Водачкова О.	Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с	Инновация - корхона фаолиятининг тизим сифатида мақсадли ўзгариши
4	Степанова И.П.	Инновационный менеджмент. Учебник. 2014	Инновация - илмий- техника салоҳиятини реал, янги маҳсулот ва технологияларни юзага чиқарадиган жараён
5	Шумпетер И.Н.	Теория экономического развития. Москва, Прогресс, 2010. -344 с	Инновация - тадбиркорлик қобилиятига асосланган ишлаб чиқариш омилларининг янги илмий- ташкилий комбинатсияси
6	Твисс Б.	Управление научно-техническими нововведениями: сокр. пер. с англ. авт. предисл. и науч.ред. К.Ф. Пузыня. – М.: Экономика, 1989.– 271 с (С 152)	Инновация - ихтиро ёки янги ғоя бўлиб, иқтисодий мазмун касб этадиган жараёндир
7	Санто Б.	Инновация как средство экономического развития: пер. с венг. общ. ред. и вступ. ст. Б.В.Сазонова. М.: Прогресс, 1990.	Инновация - ижтимоий-иқтисодий жараён бўлиб, ихтиrolар, ғояларни амалда қўллаш орқали такомиллаштирилган маҳсулотлар ва технологияларни яратиш
8	Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д.	Сущность понятия «инновация» и его классификация // Инновации, 1998. № 2-3. (С25)	Инновация инсон фаолиятининг ҳар қандай соҳасида янги ғояни амалга оширувчи, бозордаги мавжуд эҳтиёжларни қондиришга ҳисса қўшувчи ва иқтисодий самара келтирувчи жараёндир
9	Тычинский А.В	Управление инновационной деятельностью компаний: современные подходы, алгоритмы, опыт. Таганрог: ТРТУ, 2006. Таганрог: ТРТУ, 2006, http://www.aup.ru/books/m87/	Инновация - илмий фаолиятининг маҳсулоти (товар ёки хизмат) бўлиб, унинг натижасида ишлаб чиқаришда туб ўзгаришлар рўй беради, туб ташкилий- маъмурӣ ва ишлаб чиқариш ҳамда, технологик ўзгаришларни вужудга келтиради.
10	Уткин Э.А.	Управление компаниями. Москва, 1997.-304с	Инновация -ишлаб чиқаришга жорий этилган объект

11	Жариков В.В., Жариков И.А., Однолько В.Г., Евсейчев А.И.	Управление инновационными процессами : учебное пособие / В.В. Жариков, И.А. Жариков, В.Г. Однолько, А.И. Евсейчев. – Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. унта, 2009. 6-с. (- 180 с.)	Инновация фаолияти-илмий тадқиқот ва ривожланиш натижаларини номенклатурани кенгайтириш, янгилаш ва маҳсулот (товар, хизмат) сифатини яхшилаш, уларни ишлаб чиқариш технологиясини кейинчалик амалга ошириш ва ички ва ташки бозорларда самарали амалга ошириш учун тијоратлаштиришга қаратилган фаолиятдир.
12	Тошмуродова Б.Э., Жиянова Н.	«Инновация фаолиятни молиявий рағбатлантириш». Ўкув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.-110 б.	Инновация - тушунчаси ўз ичига нафақат техник изланишларни, балки корхона иши усулидаги янгиликларни ҳам олади
13	Тараҳтиева Г.И.	Инновацион менежмент. Тошкент.:Фан ва технология. 2013, 9-б	Инновация янги ғояларнинг интегратсияси туфайли модернизатсия, янги жараёнларни, маҳсулот, хизмат турини яратиш имконини берадиган корхонанинг технологик ривожланишини таъминлайди. Амалдаги ёки режалаштирилган фаолликни оптималлаштириш, доимий янгилини орқали корхонатижорат фаолиятида янги ғоя ва илмий-техника тадбирларини жорий этишини мақсад қилиб қўяди.
14	Абдураҳмонов И.	Абдураҳмонов И.«Илм маблағга айланса, ана шу инновация». https://kun.uz/news/	Инновация – бу билимни маблағга айлантириш, яъни knowledge based economy
15	Норов А.Э.	Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тијоратлаштиришнинг назарий ва услубий асослари. “Iqtisodiyot va innovatsion	Инновацион фаолият тўпланган технологиялар, билимлар ва ускуналарни тијоратлаштиришга мўлжалланган технологик,

		texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil	илмий, ташкилий ва молиявий чора-тадбирлар мажмуаси. Инновациялар – бу янги ёки такомиллаштирилган товарлар (хизматлар), шунингдек янги сифатга эга товарлар ёки хизматлардир
16	Хотамов И., Мустафакулов Ш., Исаков М., Абдувалиев А.	Корхона иқтисодиёти ва инновацияларни бошқариш. Ўқув қўлланма. - Т.: Иқтисодиёт, 2019 й., 341-342 б.	Инновация хўжалик юритувчи субъектларда амалга оширилаётган ишлаб чиқаришни, унинг моддий техника базасини янгилаш ҳамда ривожлантириш мақсадида янги ғоялар ва ишланмаларни яратиш, ўзлаштириш ва татбиқ этишга қаратилган маҳсус фаолиятдир. Фаолият сифатида инновацияларни инсоният меҳнат фаолиятининг барча жабҳаларида қўллаш мумкин. Бу фаолиятни юритиш жамиятда фан-техника тараққиётига олиб келади
17	Сайдов М.	Сайдов М.Ҳ. Олий таълим иқтисодиёти, инвестициялари ва маркетинги: Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2003 Б.74	Инновация - ишлаб чиқаришда мавжуд бўлган олдинги авлод техникиси ва технологиясини анча самарали, экологик соғ ва ресурсларни тежашга имкон берувчи ишлаб чиқариш воситалари билан алмаштиришни ифодалайди.

Юқоридаги жадвал изоҳларида келтириб ўтганимиздаги таърифга кўра, И.Абдураҳмонов “Илм маблағга айланса, ана шу инновация” дея изоҳлайди ўз ёндашувларида¹.

Инновация хўжалик юритувчи субъектларда амалга оширилаётган ишлаб чиқаришни, унинг моддий техника базасини янгилаш ҳамда

¹ Абдураҳмонов И.“Илм маблағга айланса, ана шу инновация”. <https://kun.uz/news/2018/08/07/ilm-mablagga-ajlansa-ana-su-innovacia-innovacion-rivozlanis-vaziri-bilan-ekskluziv-subat>?

ривожлантириш мақсадида янги ғоялар ва ишланмаларни яратиш, ўзлаштириш ва татбиқ этишга қаратилган махсус фаолиятдир. Фаолият сифатида инновацияларни инсоният меҳнат фаолиятининг барча жабҳаларида қўллаш мумкин. Бу фаолиятни юритиш жамиятда фан-техника тараққиётига олиб келади¹.

Муаллифлар инновацияларни тавсифлашда, шунингдек маҳсулот ёки хизматнинг такрор ишлаб чиқариш ва бозор жиҳатларига эмас, балки сифат-технологик ўзгаришига асосий эътиборни қаратадилар. Бунда эволюцион ёндашув инновацион жараённинг узлуксизлигини таҳлил қиласи, ҳар бир инновациянинг иқтисодий мазмуни эса фақат иқтисодиётнинг “инновацион сектори” нуқтаи назаридан аниқланади. Бироқ, ишлаб чиқариш омилларининг янги бирикмаси ва унинг натижасида товарлар ва хизматлар бозорида юз берадиган ўзгаришлар – инновацион жараёнларнинг яққол кўринишидир.

Инновацион ҳодисалар турли хил бўлганлиги сабабли “инновация” категориясига турли ёндашувлар бўлиб бир неча хил таърифлар берилган.

Замонавий иқтисодиётда инновациялар нафақат иқтисодий ўсиш, ривожланиш, таркибий силжишлар омилидир, балки улар барча соҳаларни, иқтисодиёт тармоқларини ва умуман ижтимоий ҳаётни қамраб олган².

Инновациялардан тўғридан-тўғри инновацион фаолиятга ўтишда унинг асосий турларини санаб ўтиш мумкин:

а) ишлаб чиқаришни тайёрлаш ва ташкил этиш, улар технологиялар ва асбобларни сотиб олиш, шунингдек ишлаб чиқариш ва сифат назорати усуллари, стандартлари ва жараёнларида содир бўладиган ўзгаришларни ўз ичига олади;

б) ишлаб чиқариш олди ишланмалари, яъни маҳсулотни, асбоб-ускуналарни ва технологияларни такомиллаштириш, шунингдек улардан тўғри фойдаланиш учун ходимларни қайта тайёрлаш;

в) янги маҳсулотлар маркетинги - бозорга янги маҳсулотларни чиқариш билан боғлиқ асосий фаолият турларини амалга ошириш (бозорни ўрганиш, унга мослашиш, реклама ва бошқалар киради);

г) ташқаридан турли шаклларда номоддий технологияни олиш (масалан, патентлар, лицензиялар, ноу-хау, савдо маркалари, шунингдек технологик маънодаги моделлар ва хизматлар);

д) моддий технологияни сотиб олиш - машина ва ускуналарни ўз ичига олган ва маҳсулотли ёки технологик ўзгаришларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлган ишлар;

¹Хотамов И., Мустафакулов Ш., Исаков М., Абдувалиев А.. Корхона иқтисодиёти ва инновацияларни бошқариш. Ўқув қўлланма. - Т.: Иқтисодиёт, 2019 й., 341-342 б.

² Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштириш назарий ва услубий асослари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. 121-6.

е) ишлаб чиқаришни лойиҳалаштириш - техник жараёнлар ва хусусиятларни аниқлаш учун режалар ва чизмаларни тайёrlашдан иборат.

Инновацион фаолият қуидагиларга асосланади: инновацияларни анъанавий, оддий ишлаб чиқаришдан *устунлиги тамоили*; инновацион ишлаб чиқаришнинг *тежсамкорлик тамоили* (тижорат самарага эришиш кўзда тутилади); *мослашувчанлик тамоили* (ҳар бир янги ғоя учун мустақил инновацион тузилма ташкил этилади, лекин у ўз навбатида бошқа муаммоларни ҳал қилиш учун мутлақо мос келмаслиги мумкин); *мажмуавий тамоил* (масалан, биргина ёрқин кашфиёт унга боғлиқ бўлган бир нечта кичик инновацияларни пайдо бўлишига сабаб бўлиши мумкин). Инновацион фаолиятни бошқариш қоидаларини ва уни қўллаш технологиясини билиш тегишли стратегия ва тактикани тўғри шакллантиришга ёрдам беради. Ҳар қандай инновацион фаолиятнинг самарадорлиги ташкилотни ушбу йўналишда ривожлантиришни тақозо этади.

Тадқиқот методологияси

1697-yilda tobolik boyarning o'g'li Semyon Remezov Sibir erlarining xaritasini chizayotib, bir nuqtaga Urxun tosh degan belgi qo'ydi.

1730-yilda surgunda yurgan asir shved ofitseri Filipp Iogann Stralanberg birmuncha aniqroq ma'lumot berdi. U Sibirda surgunda 13 yil yashaydi. Asirlikdan qutilib, Shevetsiyaga qaytgach, bir necha noma'lum bitiglarning jadvalini e'lon qiladi.

Yozuvlarning turkiy xalqlarga mansubligini ilmiy jihatdan birinchi bo‘lib rus sayyohi, etnograf N.M.Yadrinsev aniqlab berdi. U topilgan yozuvlarning taxminan 2000 yillar ilgari yozilganini, turkiy xalqlarning skif va gotlarga qo‘shni bo‘lganini aniqladi.

Urxun-Enasoy yozuvlarini o‘qish daniyalik mashhur olim Vilgelm Tomson va rossiyalik turkolog olim V.V. Radlov larga nasib qildi. 1893-yilning oxirlarida V. Tomson Urxun daryosi qirg‘oqlaridan topilgan yozuvlarning o‘qilishi haqida Daniya qirolligi Fanlar akademiyasi yig‘ilishida ma’lumot berdi. U yozuvlardagi to‘qqiz belgini qanday tovush ifodalashini bilib olgach, unga asoslangan holda Urxun yozuvlariga xos alifboni aniqladi va tangri, turk so‘zlarini o‘qidi hamda bu bitiglarni turkiy xalqlarga mansub ekanligini isbotladi.¹

Turkiy yozma yodgorliklar P.M. Melioranskiy, S.E. Malov, I.A. Batmanov, A.N. Kononov, S.V. Kisilev kabi turkologlar tomonidan o‘rganilgan.

Qadimgi yodgorliklarga oid P.M. Melioranskiy “Kultegin yodgorligi” (Памятник в честь Кюль-Тегина. - ЗВОРАО, 1899), S.E. Malov “Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari” (Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л., 1951), “Turklarning enisey yozuvi” (Енисейская письменности тюрков. – М.-Л., 1951), V.M. Nasilov “Urxun-yenisey yodgorliklari tili” (Язык орхон-енисейских памятников. – М., 1960) asarlarini yozishgan.

A.N. Kononov turk-run yodgorliklariga doir “VII-IX asrlardagi turk-run yodgorliklari tili gramatikasi” (Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв. – Л: Наука, 1980) nomli kitob yozgan. XI bobdan iborat mazkur kitobda VII-IX asrlarga mansub qadimgi yodgorliklarning tarixiy-siyosiy tasnifi berilgan, run alifbosining shaklanishi, fonologik, morfemik, yasalish, morfologik, sintaktik xususiyatlari mukkamal yoritilgan.²

Bu o‘rinda “Oltin yorug” (IX asr) sutrasi, moniylik va buddaviylik oqimidagi yozma yodgorliklarning qadimgi turkiydan hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili nashrlarini eslashimiz kerak. Bularidan tashqari, O‘zbekiston hududidan miloddan oldingi davrlarga va milodiy VII-VIII asrlarga oid turkiy-run yozuvidagi yodgorliklar topildi va tahlilga tortildi. Shu bilan birga, Janubiy Sibir va O‘zbekiston tuprog‘idan topilib, ilgari tahlil etilgan turkiy-run yozuvlari qaytadan deshifrovka qilindi. Qadimgi turkiy tilning manbalaridan Kulteginga bag‘ishlangan bitikning qiyosiy nashri va til xususiyatlari bag‘ishlangan asar ham aynan O‘zbekistonda yaratildi. Kulichur bitik toshini 1912-yilda polshalik professor V.Kotvich Mo‘g‘ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xusho tuman zilidan 72 topgan va uning matnini A.Samaylovichbilanbirga 1928-yilda nashetgan. U Kulichur sharafiga tiklangan bo‘lib, sanasi ma’lum emas. Tardushelini boshqargan Kulichur ikkinchi turk xoqonligida yashagan mashhur shaxslardan sanalgan. Uning ismi Bilga xoqon bitiktoshida ham tilga olinadi. Yodnomadagi yozuv toshning uch tomoniga yozilgan bo‘lib, jami 29 satrni tashkil

¹ Uluqov N. O’sha o‘quv qo‘llanma, 104-b.

² Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв. – Л: Наука, 1980. – 246 с.

etadi. Kulichur 731-yilda vafot etgan deb taxmin qilinadi. Moyunchur bitigini fin olimi G.I.Ramstedt 1909-yilda Shimoliy Mo‘g‘ulistonda Selenga daryosi va Shineusu ko‘liga yaqin erda topgan. Bitig va uning tarjimasini 1913-yilda nashr qildirgan. Bitiktosh 759-yilda qo‘ylgan deb taxmin qilinadi. Qadimgi turkiy tilning taxminan V-X asrlarda vujudga kelgan. Irq bitigi ko‘kturk xatidagi yaxlit kitob holida saqlanib kelingan. Qadimgi turkiy tilda īrq – “fol”, īrq bitig “fol kitobi” degan ma’noni anglatadi. Asarni A.Steyn Xitoydagi Dunxuan yaqinidagi “Ming buddag‘ori” nomli ibodatxonha xizmatchisidan Londonga olib kelgan. Asarni avval V. Tomsen 1912-yilda nashr etgan. Asar 65 bo‘limdan iborat. Unda tushta’ birlari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog‘lab bayon etiladi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘rganishga A.Fitrat, O.Sharafiddinov, N.Mallayev, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, E.Umarov, T.Salimov, B.To‘xliyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov kabi o‘zbek olimlari ham o‘zlarining munosib hissalarini qo‘sghanlar. Jumladan, buyodgorlikning topilish tarixi N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”, B.To‘xliyevning “O‘zbek adabiyoti”, A.Qayumovning “Qadimiyat obidalari” asarlarida yoritilgan. H.Zarif, M.Saidov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, S.Turdimov, A.Musaqulov, G.Akramov, J.Eshonqulovlar o‘zishlarida bu borada u yoki bu darajada to‘xtalib ma’lumot berib o‘tganlar. Lekin bu umum turkiy ma’naviy merosimizni o‘rganishda Qosimjon Sodiqov va Nasimxon Raxmonov xizmatlari katta. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylilik, aniqlik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Turkiy-run yozuvida bitilgan bitiklar O‘zbekiston hududidan ham anchagina topilganini, ularning ma’nolarini Q.Sodiqov asarlarida aytib o‘tdi. Umuman, olimning O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqiga bag‘ishlab yozilgan asarlarini quyidagicha o‘rganish mumkin: O‘rxun-Enisey yodgorliklarining badiiyati o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar: “Toshga bitilgan kitoblar”, “Inson ruhining sadosi”, “Bitiglar olamida”, “Ko‘hna bitig toshlar”, “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run 73 yozuvlari”, “O‘zbek mumtoz adabiyotining namunalari”, “O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari” kabi kitoblarida yodgorliklarning ma’nosи, mazmuni, adabiy tomonlari o‘rganib chiqilgan. Jumladan, Boqijon To‘xliyev bilan ham mualiflikda yozgan “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari” (2006) kitobi O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining mantiqiy davomi sifatida O‘zbekistondan topilgan turkiy-run yozuvidagi topilmalar haqida juda keng dalillar beradi. O‘z navbatida, bu guruhning o‘zi ham ikkiga bo‘linadi: a) O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining folkloristikasi: “Turkiy yozma adabiyot va og‘zaki epik an’analar munosabatiga doir” maqolasi, “O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati” doktorlik ishi (1991), Turkiy xalqlar sehrli ertaklarida evrilish (metamorfoza) va uning mifologik sujetlar bilan munosabati “O‘zbek folklorshunosligining dolzarb masalalari” to‘plamida, “Folklorizm va mifologizatsiya-qadimgi turkiy adabiyot asosi” kabi ilmiy asarlarida yodgorliklardagi folklor unsurlarini o‘rganadi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining

nazariyasi: “Kultigin yodnomasi poetikasi” (O‘lmas obidalar) tarkibida), “Qadimiy hikmatlar”, “Kultigin yodnomasida alliteratsiya”,



Kultegin bitigtoishi

“Kultegin yodnomasida adabiy etiket”, “Kultegin yodnomasida badiiy san’atlar” kabi ilmiy asarlari orqali bitiklardagi nasriy va she’riy san’at turlari namunalarini o‘rganadi. Yozuvlar bengu toshlari deb ham ataladi va bu toshlar davlat xabarini oluvchilar va xoqonlar o‘limidan keyin yodgorlik qurish uchun barpo etilgan. Ma’lumki, kitobni bosib chiqarish usullari Uyg‘ur davrida yozilgan yozuvlarda ishlataligan. Davrga oid ko‘plab hikoyalar mavjud. Ko‘kunch nomidagi teatr namunasi ushbu asarlar sirasiga kiradi. Asosan, Ko‘kturk davri asarlaridagi hayajon va milliy ong bu davr yozuvlarida unchalik ko‘rinmaydi. Yozuvlar, odatda, qabrtoshlari shaklida topilgan. O‘rxun-Enasoy yozuviyining Lena Baykalbo‘yi, Yenisey, Mo‘g‘ul, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, Sharqiy Yevropa kabi guruahlari aniqlangan. O‘rxun Enasoy yozuvini tekshirish va o‘rganishda V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, A.A.Polovsev, G.Geykel, S.E.Malov, L.N.Gumilyov, D.Nemet kabi rus va evropalik olimlarning xizmatlari beqiyos. O‘zbek olimlaridan akademik G‘.Abdurahmonov va A.Rustamov, professor N.Rahmonovlar ham O‘rxun-Enasoy yozuvini o‘rganib, muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ushbu yodgorliklarni tadqiq etish hozirgi kunda ham davom etmoqda. O‘rxun-Enasoy obidalari turkiy xalqlarning tarixi, yashash tarzi, kurashi xususida yorqin ma’lumotlar beradi.



Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar onomastikasi qadimiy manbalarga ega. “Avesto”, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abu Tohirxo‘ja ibn Abu Sa’idxojanining “Samariya”, Abu Rayhon Beruniy, Yoqut al-Hamaviy, Sharofuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Is’hoqxon Ibratning tarixiy asarlari vatanimiz toponomiyasini, jumladan, gidronimiyasini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Xuddi shu manbalar sirasiga urxun-enasoy yozuvida bitilgan qadimgi turkiy yodgorliklar ham kiradi va yuqoridagi asarlar bilan bir qatorda qadimgi turkiy xalqlar va bobo turkiy tilga mansub atoqli otlar tizimini lisoniy jihatdan o‘rganishda muhim tarixiy, ilmiy manba bo‘la oaldi.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda tarixiy onomastik birlıklarning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Biblionimlar (asar nomlari).
2. Antroponimlar (kishi ismlari, laqablari).
3. Toponimlar (joy nomlari).
4. Xrononimlar (tarixiy davr, sana, urush va boshqalarning nomlari).
5. Kosmonimlar (samoviy jismlar, yulduz va sayyora nomlari).
6. Etnonimlar (qabila, urug‘, xalq nomlari).
7. Zoonimlar (hayvon nomlari).

Qadimgi turkiy yodgorliklardagi tarixiy onomastik birlıklarni tadqiq etish quyidagi jihatdan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega:

- 1) narsa-buyum, voqea-hodisalarga atoqli nom berish tamoyillari va an'analarini;
- 2) tarixiy va eskirgan atoqli otlar – onomastik birliklarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish;
- 3) qadimiy yodgorlik va yozma manbalarning nomlanish jihatlarini, sarlavhalarda asarning mavzusi va g'oyaviy mazmunini aks etishini tahlil qilish;
- 4) hozirgi joy nomlarining tarixiy variantlari va shakllarini, etimologiyasini o'rganish zamonaviy variantlari bilan qiyoslash;
- 5) turkiy xalqlarning ism qo'yish an'analarini, tarixiy antroponimlarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, yasalish, tuzilish xususiyatlarini yoritish;
- 6) qadimgi turkiy bobo tilning leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini dalillash;
- 7) onomastik birliklarning tarixiy-badiiy matnlardagi semantik, vazifaviy, uslubiy qirralarini ochib berish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot qadimgi turkiy yodgorliklarning madaniy, tarixiy va lingvistik o'lchovlarini yoritadi. Biblionimlar turkiy xalqning ijtimoiy ustuvorliklari, intilishlari va o'ziga xosliklariga noyob oyna beradi. Keyingi tadqiqotlar ushbu biblionimlarning zamonaviy turkiy tillar va madaniyatlarga ta'sirini o'rganib, ularning doimiy ta'sirini yanada kengroq tushunishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, Bilga Xoqon, To'nyuquq, Kultegin, Moyunchur va Kulichur yodgorliklarini o'rganish qadimgi turkiy jamiyat haqidagi tushunchamizni boyitadi. Ularning nomlari tarixning muhim davrida turkiy dunyoning o'ziga xosligi va traektoriyasini shakllantirgan asosiy qadriyatlar va atributlarni qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Rahmonov N., B.Matboboyev. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. Toshkent, "Fan", 2006.
2. Soatova G. "O'zbekistonda Urxun-Enasoy yofgorliklari taddiqi" O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6сон.
3. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi-Toshkent: Sharqshunoslik institute, 2006.
4. Айдаров Г. Язык орхонского памятника Билге Кагана, Алмаата, 1966;
5. Кляшторний С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии, Москва, 1964.
6. Рахманов Н. Новые находки Ферганы.-Ош-3000, том 3, Бишкек, 2000-год.



11.00.00

GEOGRAFIYA FANLARI
ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ
GEOGRAPHICAL SCIENCES

ТАБИАТДАН ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМА ВА АНЬАНАЛАРИНИ
САҚЛАШНИНГ ЭКОЛОГИК АҲАМИЯТИ

Аҳмадалиев Ю.И.

Фарғона давлат университети профессори, г.ф.д.

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек халқининг табиатдан фойдаланиши бўйича йигилган анъана, кўникма ва малакаларини ворислик асосида авлодларга етказишнинг ўрни ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, мазкур кўникма ва малакаларни экологик фалокатларни олдини олишдаги аҳамияти кўрсатиб берилган.

Tayanch iboralar: ворислик, табиатдан фойдаланиши анъанаси, кўникма, малака, экологик фалокат, экологик маданият.

Аннотация. В этой статье рассказывается о том, как узбек халкининг, естественно, стал наследником традиций, традиций и традиций, основанных на праве правопреемников правопреемников юритилгана. Шунингдек, данная горнодобывающая и экологическая экспертиза выявила катакстрофы, имеющие первостепенное значение.

Ключевые слова: ворислик, табиатдан фойдаланиши анъанаси, кўникма, Малакка, экологик катакстрофы, эколог культуры.

Abstract. This article reflects on the role of women in communicating the collected traditions, skills and competencies of the Uzbek people on the basis of nature from ancestors to descendants on the basis of succession. The importance of these skills and competencies in preventing an environmental disaster is also shown.

Key words: succession, tradition of using nature, skills, competence, ecological catastrophe, ecological culture.

Кириш

Бугунги экологик муаммолар ечимида замонавий инновацион ёндошувлар билан бир қаторда маҳаллий аҳолининг табиатдан фойдаланиш анъаналари, кўникма ва малакаларига асосланган этноэкологик ёндошувнинг

аҳамияти юқори. Бу ҳакида республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев шундай ёзади: – “Халқларимизнинг табиатга унинг бойликларини асраб-авайлаган ҳолда муносабатда бўлиш ва умумий сув ресурсларидан биргаликда фойдаланиш борасида кўп асрлик анъаналарига суюнган ҳолда биз ҳақикатан ҳам улкан натижаларга эришамиз”¹. Бундан ташқари ҳалқаро хамжамиятнинг қатор конференцияларида (Рио-де-Жанейро, 1992, Йоханнесбург, 2002, Нью-Йорк, 2015) инсониятнинг яқинлашиб келаётган экологик ҳалокатлардан кутқариш, ривожланишнинг барқарор йўлига ўтишнинг асосий тамойилларидан бири сифатида – «*туб жой аҳолиси фойдаланадиган анъанавий билимлар ва қадрияtlар, ресурслардан фойдаланиши усулларини эътироф этиши*» [1; 31-б.] эканлиги таъкидланмоқда. Бундай ёндошувда маҳаллий аҳолининг урф-одатлари, анъана ва кўникумларининг авлодларга ворислигини таъминлаш экология соҳаси учун долзарб ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Ҳалқларнинг экология соҳасидаги кўникумма, малака ва анъаналарини сақлаш бўйича география фанида алоҳида маданий меросни ўрганиш йўналиши мавжуд. Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномадият.–Т.: “Адолат”, 2003. 197 б.

Қорабоев У. Ўзбек ҳалқи байрамлари.–Т.: “Шарқ”, 2002 й. 240 б.

Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология (географик жиҳатлари) / Фарғона: “Classic” нашриёти, 2021. -286 б.

Ю.А.Веденин (2004) маданий меросни сақлаш ва ундан фойдаланиш масалаларини ҳал қилишда аҳамиятли бўлган З та ёндашувни ажратади: а) генетик (мерос-миллий ва минтақавий маданиятнинг ўзига хослигини сақловчи, тарихий хотирани ташувчиси); б) экологик (мерос-жамият ва биосферанинг барқарор ривожланиши асоси); в) географик (мерос-дунёни, мамлакатлар, минтақалар, этносларнинг маданий ва табиий хилмажилигини сақлаш асоси) [2; 29-б.]. Бундай ёндашунинг биз учун аҳамиятли жиҳати маданият ва маданий меросга экологик-географик йўналишдаги тадқиқот обьекти сифатида қаралишидир. Маданиятга миллий ва минтақавий ёндашув этник маданиятни юзага келтиради. Этномаданият эса - бу маданиятни маълум этносга хос бўлган хусусиятларни сақлаб қолиш мақсадида ўзлаштирилган кўринишлар мажмуидир [3].

Тадқиқот методологияси

Этномаданият илмий йўналишида таҳлил этиладиган масалалар орасида маънавий мероснинг асрлараро шаклланган, авлоддан-авлодга ўтиб,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Турманистоннинг Туркманбоши шахрида бўлиб ўтган Оролни кутқариш ҳалқаро жамғармаси таъсисчи давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 25 август, № 173 (7131).

одатга айланган қисми «анъанавий халқ маданияти»га эътибор қаратилади. М.Муродов ва унинг ҳаммуаллифларининг таъкидлашича, «бу маданият-этносларнинг тарихий-маънавий эҳтиёжлари асосида вужудга келган, уларнинг ақлий-ижодий фаолияти натижасида тараққий этган, минг йилликлар мобайнида аждодлар фикрлари, тажрибалари, орзу-истаклари, анъаналари ва қадриятларини ўзида бирлаштирган, авлоддан-авлодга ўтиб, асрлар оша сайқалланиб, мураккаблашиб борган бебаҳо мерос» ҳисобланади [4; 9-б.].

Таҳлил ва натижалар

Этномаданият шаклланишида табиий-географик омилнинг ўрни юқори бўлган турларини (табиатдан фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва х.к.) умумий экологик маданият билан уйғунлаштириш натижасида этноэкологик маданият юзага келади [4]. Этноэкологик маданиятга берилган кўплаб таърифларни умумлаштирган ҳолда унга қуидаги таъриф бериш мумкин, *Этноэкологик маданият* - умумий маданиятни таркибий қисми бўлиб, этносларнинг табиат билан бўладиган онгли фаолияти натижасида юзага келган қадриятлар, анъаналар, урфодатлар ва фаолият турларини ўзида жамлаб, этнос билан у яшайдиган ландшафтнинг мураккаб ўзаро алоқаси жараёнда шаклланади ва муайян географик шароитда этносларнинг табиат билан барқарор муносабатини таъминлайди [5; 29-б.].

Маданият элементлари экологик нуқтаи-назардан ўрганишда анъаналар, кўникмалар, одатлар, таъқиқ ва нормаларни алоҳида ўрганиш талаб этилади. Анъанага берилган таърифлар кўп бўлсада [5] мазкур тадқиқот моҳиятига мос келучи таъриф, У.Қорабоев томонидан берилган, унга кўра, *анъана деганда - «узоқ тарихий жараёнда этносларнинг ижтимоий-маънавий эҳтиёжлари асосида вужудга келиб, уларнинг ақлий-ижодий фаолияти асосида, атроф-мухит, табиат, меҳнат жараёнига боғлиқ ҳолда авлоддан-авлодга ўтиб, тараққий этган ва асрлараро аждодлар фикри, орзу-ўйлари, тажрибалари, ютуқлари ва қадриятларини мужассамлаштирган бебаҳо мерос»* тушунилади. Кўникма - инсоннинг илгариги тажрибалари асосида муайян фаолият ёки ҳаракатни амалга ошириш қобилияти. Кўникмалар амалий фаолиятга, билимларни амалда кўллай билишга оид фаолиятнинг таркибий қисмидир. Кўникма фаолиятнинг мақсади ва шароитларига мутаносиб равишда ҳаракатни муваффақиятли бажариш усуллариdir. У ҳамиша билимларга асосланади, маҳорат (малака)нинг негизи ҳисобланади.

Одат - кишиларнинг турмушкига сингиб кетган, маълум муддатда тақорланиб турувчи хатти-ҳаракат, қўпчилик томонидан қабул қилинган хулқ-атвор қоидалари тушунилади. Экологик тадқиқотлар учун аҳамиятли

бўлган этноэкологик маданият элементларидан таъкиқлар, нормалар шартларга ислом хуқуқида эътибор қаратилган [6].

Ворислик - табиат, жамият ва билиш тараққиёти жараёнида ҳодисалар ўртасидаги алоқадорлик; жамиятда ижтимоий ва маданий қадриятларнинг авлоддан авлодга ўтиши ҳамда ўзлашиши; анъаналарнинг амал қилиши хисобланади. Жамиятда бошқа соҳаларда бўлгани каби табиатдан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш жараёнида ҳам жамиятда бор бўлган ибратли урф-одат кўнкима ва анъананаларни авлодларга етказиб беришда ворислик ниҳоятда аҳамиятли жараёндир. Бу жараённи ташкил этишда ниҳоятда эҳтиёткорлик билан муносабат талаб этади. Бу ҳолатни сабабини қўйидагича изоҳлаш мумкин:

- биринчидан, ёшлар тарбияси билан шуғулланишда асосий эътибор кўпроқ инновацияларга қаратилади, тарбия жараёнида ёшларимизда оқилона экологик ахлоқни яратишга масъул эканлигимиз унитилади [7];

- иккинчидан, миллий экологик маданият ва тарбияни амалга ошириш жараёнга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлишини тақозо этадиган ҳолат мавжуд. Ижтимоий ҳаётда бўлгани инновацияларга хаддан ташқари эътибор бериш, ўзга мамлакатлар ва минтақалардаги янгиликларни пухта ўрганмасдан қўллаш кўпинча салбий холатларни келтириб чиқариши мумкин.

Тарихда бу жараёнга ёрқин мисол Лев Николаевич Гумилев томонидан келтириб ўтилган [8]. Инсоният тарихида етти мўжиззанинг бири бўлган “Осма боғлар” яратилган, хуқуқ олами ҳозиргача ўрганадиган “Ҳамураппи қонунлари” ёзилган, фотиҳлар Александр Македонский, форслар шохи Кир босқинига бардош берган, дунёдаги биринчи миллионер шаҳари Вавилон (Бобил) Аёл томонидан таклиф қилинган пухта ўйланмаган гидротехник иншоот сабабли бир неча ўн йилликларда ер юзидан йўқ бўлиб кетганлиги бугунги экологик билимлар ойнаси орқали қаралганда маълум бўлди.

Эрамиздан аввалги XIX - асрда Шаркий Арабистондаги Аморелар томонидан қурилган “Боб-эл” Аллоҳнинг дарвозаси деб эъзозланган шаҳарни эрамиздан аввалги 612 йилда Халделар қабиласи эгаллайди. Эрамиздан аввалги 582 йилда Бобил шохи Навуходоносор Миср маликаси Нитокрисга ўйланади. Малика Нил дарёсига қурилган ирригация иншоотларини бу ерда ҳам қуриш орқали суғориладиган ерлардан кўпроқ фойда олишни таклиф қиласди. Натижада Фурот дарёсидан сув олувчи Паллукат канали қурилди. Оқибатда Фурот дарёси секин оқади, ётқизиқлар суғориш каналлари ва суғориладиган ерларни тўлдирди, канал оқиб ўтган ҳудудларда тупроқнинг шўрлашиши юз берди, деҳқончилик ва боғдорчилик фойда бермай қўйди, суғориш иншоотларини тутиб туришга йилдан-йилга кўпроқ маблағ сарфланадиган бўлди. Оқибатда йирик шаҳар ҳам ривожланаётган мамлакат ҳам инқирозга юз тутди.

Маликанинг хатоси шаҳарни барбод қилди деб ўйлаш нотўғри. Асосий сабаб шохнинг келгинди бўлгани, бу ерни босиб олганида. Агар шох маҳаллий аҳолидан бўлганида, ота-боболари қўллаб келган мелиорация усулини, этноэкологик маданиятни афзаликларини биларди ёки ҳамюртлари билан маслаҳатлашарди. Афсуски шох Холде, аскарлари араблар, маслаҳатчилар мисрлик яхудийлар эди. Уларни босиб олган мамлакатлар географияси устида бош қотиришга вақтлари йўқ эди, тезроқ ва кўпроқ фойда олиш бош мақсад қилиб олинган эди.

Хулоса ва таклифлар

Мисрлик ирригаторлар ўз мелиорация усуllibарини Нилдан Фурот дарёсига механик усулда кўчириб келганлар. Нил тўлин сув даврида (Виктория, Альбетр кўлларида тиниб унумдор ил (лойка) олиб келади, Ливия чўлида тупроқни шўрланиш ҳавфи кам чунки худуднинг дренаж ҳолати яхши, ортиқча еrosti сувлари Ўрта Ер денгизага ташлаб юборилган.

Нил дарёсидан фарқ қилиб Фурот дарёси Арманистон тоғлигидан бошланади, тўлин сув даврида дарё майда шағал ва кум зарраларин олиб келади. Шунинг учун ҳам Бобилликлар дарёга тўғон қурсасдан, кичик ариқ ва чархпалакларда унинг юза қисмидаги сувдан фойдаланганлар. Ортиқча сувни Дажла дарёси орқали денгизга ташлаб юборганлар. Бу этноэкологик маданиятни ворислик асосида авлоддан авлодга бериб келиниши эса мазкур худудда узоқ вақт деҳқончиликни барқарор ривожланишини таъминлайдиган ўзига хос “маданий ландшафт” шаклланишига, юрт фаровонлигига олиб келган.

Афсуски, шундай холат XX асрнинг 50-йилларида бошлаб Орол денгизи ҳавзасида ҳам тақрорланди. Ер ва сувдан фойдаланишдаги Ўрта Осиё халқларининг асрлар давомида тўпланган этноэкологик маданиятига эътиборсиз қараш, унга беписандалик билан эскилик сарқити сифатида муносабатда бўлиш, табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ворисликни бузилиши тузатиб бўлмас муаммоларни келтириб чиқарди. Бундай, салбий ҳолатларни олдини олиш учун табиатдан фойдаланиш соҳасида ворисликни таъминлаш табиий ва ижтимоий фанлар зиммасидаги вазифалардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>;
- Веденин Ю.А. Формирование нового культурно-экологического подхода к сохранению наследия // Экология культуры: Альманах Института Наследия «Территория». – М.: Институт Наследия, 2000. С.74-82

3. Веденин Ю.А. Иноформационная парадигма культурного ландшафта//Культурный ландшафт как объект наследия.–М.: Институт Наследия; СПб.: Дмитрий Буланин, 2004.-С. 68-81
4. Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномадият.–Т.: “Адолат”, 2003. 197 б.
5. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари.–Т.: “Шарқ”, 2002 й. 240 б.
6. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология (географик жиҳатлари) / Фарғона: “Classic” нашриёти, 2021. -286 б.
7. Хомидова Г.М., Муродов М.З. Экологик аҳлоқ. Фарғона.: “Фарғона нашрёти”, 2008 й. 204 б.

FARG'ONA VODIYSI ADIR AGROLANDSHAFTLARI VA ULARNI JOYLASHTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Mirzamahmudov O.T.
University of Business and Science dotsenti, g.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi adirlarida sug'orish ta'sirida agrolandshaftlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi nuqtai nazardan adirlarning tuproq-ekologik sharoitlari o'rganilgan. Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlarini turlari va ularning xududlar kesimi buyicha joylashuvi, rivojlanishini uziga xos xsusiyatlari o'rganilgan. Farg'ona vodiysi adirlari landshaft-ekologik sharoitining o'zgarishi agrolandshaftlar rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi asoslangan. Shu sababdan Agrolandshaftlarning vujudga kelishining asosiy xsusiyatlari o'rganilib ularni joylashtirish chora –tadbirlari ham ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar: adir, agrolandshaft, sug'orish, sho'rланish, eroziya, tuproq, Sug'orma dehqonshilik, lalmi dehqonshilik, yaylov va o'tloqlar, antropogen ta'sir, landshaft-ekologik sharoit, agromeliorativ, agrotexnik, agrokimyoviy, mineral o'g'itlar.

Аннотация. В статье изучены почвенно-экологические условия адыров с точки зрения возникновения и развития агроландшафтов под влиянием орошения на адырах Ферганской долины. Изучены типы холмистых агроландшафтов Ферганской долины, их расположение и особенности развития в разрезе территорий. Он основан на том, что изменение ландшафтно-экологических условий адыров Ферганской долины напрямую связано с развитием агроландшафтов. По этой причине были изучены основные особенности возникновения агроландшафтов и разработаны мероприятия по их размещению.

Ключевые слова: адыр, агроландшафт, орошение, засоление, эрозия, почва, орошаемое земледелие, богарное земледелие, пастбища и луга, антропогенное воздействие, ландшафтно-экологические условия, агромелиорация, агротехника, агрохимия, минеральные удобрения.

Abstract. The article studies the soil and ecological conditions of the kholmadyrs from the point of view of the emergence and development of agricultural landscapes under the influence of irrigation in the adyrs of the Fergana Valley. The types of hilly agricultural landscapes of the Fergana Valley, their location and development features in the context of territories have been studied. It is based on the fact that changes in the landscape and ecological conditions of the adyrs of the Fergana Valley are directly related to the development of agricultural landscapes. For this reason, the main features of the

emergence of agricultural landscapes were studied and measures for their placement were developed.

Key words: Adyr, agricultural landscape, irrigation, salinization, erosion, soil, irrigated agriculture, rain-fed agriculture, pastures and meadows, anthropogenic impact, landscape-ecological conditions, agromelioration, agricultural technology, agrochemistry, mineral fertilizers.

Kirish

Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoda o‘ziga xos tabiatini va iqlim sharoitlari bilan, shuningdek tuproq qoplaming transformatsiyasi, rivojlanishi va evolyutsiyasi hamda ularning unumdorligini shakllanishida tabiiy ayniqsa iqlimi sharoitlari muhim ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. Shunki vodiy O‘rta Osiyoning eng katta tog‘lararo botiqliklaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Farg‘ona vodiysi respublikamiz iqqisodiyotida, xususan qishloq xo‘jaligida muhim o‘rin tutuvshi mintaqasi hamdir.

Farg‘ona vodiysi adirlarining litologik-geomorfologik tuzilishi va tuproq paydo qiluvchi omillariga bog‘liq holda tuproqlarni kelib shiqishi (genezisi), unumdorlik ko‘rsatkishlari turlisha bo‘lgan va turli darajada sho‘rlangan, eroziya va boshqa salbiy jarayonlar ta’sirida bo‘lgan tuproqlar ushraydi, ular meliorativ-ekologik holati bo‘yisha farqlanadi [7].

Farg‘ona vodiysi adirlarida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanib borishi tabiiy. Shunki, birinshidan, adirlar vodiyning asosiy er fondi hisoblanadi, ikkinshidan, Farg‘ona vodiysi aholisining son jihatdan o‘sib borishi sababli, ularni er ushastkalari bilangina ta’minalash emas, balki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa adirlar mintaqasiga antropogen ta’sir ko‘payib agrolandshaftlar maydonini ortib borishini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan Farg‘ona vodiysi adirlari agrolandshaftlarini har tomonlama o’rganish va ularni joylashtirish yo’llarini ishlab chiqish dolzarb echimini kutayotgan muamolardan hasoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tuproqshunos olim Ismanov A.J.ning ta’kidlashisha, insonlar faoliyati ta’sirida tuproqlarni o‘zgarishi bu agrolandshaftlarni ta’siridir. Oddiy ishlov berishlardan boshlab, hozirgi murakkab va ko‘p tabaqali ishlov beripshargasha bo‘lgan davrlarda, insonlar qulay sharoitlarni faqat yuqori hosil olish ushun yaratadi. Natijada sug‘oriladigan erlar tuproq qoplamlarining gidrotermik, kimyoviy va biologik rejimi, faolligi yangidan vujudga kelgan va bu holat uzoq yillar davom etgan. Asrlar davomida dehqonshilik o‘shoqlari vodiyning turli joylarida vujudga kelgan, masalan, Shustda dehqonshilik bronza davridan avval boshlanganligi va aholi arpa, bug‘doy ekinlarini etishtirganligi aniqlangan [4].

Farg‘ona vodiysi agrolandshaftlarida sug‘oriladigan tuproqlar insonlar faoliyati ta’sirida katta o‘zgarishlarga ushragan. Sug‘orishlar ta’sirida tuproqlar

o‘zining tabiiy belgilarni, xossa va xususiyatlarini o‘zgartirgan. Ko‘plab tadqiqotshilar insonlar tomonidan tuproqda o‘tkaziladigan sug‘orishlar, ishlov berishlar va boshqa agrotexnik tadbirlarni rolini oshib berishga harakat qilganlar.

Farg‘ona vodiysi tuproqlari qoplamlarini sug‘orish ta’sirida o‘zgarishi to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar, A.N.Rozanov tomonidan olingan. U sug‘oriladigan tuproqlarni shakllanishida “madaniy-irrigatsion keltirilmalar” ni roli katta ekanligiga e’tiborni qaratgan. Keyinshalik 1920-1930 yillarda N.A.Dimo, 1930-1940 yillarda M.A.Orlovlar sug‘orishlar, ishlov berishlar ta’sirida yangi tuproqlarni shakllanishini o‘rganganlar va ularni alohida tuproq guruhlariga ajratishni taklif etganlar.

M.A.Orlovnинг aniqlashisha, uzoq davrlar sug‘orma dehqonshilik ta’sirida, voha tuproqlari shuqur o‘zgarishlarga ushraydi: tabiiy morfologik belgilari va xususiyatlari o‘zgaradi, yangi madaniy-voha tuproq belgilari shakllanadi, bu jarayon o‘z rivojlanish bosqishida madaniylashgan, gumusli, agroirrigatsion qatlamni to‘planib borishi bilan yakunlanadi. Shunday qilib, M.A.Orlov uzoq asrlar davom etgan sug‘orma dehqonshilik madaniyati, butunlay yangi “madaniy-voha tuproqlari”ni shakllantiradi deb e’tirof etgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishidagi muammolarni o’rganishda tahlil va sintez usulidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishiga oid qarashlarni, fikrlarni tahlil qilishda induktsiya va deduktsiya usullari keng qo’llanildi. Statistik ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash, kuzatish va kartokrafik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Qadimgi vohalarning sug‘oriladigan tuproqlari, yuqorida ta’kidlaganimizdek, dehqonlarni katta miqdordagi mahalliy o‘g‘itlarni va suv yordamida oqizib keltirilgan keltirilma jinslarini er maydonlariga solinishi hisobiga, bu tuproqlar yillar davomida yangi xossa-xususiyatlarni o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi.

Farg‘ona vodiysi adirlari respublikamiz iqqisodiyotida, xususan qishloq xo‘jaligida muhim o‘rin tutuvshi regionlardan biridir. Sug‘oriladigan ekin erlarida paxta va boshoqli don ekinlari bilan birga ko‘katlar, sabzovot, poliz, kartoshka, moyli, em-xashak va ozuqa hamda bog‘dorshilik-uzumshilik mahsulotlari etishtiriladi.

Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi adirlarining sug‘oriladigan erlarida etishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, ulardan olinishi mumkin bo‘lgan hosildorlikdan sezilarli darajada kam. Buning asosiy sababi, tuproq unumdarligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning to‘la amalga oshirilmasligi, xududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos qishloq xo‘jalik ekin turlari va navlarini to‘g‘ri joylashtirilmaslik, samarali va innovatsion agrotexnologiyalarga e’tiborning qamligidir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi adirlari xududlarida tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini ko‘tarish, binobarin qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Bunda tuproq-iqlim sharoitlarini e’tiborga olgan holda agromeliorativ, agrotexnik va agrokimyoviy shora-tadbirlar majmuini tabaqalashtirilgan holda qo‘llash va qishloq xo‘jalik ekinlarini tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Bu borada tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish maqsadida meliorativ shora-tadbirlarni amalga oshirish jumladan, erlearning sho‘rini yuvish, kapital tekislash, kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash, agrotexnik, agromeliorativ va agrokimyoviy shora-tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish, almashlab ekish tizimlarini ilmiy asoslangan holda joriy etish, organik va mineral o‘g‘itlarni ilmiy asoslangan holda qo‘llash, suv va shamol eroziyasiga qarshi shora-tadbirlarni amalga oshirish jumladan, sug‘orish me’yorlarini rejorashtirish, unumdar sug‘oriladigan erlarni qishloq xo‘jaligidan tashqari maqsadlarga ajratmaslik shoralarini ko‘rish zarur.

Xususan, Yurtboshimizning 2017 yil iyun-iyul oylarida Farg‘ona vodiysi viloyatlariga tashriflari davomida berilgan topshiriqlarda ham tuproq meliorativ holati yomon, minerallashgan grunt suvlari ko‘tarilgan, sho‘rlangan, gipslashgan, toshloqli, eroziyalangan, suv ta’minoti qiyinlashgan ya’ni unumdorligi past bo‘lgan erlarda tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirish, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini ko‘paytirish maqsadida, paxta va galla ekinlari o‘rnida serdaromad sabzavot, poliz, dukkakli, moyli, ozuqabop ekinlarni etishtirish, intensiv bog‘larni barpo etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish, bozorlarda narxlarni arzonlashtirish, fermer xo‘jaliklarini esa, bir yilda erlardan 2-3 marta foydalanib, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori daromad olish, natijada oziq-ovqat havfsizligini ta’minalash bilan birga mamalakatning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishga erishish ko‘zda tutilgan.

Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi adirlarida qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, xususan, tuproqlar unumdardigini saqlash va oshirish hamda er resurslaridan samarali foydalanish borasida vodiy viloyatlari adirlarining tuproq-iqlim sharoitlari va qishloq xo‘jaligi ekinlari talablarini hisobga olgan holda bir qator agromeliorativ, agrotexnik va agrokimyoviy shora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilmoqda.

Soha yo‘nalishlari bo‘yisha bajarilgan ishlar natijasida, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, ular unumdorligini saqlash, barqarorlashtirish bo‘yisha bir qator ijobjiy natijalarga erishilgan bo‘lsada, hozirsha intensiv dehqonshilikda foydalanilayotgan tuproqlarning xossa-hususiyatlari, ekologik-meliorativ holatini yaxshilash hamda unumdorligini saqlash va oshirish bo‘yisha o‘z eshimini qutayotgan muammolar ham mavjud.

Boymirzaev K.M. va Mirzahmedov I.K. lar o‘zlarining olib borgan tadqiqot ishlarida Farg‘ona vodiysi texnogen landshaftlaridan foydalanish va ularni rekultivatsiya qilish masalalariga to‘xtalib o‘tganlar [1]. Farg‘ona vodiysi

adirlaridagi sug‘oriladigan tuproqlarda yuzaga kelgan salbiy jarayonlarni oldini olish,; tuproq xossa-hususiyatlarini yaxshilash va tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirishda soha mutaxassislari oldida tuproqlarni sho‘rsizlantirish, suv, irrigatsiya hamda eroziyadan muhofaza qilish, agrofizik va texnologik holatini yaxshilash, tuproqlarni agrokimyoviy ta’minalash va organik moddaga boyitish, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, qishloq xo‘jalik ekinlarini to‘g‘ri joylashtirish, tuproqlarni ifloslanishdan: himoya qilish va zaharli moddalarning salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yisha ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash, amaliyot xodimlariga etkazish va joriy etish kabi birinshi galadagi vazifalar turibdi

Xulosa va takliflar

Farg‘ona vodiysi adir landshaftlarida tabiiy-antropogen tizimlarning katta qismini agrolandshaftlar tashkil qiladi. Ular tuzilishiga va xususiyatlariga ko‘ra turli-tuman bo‘lishi mumkin. Farg‘ona vodiysi adir landshaftlari agrolandshaftlarini sug‘orma dehqonshilik, lalmi dehqonshilik, yaylov va o‘tloqlar landshaftlariga bo‘lish mumkin. Shuningdek, agrolandshaftlar hududi tabiiy landshaftlar kabi agrouroshishe va agrofatsiyalarga bo‘linadi. Agrolandshaftlar tabiiy landshaftlarga nisbatan tabiiy-dinamik o‘zgarishlarga kam bardoshliligi bilan ajralib turadi. Shunki bu landshaftlarda antropogen ta’sir natijasida tirik organizmlar hayotida, suv va issiqlik rejimida, tuproq hosil bo‘lishi jarayonida, biogeokimyoviy modda almashinuvida ma’lum o‘zgarish yuz berganki, ularning hammasi ma’lum darajada qishloq xo‘jalik erlarida agrolandshaftlarda muvozanat ozgina buzilsa turli ko‘ngilsiz hodisalarning (eroziya, deflyatsiya, ikkilamshi sho‘rlanish, yaylovlarning buzilishi va boshqalar) vujudga kelishiga va rivojlanishiga olib keladi [6].

Sug‘orma dehqonshilik landshaftlari adirlardagi meridional tarmoqlangan soy havzalari yo‘nalishlari bilan tarkib topgan. Bu sug‘orma dehqonshilik maydonlari Farg‘ona vodiysi adir landshaftlarining yuqori qismlariga nisbatan pastki hududlarida yaxshi rivojlangan. Lalmikor dehqonshilik landshaftlari esa vodiy adir landshaftlarining yuqori qismlarida yaxshi rivojlangan. Yaylov landshaftlari vodiy adir landshaftlarining yuqori qismlarida va pastki qiya yonbag‘irlarining tepaliklarini egallagan.

Farg‘ona vodiysi adirlarida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanib borishi keljakda ham davom etishi tabiiy. Shunki, birinshidan, adirlar vodiyning asosiy er fondi hisoblanadi, ikkinshidan, viloyat aholisining son jihatdan o‘sib borishi sababli, ularni er ushastkalari bilangina ta’minalash emas, balki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa adirlar mintaqasiga antropogen ta’sir ko‘payib borishini bildiradi. Modomiki, Farg‘ona vodiysi adirlaridan jamiyat taraqqiyoti yo‘lida foydalanish davom etar ekan, buning ushun adir landshaftlariga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish bilan birga quyidagilarga e’tibor berish lozim [4, 5.]:

1. Buning ushun joyning yoki hududning geologik tuzilishi va paleogeografik sharoiti ham agrolandshaftlarni rivojlanishi o‘rtasidagi xususiyatlarni to‘g‘ri tushunishi lozim. Agar tuproqni ostidagi yotqiziqlarda suv o‘tkazadigan (shag‘al, qum, qumtosh va x.k.) jinslar qatlami bo‘lsa sug‘orish jarayonida er osti suvlari ko‘tarilmasligi mumkin. Agar suv o‘tkazmaydigan qatlam yuqorida joylashsa sug‘orish jarayonida er osti suvlari ko‘tarilib sho‘rlanish va botqoqlanish jarayonlarini keltirib shiqarishi mumkin.

2. Joyning paleogeografik sharoiti ham agrolandshaftlarni rivojlanishiga ijobjiy hamda salbiy ta’sir qilishi mumkin. Qadimgi geologik davrlarda tuzli qatlamlar yoki tarkibida tuz miqdori ko‘p bo‘lgan yotqiziqlar xosil bo‘lgan bo‘lsa, er osti suvlari ko‘tarilganda mazkur tuzlarni yuzaga olib shiqishi va er resurslarini sho‘rlanishiga olib kelishi mumkin. Jarlarni rivojlanishi, surilmalar, o‘pirmalar ham er resurslarini ishdan shiqishiga olib keladi.

3. Suniy omillarga erlarni tekislash, quritish, shudgor qilish, sug‘orish ishlari va inshootlari kiradi. Yer resurslarini o‘zlashtirish jarayonida botiqlar to‘ldiriladi, balandliklar pasaytiriladi, buning oqibatida joyning tabiiy relefi o‘zgaradi. Yer resurslarini quritish jarayonida ularning suv havo sharoiti keskin o‘zgaradi. Agar quritish jarayoni noto‘g‘ri olib borilgan bo‘lsa, tuproqlarning namligi kamayib qurib ketishi, shamol va suv eroziyasini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Sug‘orish jarayonida xatoliklarga yo‘l qo‘ylisa tuproqning sho‘rlanishi, botqoqlashish va eroziya jarayonlari rivojlanadi.

4. Mineral o‘g‘itlarni me’yoridan ortiq ishlatish oqibatida agrolandshaftlarda tuzlar miqdori keskin ko‘payib ketadi. Fosfor o‘g‘itlari ko‘p solinsa agrolandshaftlarda ftor ko‘p yig‘iladi, azot o‘g‘itlari ko‘p solinsa azot kislotasi tuzlari ko‘p yig‘iladi.

5. Qishloq xo‘jaligi texnikasi og‘irligining ortishi bilan tuproqning zishligi ortadi. Tuproqqa tushadigan og‘irlik miqdori 1kg/sm^2 agar og‘irlik $3-5 \text{ kg/sm}^2$ bo‘lsa xosildorlik 30-35% ga kamayadi. Mazkur jarayonlar agralandshaftlarning rivojlanishiga va morfologik tuzilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yer resurslari yoki agrolandshaftlarni tabaqlananishida hamda ularni sinflashtirishda tabiiy omillar muhim o‘rin tutadi.

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri-qishloq xo‘jalik ekinlarini tuproqlarning ekologik-meliorativ sharoitini, xossa va xususiyatlarini hamda hududlarning suv bilan ta’milanishini hisobga olib, tabaqlashtirib joylashtirishdir [3].

Qishloq xo‘jalik ekinlarni joylashtirishda ishshi kushlarining etarli ekanligi, xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi, har bir hududning tabiiy sharoitlaridan, ya’ni rel’efi va geomorfologik joylashishi, tuproq-iqlimi sharoiti, suv bilan ta’milanganligi, yuvilishi va sho‘rlanish darajasi, sizot suvlarini joylashuvi, tuproqlarni unumdorligi, sifati va meliorativ holatlariga e’tibor berish lozim.

Qishloq xo‘jalik ekinlarni joylashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi zarur:

- 1:10000 masshtabda tuzilgan qishloq xo‘jalik kartalarida ko‘rsatilgan, ma’lum bir tuproq qoplamiga hamda o‘zining sifat va miqdor ko‘rsatkishlariga ega bo‘lgan konturlar asos bo‘lib xizmat qilishi lozim.

- har bir kontur tuproqlarining unumdorlik darajasi, ularning xossa va xususiyatlari e’tiborga olinib, unta ekin turi joylashtirilishi zarur. Bunda, asosiy e’tibor har bir ekin turi ushun qo‘llaniladigan agrotexnik va agromeliorativ tadbirlarni qo‘llashning samaradorligini ta’minlashga qaratiladi.

- tayyorlangan tuproq, tuproq-bonitirovka kartalari va kartogrammalari ma’lumotlari asosida tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishni ta’minlovshi, ekinlarni parvarishlashning maqbul xossalalarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak;

- gumus va ozuqa moddalari kamaygan erlarda organik va mineral o‘g‘itlarni tabaqalashtirilgan holda, tuzilgan kartalar va kartogrammalar asosida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

- unumdorligi 40 balldan past bo‘lgan erlarga sabzavot, poliz, moyli, dukkakli, em-xashak va boshqa ekinlarni hamda bog‘ va tokzorlarni joylashtirish maqsadga muvofiqdir;

- suv bilan etarli ta’minlangan hududlarda asosan paxta va galla ekinlarni joylashtirish hamda takroriy va oraliq ekinlarni etishtirishni rejalashtirishda sug‘orish ushun suv bilan ta’minlanish limitlari etarli bo‘lishini hisobga olinishi kerak. Yer osti suvlari juda yaqin, ortiqsha namlanishga ushragan va uning natijasida «kushli va juda kushli sho‘rlangan, daryolarning qayir erlarida namsevar ekinlarni (sholi, tariq, oq jo‘hori, mosh) joylashtirish maqsadga muvofiqdir;

- unumdorligi past, og‘ir melioratsiyalanuvshi erlarda paxta va galla etish-tirish iqtisodiy jihatdan samaradorligi pastdir. Shu sababli bunday erlarda meliorant va dukkakli ekinlarni ekib tuproq unumdorligini tiklash zarur;

- qishloq xo‘jaligi ekin erlaridagi barsha tadbirlar tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishga hamda qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil olishga qaratilishi lozim.

Farg‘ona vodiysi adirlarida tuproqlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini ko‘tarish imkoniyatlari mavjud. Bunda agromeliorativ, agrotexnik va agrokimyoviy shora-tadbirlar majmuuni tabaqalashtirilgan holda qo‘llash hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro`yxati

- Боймирзаев К.М., Мирзахмедов И.К. Техноген ландшафтлардан фойдаланиш ва уларни рекультивация қилиш масалалари (Фарғона водийси мисолида) // Орол минтақаси ва қўшни ҳудудларда комплекс

- географик тадқиқотларнинг муаммо ва истиқболлари. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. -Нукус, 2018. –Б. 146-147.
2. Боймираев К.М., Мирзамахмудов О.Т., Мақсудова М.А. Изменение структуры почвенного покрова адыров Северной Ферганы под антропогенным воздействием // Университетское образование в современном обществе. Труды международной конференции. Вестник ОшГУ, серия Естествознание науки. № 4. –Ош: Былим, 2002, -С. 156–158.
3. Исмонов А.Ж., Ахмедов А.У., Қўзиев Р., Абдурахмонов Н.Ю. Фарғона водийси сугориладиган тупроқларининг хоссалари, экологик- мелиоратив ҳолати ва маҳсулдорлиги. Монография -Т., «Navro‘z» нашриёти, 2017 й. - 328 б.
4. Мирзамахмудов О.Т. Передгорные ландшафты Ферганской долины. (монография). – Германия -2021. - 80 с.
5. Мирзамахмудов О.Т. Hil landscapes of the fergana valley and prospects for their effectiye yse// TJG Thematics Journal of Geography Yol-4. Issue-12- December. 2022. -Р. 2-11.
6. Мирзамахмудов О.Т. Шимолий Фарғона адиrlари ландшафт-экологик шароитининг инсон фаолияти таъсирида ўзгариши// Ўзбекистон География жамияти ахбороти. -Тошкент, 2009. -№ 34. -Б. 29-31.
7. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием: Автореф. дисс. докт. ...биол. наук. –Т.: ИПИА, 1993. -48 с.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ATROF-MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHGA BO'LGAN YONDASHUVI

Alimjanov F.U.

University of Business and Science o'qutuvchisi

Anotatsiya. Kishilik jamiyati rivojining zamonaviy modeli insoniyatning atrof-muhitga bo'lgan salbiy antropogen ta'sirini yanada kuchaytirmoqda. Garchi bu hodisa XXI asr uchun xarakterli xususiyat kasb etayotgan bo'lsa-da, biroq, uning xavfli oqibati o'tgan asrning so'nggi choragida etarlichcha taxmin qilingan edi. Shu bois Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) jahon hamjamiyatini ekologik beqarorlikning kuchayishi to'g'risida ogohlantirgan edi. Nufuzli tashkilotning bu boradagi pozitsiyasi atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta'limni izchil yo'lga qo'yish masalalarini yorituvchi hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Tezisda shu haqida so'z yuritilgan.

Tayanch iboralar: BMT, atrof-muhit-muhit, atrof-muhit muhiti, ekolog tarbiyasi, konferensiya, rezolyutsiya, tamoil.

Анотация. Современная модель развития человеческого общества еще больше усиливает негативное антропогенное воздействие человечества на окружающую среду. Хотя это явление становится характерным для XXI века, его опасные последствия были достаточно предсказаны еще в последней четверти прошлого века. Поэтому Организация Объединенных Наций (ООН) предупредила мировое сообщество о росте экологической нестабильности. Позиция авторитетной организации по этому поводу выражена в ее документах, освещавших вопросы охраны окружающей среды и экологического образования. Об этом говорится в тезисе.

Ключевые слова: ООН, окружающая среда, охрана окружающей среды, экологическое воспитание, конференция, резолюция, принцип, критерий.

Abstract. The modern model of human society development further increases the negative anthropogenic impact of humanity on the environment. Although this phenomenon is becoming characteristic of the 21st century, its dangerous consequences were sufficiently predicted in the last quarter of the last century. Therefore, the United Nations (UN) warned the world community about the growth of environmental instability. The position of the authoritative organization on this matter is expressed in its documents covering issues of environmental protection and environmental education. This is stated in the thesis.

Key words: UN, environment, environmental protection, environmental education, conference, resolution, principle, criterion.

Kirish

Axborot olami ichida yashayotgan bugungi kun kishisi umri davomida ko‘pdan-ko‘p manbalar, dalillaru raqamlarga murojaat qilishga majbur. “Raqamlar sehri”dan insonlarni ta’sir doirasiga olishning bir usuli sifatida foydalanilishi ham shundan. Aslida, bu narsalar insonga atrofda – yurtida va dunyoda sodir bo‘layotgan voqeа, hodisa, jarayonlarni anglashi, ularning o‘zaro aloqadorligi, munosabati va mohiyatiga chuqur kirib borishi uchun kerak. Bugun oddiy ma’naviyat bilan ilg‘orlar safida bo‘lish ehtimoli past. Bu erda faqat yuksak ma’naviyatgina yordam bera oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida tashkil etilgan qator anjumanlarda ekologik barqarorlik va uni saqlash masalasi muhokama mavzusi sifatida belgilandi. Darhaqiqat, “Uch konferensiya” – Stokholm (1972 yil 5-16 iyun), Tbilisi (1977 yil 14-26 oktyabr) va Rio-de-Janeyro (1992 yil 3-14 iyun) konferentsiyalari ekologik ta’limning asoslaridan biri hisoblanadi. XXI asr ijtimoiy umumbashariy ta’lim o‘z mazmuniga ko‘ra insoniyatni global tahdiddan ogohlantirganligi muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ayni damda aholi orasida atrof muhitga bo‘lgan munosabat yomonligi tufayli tabiatimiz achinarli xolatga tushib qoldi, shuning uchun axoli ongini ekologik madaniyatga boyitish zarur ekanligi eng dolzarb muammoligini anlashimiz kerak bo‘ladi. Biz axoli ongini ekologik madaniyatga boyitib, ularni atrof muxitga bo‘lgan munosabatini yaxshila olsak, biz bu orqali kelajak avlodga mustaxkam poydevor qo‘yib, Ona tabiatni asrashga o‘zimizni katta xissamizni qo‘gan bo‘lamiz.

BMTning 1972 yilda tashkil qilingan Stokgolm konferentsiyasi [5]da atrof-muhit muhofazasiga oid 26 ta tamoyil [2] asoslangan bo’lsa, 1977 yilda bo‘lib o’tgan Tbilisi anjumani [1, – s. 206]da ekologik beqarorlik kuchayotgan sharoitda milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda ekologik ta’lim samaradorligini aniqlash va baholashga xizmat qiladigan ustuvor 10 ta mezon [6] tavsiya qilindi. 1992 yilda uyushtirilgan Rio-de-Janeyro konferentsiyasi [4]da esa jamiyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, madaniy rivojlanishi bilan bog’liq holda ro’y berayotgan o‘zgarishlar, ularning atrof-muhitning ekologik barqarorligiga ko’rsatayotgan salbiy ta’sirlarini inobatga olgan holda 27 ta tamoyildan iborat rezolyutsiya [3, – s. 1-7] qabul qilindi.

Tahlil va natijalar

Darhaqiqat, ekologik muammolar kutilgan darajada insoniyat qachonki, o‘zi va tabiat o‘rtasidagi bir-birini taqozo etuvchi o‘zaro munosabatni sidqidildan tushuna olgandan keyingina hal qilinishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, ekologik

ta’lim o’quvchi va talabalarda atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosatni qaror toptira olishi kerak. Shu narsani yodda tutish joizki, agarda ekologik xavfga keragidan ortiq e’tibor qaratilsa, u holda talabalarda yashashga bo’lgan ishtiyoq so’nishi, hayotga bo’lgan intilish pasayishi mumkin. Bu esa ta’limning tegishli yo’nalishida ekologik bilimlarni targ’ib qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni bir me’yorda tashkil etish zarurligini anglatadi. Ayni o’rinda Rio-de-Janeyro konferentsiyasi misolida BMTning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish va shaxsning bu jarayondagi ishtiroki xususidagi eng muhim tamoyillariga to’xtolib o’tiladi: ekologik masalalar tegishli darajalarda barcha manfaatdor fuqarolarning ishtirokida bir qadar samarali shakllarda hal qilinadi; milliy darajada har bir shaxs davlat organlari tasarrufida bo’lgan xavfli materiallar va ularning jamiyat faoliyatidagi o’rni, atrof-muhit muhofazasiga, shuningdek, ularni bartaraf qilishga oid ega tegishli axborotni olish huquqiga ega (10-tamoyil); barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlikka erishish uchun global hamkorlikni shakllantirish va barcha uchun yaxshi kelajakni ta’minalash maqsadida yoshlarning ijodiy kuchi, ideallari va jasoratini mobillashtirish (maqsadli foydalanish) talab qilinadi (21 tamoyil); dunyo, taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi o’zaro bir-biriga bog’liq hamda ajralmasdir (25-tamoyil).

BMTning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilishga doir rezolyutsiya (hujjat)larida tegishli masalani ijobiy hal qilishda davlatning o’rni va roli katta ekani alohida qayd etib o’tiladi. Chunonchi, Rio-de-Janeyro konferentsiyasida qabul qilingan 27 ta tamoyilning 13 tasi bevosita davlatning atrof-muhit muhofazasini ta’minalashdagi majburiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ayni o’rinda ularning ayrimlari namuna sifatida keltiriladi: Yer shari ekotizimini saqlash, muhofaza qilish, shuningdek, sog’lom holati va bir butunligini qayta tiklash maqsadida davlat global hamkorlik ruhidagi faoliyatni tashkil qiladi; o’zining atrof-muhit global holatini yomonlashuvida ahamiyatli bo’lgan turli shakldagi rolining oqibati uchun umumiy, biroq, turlicha mohiyatga ega bo’lgan javobgarlikni zimmasiga oladi; rivojlangan mamlakatlar o’zлari ega bo’lgan texnologik va moliyaviy resurslarni yo’naltirgan holda global atrof-muhit muhofazasini ta’milovchi birlashmalarni tuzish orqali mavjud xavfni inobatga olgan holda barqaror rivojlanishni ta’minalash bo’yicha xalqaro miqyosdagi mas’uliyatini e’tirof qilishi zarur (7-tamoyil); davlat barcha kishilar uchun barqaror rivojlanish hamda etarlicha sifatlari hayotni ta’minalash uchun ishlab chiqarish hamda iste’molning salbiy modellarini cheklashi va tugatishi, shuningdek, demografik siyosatga muvofiq rag’batlantirishi zarur (8-tamoyil); davlat aholining atrof-muhit muhofazasidagi ishtirokini ularga keng ko’llamdagisi axborotlarni taqdim qilish va bu yo’ldagi amaliy harakatni qo’llab-quvvatlaydi va rivojlaniradi; tavon to’lash hamda sud muhofazasi vositalarini tatbiq qilgan holda sud ishi va ma’muriy chorallardan foydalanish imkoniyatini yaratadi (10-tamoyil); davlat atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali qonunchilik hujjatlarini qabul qiladi; mazkur

hujjatlarda ekologik standartlar, tartibga solish maqsadlari va tamoyillari ekologik barqarorlik va taraqqiyot shart-sharoitlarini aks ettiradi (11-tamoyil) va boshqalar.

Qayd etilgan BMT konferentsiyalari bo'yicha qabul qilingan hujjatlarda shaxs va davlatning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha pozitsiyalari yorqin va tushunarli bayon qilingan bo'lishiga qaramay, ularning samaradorligi belgilangan tamoyillarning amaliyatga to'laqonli tatbiqi bilan belgilanadi. Bu esa har bir shaxs va davlatdan mazkur tamoyillarga mas'uliyat bilan yondashishni taqozo qiladi.

YuNESKOning tavsiyasiga ko'ra ekologik ta'lim tegishli bilim, malaka, munosabat, motivatsiyalarga ega shaxsning ekologik mas'uliyatini rivojlantirish, shuningdek, unda ham individual ham jamoaviy shaklda zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish, sohada yuzaga keladigan yangi muammolarning oldini olish qobiliyatini tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi va eng muhimi "kitobni o'qishgina qolmay, tabiatni yaqindan o'rghanish" g'oyasiga asoslanishi zarur [7, – p. 33].

Demak, tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan atrof-muhit muhofazasi masalasi BMT anjumanlarining kun tartibidan o'rin olgan. Nufuzli tashkil tomonidan o'tkazilgan Stokgolm (1972 yil), Tbilisi (1977 yil) va Rio-de-Janeyro (1992 yil) anjumanlarida xalqaro miqyosda shaxs va davlatning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilishdagi pozitsiyasini belgilash bilan birga samarali ekologik ta'limning ustuvor jihatlari ham aniqlangan. Unga ko'ra ta'lim oluvchilarning atrof-muhitga ongli, mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda o'qitishning amaliy xarakterga ega bo'lishi muhim sanaladi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, ekologik barqarorlikni ta'minlash globallashuv sharoitida insoniyat oldida turgan eng muhim va tezkor hal qilinishi zarur bo'lgan muammodir. Yer sharidagi jamiyatlarning ilmiy-texnik, texnologik va potentsial imkoniyatlarni yagona maqsadga yo'naltirish mazkur muammoni tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Buning uchun aholi ongi ekologik madaniyatga boy bo'lmos'hishga zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abdrazimov V.Z., Abdrazimov D.V. Ekologicheskoe obrazovanie molodeжи // J. Vestnik Prikamskogo sotsialnogo instituta. – Permь: 2021. - № 2 (89). – S. 206.
2. Deklaratsiya Konferentsii Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po problemam okrujajushey cheloveka sredi / Prinyata Konferentsiey Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po problemam okrujajuşçey cheloveka sredi, Stokgolm, 1972 god.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml.

3. Doklad Konferentsii Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po okrujayushey srede i razvitiyu / Rio-de-Janeyro, 3-14 iyunya 1992 goda. Rezolyutsii, prinyatye na Konferentsii. – Nyu York: OON, 1993. – Tom 1. – S. 1-7.
4. Konferentsiya OON po okrujayushey srede i razvitiyu, Rio-de-Janeyro, Braziliya, 3–14 iyunya 1992 goda
<https://www.un.org/ru/conferences/environment/rio1992>.
5. Konferentsiya OON po problemam okrujayushcheu cheloveka sredi, 5–16 iyunya 1972 goda, Stokholm, Shvetsiya
<https://www.un.org/ru/conferences/environment/stockholm1972>.
6. Mejdunarodnye deklaratsii i soglasheniya po voprosu ekologicheskogo obrazovaniya
<https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n11/351/91/pdf/n1135191>.
7. Knapp Doug. The Thessaloniki Declaration: A Wake-Up Call for Environmental Education? // The Journal of Environmental Education. – London: 2010. Volume 31. Issue 3. – p. 33.



13.00.00
19.00.00

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SCIENCES

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING
PEDAGOGIK TOLERANTLIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH MODELI

Narzullayev D.Sh.
University of Business and Science dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida pedagogik tolerantlik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tayanch iboralar: pedagogik tolerantlik, pedagogik-psixologik xususiyat, mexanizm, impulsivlik, kasbiy kompetentsiya, Ijtimoiy moslashuv, Reproduksiya, Diskursivlik mexanizmi.

Аннотация. В статье разработана и внедрена на практике модель развития педагогической толерантной компетентности у будущих учителей физического воспитания.

Ключевые слова: педагогическая толерантность, педагогико-психологическая особенность, механизм, импульсивность, профессиональная компетентность, социальная адаптация, воспроизведение, дискурсивный механизм.

Abstract. In the article, a model of pedagogical tolerance competence development in future physical education teachers was developed and put into practice.

Key words: pedagogical tolerance, pedagogical-psychological feature, mechanism, impulsivity, professional competence, social adaptation, reproduction, discursive mechanism.

Kirish

Zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining muhim shartlaridan biri o‘zga din va begona madaniyat vakili bilan turli sabablarga ko‘ra muloqot o‘rnatganda begona etnos vakilining tashqi qiyofasi va ko‘rinishiga qarab kamsitmay, rang-ro‘yidan kamchilik axtarmay, uning kelib chiqishi va nasli nasabidan qat’i nazar

unga birdek hurmatda bo‘lish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mexanizmlarini ichlab chiqish, ularning pedagogik tolerantlik mezonlari, me’yorlari va tamoyillarini aniqlash, bu muammoga axloqiy-insonparvar tarbiya tamoyillari bilan shaxs faoliyatiga yo’naltitrilgan yondashuv asosida ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish obyektiv zaruriyat bo’lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatimizda tolerantlikning ilmiy-pedagogik jihatlari va pedagogik jarayonda talabalarda millatlararo tolerantlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar G. , Z.Asimova, O.Musurmonova singari pedagog olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari pedagog va psixolog olimlaridan A.G.Asmolov, R.R.Valitova, A.A.Guseynov, O.B.Nurligayanova, N.E.Bogdanov, G.U.Soldatova, L.M.Bratchenkolarning tadqiqotlari bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning yaxlit-mazmunli, ijtimoiy-madaniy, o'quv-bilish, axborot olish, kommunikativ, qadriyatli-etnik, integrativ, moslashuvchanlik jihatlari va talabalarda umumiyl tolerantlikni shakllantirish muammolariga bag'ishlangan. Xorij olimlaridan G. Auernheimer, H Barkowski, M. Bennet, R.Carbines, D.John, A.Sana, B.Soraya, G.Hofstede kabilar tomonidan millatlararo va madaniyatlararo muloqot va mentallik, kommunikativ tolerantlik, totuvlik jarayonining ilmiy-pedagogik jihatlari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada pedagogik-kuzatuv, sotsiometriya (suhbat, anketa, so'rovnoma), umumlashtirish, modellashtirish va ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish samaradorligini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari aniqlashtirilgan;


talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning o'quv-metodik ta'minoti “Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari” nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishga doir mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga doir takliflar asosida “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” fanining o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik-psixologik bilimlar asosiga qurilmog'i kerak. Tolerantlik namoyon bo'lishining bir jihat o'qituvchining jamiyatda o'zini tutishi va o'z fikrini boshqalarga to'g'ri etkazishi, tashqi salbiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati bilan bog'liq. Chidamlilik, o'z histuyg'ularini nazorat qilish, o'z hatti-harakatlarini ongli ravishda belgilangan maqsadga bo'ysundirish, keraksiz bo'lgan g'azab, his-tuyg'ular va fikrlarni bostirish qobiliyati ham shular jumlasidandir. Qarama-qarshi sifat – *impulsivlik* (lotincha "impuls" – turtki) o'ylamasdan, shoshilinch ravishda hulosa chiqarish. O'z-o'zini nazorat qilish – bu qiyin va kutilmagan vaziyatlarda adashib qolmaslik, oqilona munosabatda bo'lish. Agar o'qituvchining hissiyotlari g'azab, qayg'u yoki quvonch sababidan ularning tashqi ko'rinishlariga – yuz ifodalari, ko'z yoshlari yoki kulgi va boshqalarga o'tsa, hissiy stress susayishi mumkin.

Sport chegara bilmaydi, shuning uchun turli til, madaniyat va dinga mansub insonlarni birlashtirish bilan birga ularda diniy bag'rikenglikni paydo qilishi va insonlarni murosaga kelishi, turli nizolarni bartaraf etishda yordam singari xususiyatlarga ega. Sportning etnik tolerantlikni rivojiga xizmat qilayotganining yana bir isboti – bir mamlakatning turli millat vakillaridan tashkil topgan sportchilari jahon miqyosida o'z vatani, o'z xalqi, o'z yurti nomini dunyoga tanitish, mavqeini yuksaklarga ko'tarishga intilishidir. Mashhur sportchilar va sport jamoalarining xizmatlari, qo'lga kiritgan yutuqlari nafaqat o'z mamlakati va mintaqasi hayotida muhim voqeа bo'lib qolmay, shu bilan bir vaqtida ular ma'lum darajada xalqlar va etnik guruhlar taqdiridagi taniqli sahxs sifatida tolerantlikni rivojlantiruvchi vazifasini ham bajaradilar. Bunday sportchilar butun umri davomida o'z xalqining milliy g'ururi, yosh avlodlar, muxlislarining qahramonlari timsoliga aylanadilar. Shu bois bo'lajak sportchilarni tarbiyalovchi jismoniy tarbiya o'qituvchilari quyidagi ko'nikmalarni egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi: o'quvchilar (bo'lajak sportchilar)ning irqi, millati, elati, madaniyati va dini turli-tuman, rang-barang va o'ziga xosligini *hurmat qilish*; "begona" madaniyat vakillarining o'ziga xos milliy qadriyatlari tizimi, urf-odati va mentaliteti mavjudligini *tan olish, tushunish*, bu holatning tabiiyligini *anglash*; o'quvchilar (bo'lajak sportchilar)ning irqi, millati, elati, madaniyati va dinidan qat'iy nazar, boshqalarga nisbatan farqli tomonlari mavjudligini *qabul qilish* va ularga *ijobiy munosabatda bo'lish*; sport musobalarida raqibning emotSIONAL-hissiy jihatlarini baxolashda umumbashariy gumanitar mezonlarga tayanish, ularning ichki dunyosini, ular qadrlagan his-tuyg'ularni *baholashga urinish*; musobaqa jarayonlarida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarda nizolarni tolerantlik talablari asosida hal qilishga doir zarur bilim va malakalarni egallash.



1-rasm. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish tuzilmasi

Mazkur tuzilmada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni takomillashtirish mazmuni tayanch *kasbiy kompetentsiyalar* (ma'naviy-axloqiy), *kasbiy shaxsiy sifatlar* (moslashuvchanlik, emotsiyal barqarorlik, vatanparvarlik), *jismoniy-kasbiy*, shuningdek, *kreativlik* darajasini o'zida aks ettiruvchi sohaga oid integral kasbiy-pedagogik ko'nikmalarning o'zaro aloqadorligida takomillashib borishi tavsiflandi. Talabalarning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi uning ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minladi. "*Ijtimoiy moslashuv*" deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushunildi.

Bu jarayon jismoniy tarbiya o'qituvchisining kommunikativ-pedagogik tolerantlikka oid bilimlarni o'zlashtirganligi, uning pedagogik muloqot usullarini egallaganligi bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik muloqot sohasidagi professionallik, eng avvalo, psixologik bilimlarga asoslanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi psixologik bilimlarni puxta o'zlashtirgan bo'lsa: ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining haqiqiy psixologik holatini tushunishi; muloqotdagi turli psixologik to'siqlarni bartaraf etishi; o'zi istagan fikrni boshqalarga to'g'ri etkaza olishi va boshqalar undan nimani xohlashini anglab etishi mumkin. Agarda, u psixologik bilimlarni egallamagn bo'lsa, o'quvchilarni tushunmaslik hodisasi paydo bo'ladi. Bu uning pedagogik qobiliyatining nomukammalligini ko'rsatadi.

Tolerantlik ham madaniyatlararo hamkorlikning bir turi hisoblanib, bir tomonidan muloqot bilan bog'liqligi bois psixologik xususiyat kasb etsa ikkinchi tomonidan, madaniyatlararo muloqot jarayonini ro'yobga chiqishida rivojlanib boradi.

Tolerantlik deganda, tor ma'noda, dinlar rang-barangligini inkor etmaslik, dinlararo bag'rikenglik tushuniladi. Ayni paytda, tolerantlik keng ma'noda

faqatgina dinlararo munosabatlarga tegishli emas, balki butun dunyo xalqlari, mavjud barcha millatlar va elatlarning hozirgi zamondagi o‘zaro hurmati, bag‘rikenglik, bir-birinn inkor etmaslik, ularning mavjud turli-tuman turmush tarzlariga tegishli tushuncha ekanligini anglash darkor bo‘ladi.

1-jadval

Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish modeli

MAQSADLI BLOK				
Ijtimoiy buyurtma	Malaka tasnifi	Malaka talablari		
Maqsad:	Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish			
Vazifalar: ta’lim muhitidagi ziddiyatli muammolarni hal qilish uchun pedagogik tolerantlik haqidagi bilimlarni o’zlashtirish; pedagogik tolerantlik fazilatlarini shakllantirish; amaliy faoliyat tajribasi				
O’QUV MATERIALLARIGA DOIR BLOK				
O’quv fanlari	“Jismoniy tarbiya nazariyasi” ixtisoslik fani asosida pedagogik tolerantlik komponentlarining o’ziga xosliklarini tushunish va unga erishish maqsadida talabalarning ommaviy, guruhiy hamda individual o’quv faoliyatini uyg’un tarzda tashkil etish.			
KONTSEPTUAL BLOK				
Yondashuvlar	Tamoyillar			
Kompetentsiyaviy; shaxsga yo’naltirilgan; Integratsiya; Tizimli-faoliyatli	Moslashuvchanlik; Amaliyat bilan bog’liqlik; Tabiiylikka asoslanish; Tizimli			
Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mazmuni				
<ul style="list-style-type: none"> – bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish aspektlari; – talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik printsiplari; – talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mezonlari; – talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish shart-sharoitlari; – talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishga innovation yondashuv 				
Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish bosqichlari				
Motivatsion-qadriyatga yo’naltirilganlik: milliy madaniyat va boshqa xalqlar madaniyatining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganishga qiziqishni shallantirish, ular o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarni tushunish, tan olish.				
Kognitiv-kreativ komponent: pedagogik jarayonda milliy madaniyat va “begona” madaniyatning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganishga bo’lgan qiziqishni qondirish.				
Faoliyatli komponent: tolerantlikka doir o’zlashtirilgan bilim va tajribani ta’lim-tarbiya jarayoniga amaliy joroy etish.				
TASHKILIY-FAOLIYATGA DOIR BLOK				
Strategiya	xalqaro talim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalarni amaliyatga tatbiq etish, pedagog kadrlarning kasb mahorati, sifati va saviyasini davr talabiga mos yuksaltirish			
Ta’lim jarayonini tashkil etish shakli	Auditoriya (ma’ruza)da, amaliy mashg’ulatlarida va mustaqil ta’lim ishlarida			
Ta’lim texnologiyalari	O’yinli, muammoli, hamkorlikda o’qitish, tanqidiy fikrlash texnologiyasi.			
Ta’lim metodlari	Produktiv, muammoli-izlanishli, kreativ			

Ta’lim indikatorlari	Boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishtirish, ularning turmush tarzi, dunyoqarashi xaqidagi tasavvurlarini boyitish.				
Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish shart-sharoitlari					
– Pedagogik tolerantlikka doir bilim, ko’nkma va malakalarni (BKM) nazariy rivojlantirish;					
– Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish indikatorlarini aniqlash;					
– Auditoriya (ma’ruza)da, amaliy mashg’ulatlarda va mustaqil ta’lim ishlarida talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishda madaniyatlar dialogi jarayonida vujudga keladigan turli to’siq, tushunmovchilik va nizolarni bartaraf etishga qaratilgan muammoli vaziyatlarni tashkil etish.					
NATIJAVA-Y-BAXOLASHGA DOIR BLOK					
Rivojlantirishni baholash mezonlari					
Motivatsion-qadriyatga yo’naltirilganlik	Kognitiv-kreativ	Faoliyatli-integrativ	Yuqori	O’rta	Quyi
Kutilayotgan natija: Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida pedagogik tolerantlik komponentlarini to‘liq qaror toptirish va amaliyotga tatbiq etish					

Tolerantlik – ko’proq psixologik xususiyat kasb etib, bir tomondan madaniyatlararo muloqot jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok eta olishga amaliy tayyorlab borish bo’lsa, ikkinchi tomondan muloqot maqsadini ro‘yobga chiqarishning psixofiziologik mexanizmlari bilan bog‘liq (Yu.A. Ishenko). “Mexanizm” texnikaga oid atama bo’lib, uning ma’nosи qo’llanilishi sohasiga qarab o’zgaradi. “Mexanizm” atamasi pedagogika sohasida “hodisalarning harakatdaligini ifodalash, shaxsning ma’lum bir qobiliyati yoki sifatini shakllantirishning o’zaro bog‘liq tizimi va jarayonlarini tavsiflash uchun faol qo’llanadi”. Bizning fikrimizcha, voqelikning har bir murakkab hodisasi singari, mexanizm ham statik, ham dinamik xususiyatlarga ega bo’llib, ular bирgalikda operatsiyalar, harakatlar, murakkab o’ziga xos funksionallik va ko’p o’lchovli jarayonlar majmuasini ifodalaydi.

Madaniyatlararo muloqtni ro‘yobga chiqarish uchun bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida quyidagi psixofiziologik mexanizmlar shakllantiriladi:

1. Reproduksiya mexanizmi. Jismoniy tarbiya o’qituvchilarida dars va mashg’ulotlar jarayonida ishlataligida nutqning ba’zi elementlari tayyor holda qo’llansa, ayrimlari yangidan yaratiladi. Aksariyat hollarda o’qituvchi-murabbiylar nutqida til hodisalarining takrorlanadigan (rekurrent) va tasodifiy (okkazional) ko’rinishlari qo’llanishi kuzatiladi. Agar o’qituvchi pedagogik muloqotni yaxshi o’zlashtirgan bo’lsa, takrorlanadigan hodisalarni kamroq qo’llaydi, bo’sh o’zlashtirgan o’qituvchilar esa til hodisasining bu turidan ko’proq foydalanadi.

O’z navbatida reproduksiya mexanizmining to‘liq reproduksiya (tayyor jumlalarni o’zgarishsiz ishlatalish, mazmunni saqlab qolish); qisman reproduksiya (mazmunni bayon etish); reproduksiya-transformatsiya (mazmunni yangi jumlalarda ifodalash)dan tashkil topadi.

2. Tanlov mexanizmi yordamida sport sohasida qo’llanidagan so‘zlar va darsda va mashg’ulotlarda ishlataligida nutq namunalarini tanlab olinadi. So‘zlarni tanlab aytish jarayonida, fikran bog‘lanish shakllanganligiga qarab, ular

xotirada tez yoki sekin tiklanadi (N.I.Jinkin). Nutq namunasini xotirada qayta tiklashda uning nutq vaziyatdagi vazifasi va muloqotdan ko‘zlangan maqsadga qarab assotsiatsiyaga kirishishi turtki bo‘ladi (E.P.Shubin).

3. Birlashtirish mexanizmi. O‘quvchi o‘z fikrini bayon etishida so‘zlar va gaplarni biriktirishga harakat qiladi (Yu.A.Kudryashov). Birlashtirish mexanizm birligi sifatida so‘z, sintagma va frazalar e’tirof etiladi. Nutq jarayonidagi avtomatik to‘xtalishlar sintagma asosida vujudga kelib, nutq birligi vazifasini bajaradi. Shu bois gapirishda sintagmalar ko‘p qo‘llaniladi. So‘z birikmalarini o‘rgatish jiddiy qiyinchiliklarni paydo etishi sabab, maxsus yondashuvni talab etadi. Birlashtirish mashqlari nutqiy yo‘nalganligi bilan xarakterlidir.

4. Tuzish mexanizmida jismoniy tarbiya o‘qituvchining qoidaga suyanmay nutqiy faoliyati yuritishi nazarda tutiladi. Ular lingvistik nazariyani qo‘llamagan holda matn, ya’ni nutqiy mahsulotni tuzishi tilni his etishidan dalolat beradi.

5. Oldindan sezish mexanizmi yordamida dars yoki musobaqadan oldin fikr yuritishni oldindan rejalashtirish va uning natijasini oldindan mo‘ljallash, nutqning psixologik ta’sirini oldindan sezish malakalari shallantiriladi. Muloqot jarayonida nimani gapirishni oldindan o‘ylab olish, uni davom ettirishga tayyor turish natijasida ravon gapirishga erishiladi. Ushbu mexanizmga doir maxsus mashqlarni bajarish, muloqot davomida jumlalar orasida uzoq to‘xtab qolishni bartaraf etadi.

6. Diskursivlik mexanizmi mantiqiy fikrlashga asoslangan bo‘lib, o‘quvchiga undan foydalanishni o‘rgatish: (a) ongli tarzda nutqiy vaziyatni tasavvur qilish (gapirish strategiyasi); (b) suhbатdosh fikrini to‘g‘ri idrok etish, uning noverbal xatti-harakatlarini ilg‘ab olish; (v) unga munosib javob qaytarish malakalarini shakllantiradi. Bu jarayonda gapirish vaziyati va mohiyatiga oid bilimlardan foydalanadi.

Olim E. Berar xalqlarni birlashtirish, ular o‘rtasidagi ziddiyat va nizolarni sport yordamida bartaraf etish maqsadida turli tajribalarni o‘tkazadi. Olim o‘z tadqiqotlarini 1995 yilda Xorvatiyadagi qochoqlar lagerida ishlayotgan paytida boshlaydi. Bu lagerda Bosniyadan kelgan xorvat qochoqlari, lo'lilar va bosniyalik musulmonlar, jami bo‘lib 700 ga yaqin odam joylashgan bo‘lib, ularning ba'zilari lagerda bir necha yil yashardilar. Bu erdagи bolalarning ko‘philigini otasi yoki onasi ba'zilarining esa ikkalasi ham yo‘q bolalar tashkil etardi. E. Berar integratsiya maqsadlarida sportdan foydalanishni ma’qul topadi.

Turli millat va madaniyat vakillarining muloqot o‘rnatishlari murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Shu bois ham ruhshunoslar madaniyatlararo muloqotdan kutiladigan natija, ya’ni tushunish va unga turli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, muomala jarayonida qo‘llaniladigan muloqot vositalari turlari bilan qiziqib keladilar va madaniyatlararo muloqot jarayonida sodir bo‘ladigan turli tushunmovchilik va to‘siqlarni keltirib chiqaradigan mexanizmlarni o‘rganadilar.

Talabalarning pedagogik muloqotga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, ularning tafakkuri, xotirasini rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liqdir.

Inson hayotida to‘plangan tajribaning in’ikosi, joylashishi va saqlanishi psixik jarayon sifatida xotira nomi bilan ataladi. Xotirada saqlashning teskari hodisasi – esdan chiqarish yoki xotiradan ko‘tarilish deyiladi. Shu bois xotirani – ong aks ettirgan narsalarni saqlab qolish va keyinchalik qayta tiklashdan tashkil topgan aqliy faoliyat deyish mumkin.

Esda olib qolish jarayoni, eng birinchi galda, miya po‘stida idrok qilinayotgan narsalarning, buyum, so‘z, fikr, suratlarning “izlari” paydo bo‘lishidan va esda olib qolning materiallarning ayrim qismlari orasidagi bog‘lanishning hosil bo‘lishidan tashkil topadi. Demak, xotirada atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, faoliyatning maqsadiga qarab ixtiyoriy, ixtiyorsiz va mexanik holda, aktiv va passiv ravishda, reproduktiv va produktiv tarzda, faoliyat qo‘zg‘atuvchisining sifatiga ko‘ra verbal va noverbal shaklda, faoliyatning faolligiga ko‘ra mantiqiy yo‘l bilan esda olib qolish mumkin. Verbal xotira so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa turlari (ko‘rvu, eshitish, harakat) unga qo‘shilgandagina chet til o‘rganishda samaradorlikka erishiladi.

Pedagogik muloqot jarayonida axborot uzatiladi, qabul qilinadi, jo‘natiladi, olinadi. Axborot uzatish – faoliyat, falsafa tili bilan ifodalanganda, – sababiyat, axborot qabul qilish – oqibat.

Bu erda qo‘llangan uzatiladi, qabul qilinadi, jo‘natiladi, olinadi atamalari keng mazmunga ega bo‘lganligi bois ilmiy adabiyotlarda ularni transmissiya (axborot uzatish), retsepsiya (axborot qabul qilish) kabi maxsus atamalari bilan almashtiriladi.

Tolerant munosabat kishilarning o‘zaro hurmatidan boshlanadi va muloqot jarayonida milliy va diniy mansubligidan qatiy nazar o‘zaro hurmat munosabatda amal qilinadigan shaxsning ijobiy fazilatlari sifatida qabul qilinadi. O‘zaro hurmat sharoitida diniy va milliy fazilatlar (madaniyatlar)ning insonparvarligi, odamoxunligi yaqqol namoyon bo‘lishiga turtki beradi, javoban yanada hurmatga sazovor bo‘ladi.

Kommunikantlar o‘z fikr, xissiyot, xatti-harakatlarini to‘g‘ri, aniq va tushunarli ifodalashda, etkazishda, uzatuvchi va qabul qiluvchining bilimlaridan tashqari ushbu jarayonga ta’sir etuvchi psixologik omillar mavjud bo‘lib, uning asosan uch vositasi farqlanadi: (a) so‘z ishtirokidagi (verbal) ta’sir; (b) so‘z ishtirokisiz (noverbal) ta’sir; (v) paralingvistik ta’sir.

Muloqotning verbal ta’siri – bu so‘z yordamida, nutq orqali ko‘rsatila-digan munosabatdir.

So‘z ishtirokisiz (noverbal) muloqot deganda – hech bir so‘z qatnashmay, turli imo-ishoralar yordamida sodir bo‘ladigan muloqot tushuniladi. Bunday muloqotning asosini mimikalar tashkil etadi.

So‘z ishtirokisiz muloqot vositalarini: paralingvistik vositalar (pauza, nafas olish va chiqarish, intonatsiya, ovozning baland-pastligi, melodiya); ekstralinguistik vositalar (kulish, yig‘lash, shovqinlar); kinetik vositalar (harakat, ishora, ko‘z qarash) va proksematik vositalar (bo‘sashgan, tek o‘tirmaslik) kabilarga bo‘lish mumkin. Bu vositalar so‘zlarni to‘ldirish ba’zan kuchaytirish uchun ishladiladi.

Nutqiy muloqotni imo-ishoralarsiz (paralingvistik vositalarsiz) tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, turli madaniyatga mansub kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan muloqotda, so‘zlar yordamida fikrni etkazishda yordamchi vazifasini bajaruvchi qo‘l harakati va mimikalarning to‘g‘ri qo‘llanishi katta ma’no kasb etadi. Bu jarayonda axborotning ko‘p qismi imo-ishoralar orqali etkaziladi.

Muomala odobini o‘rgatishga bag‘ishlangan juftnutqning kommunikativ vazifasi quyidagi mashqlarda bajariladi: a) murojaat qilish, axborot etkazish/olish; b) salomlashish va salomga javob qaytarish; v) o‘zini tanitish va do‘stlarini tanishtirish; g) tinglagan va o‘qiganlariga munosabat bildirish; d) tabriklash, o‘ytiklar bildirish; e) xushmuomalalik bilan so‘rash/javob berish, tasdiqlash/inkor etish; yo) maslahat berish/maslahat olish; j) o‘z fikrini erkin ifodalay olish.

Insonlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan va sehrli «kommunikatsiya» so‘zi murakkab jarayonni anglatadi. Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida turli madaniyat va denga mansub sheriklarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari, bir zaminda yashashlari, o‘zaro fikrlari, tasavvurlari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashish, almashish jarayoni, hamda ular o‘rtasidagi ijobjiy munosabatni o‘rganish, ya’ni kommunikantlar o‘rtasidagi bir-biriga nisbatan odatiy bo‘lmagan g‘ayritabiylilik (begonalik)ni yo‘qotish muammolari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Tolerantlik ham madaniyatlararo hamkorlikning biri turi hisoblanib, bir tomonidan muloqot bilan bog‘liqligi bios psixologik xususiyat kasb etsa ikkinchi tomonidan, madaniyatlararo muloqot jarayonini ruyobga chiqishida rivojlanib boradi.

Kommunikantlar muloqot jarayonida yoshlari va jinslariga mos, xos bo‘lmagan so‘zlarni ishlatsalar bir-birlarining asablarini buzishi, kayfiyatlarini tushurib yuborishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, suhbatdoshning nutq madaniyati va muomala etiketlari bilan tanish bo‘lish, bunday salbiy oqibatlarni keltirib chiqishini oldini oladi.

Identifikatsiya – empatiyaning muvoffaqiyatlari o‘tishiga yana bir misol bo‘la oladi. Bu degani boshqalarning qayg‘usiga sherik bo‘lish, o‘zini hamsuhbatining o‘rniga qo‘yib ko‘rishdir.

Identiklik (**lotincha identus – aynanlik, mansublik, o‘xshashlik**) ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘lib, muayyan yaxlik strukturaga daxldorlik hissi bilan bog‘liq holda, inson tomonidan o‘zining ana shu strukturani bir qismi ekanligi va uning tarkibida muayyan aniq o‘ringa ega ekanligini anglashni bildiradi. Identiklik – shaxs tomonidan o‘zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu

sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi. Identiklik insonda «men kimman», «mening boshqalardan farqim nima» degan savollar asosida vujudga keladi va bunda inson o‘zlikni anglash jaraenidagi murakkab yo‘lni bosib o‘tadi.

Identiklik kishiga o‘z ehtiyojlarini qondirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. «Identiklik – bu rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi va muayyan yaxlit strukturaga mansublik hissini tuyish, shuningdek, shaxsning aynan ushbu strukturaga tegishli ekanligi va uning tarkibida muayyan aniq ijtimoiy guruhning bir qismi ekanligini anglashni bildiradi. Identiklik vositasida inson o‘zi mansub bo‘lgan ijtimoiy makondagi sotsiomadaniy ehtiyojlarini qondiradi va u orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topadi». Shunday bo‘lsada, ayrim holatlarda identiklik milliy ruh, xarakter va o‘zlikni anglash omillari bilan e’tirof qilinadi.

Jamiyatda etakchi va ustun hisoblangan sotsiomadaniy identifikatsiya odatda, nafaqat shaxsni, balki sotsiumda istiqomat qilayotgan avlodlarning ham o‘zini har tomonlama ijobiy baholashi yoki sotsial muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq mutanosibliklarni aks ettiradi. U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy strukturadagi o‘rni sotsiomadaniy kontekstning o‘zgarishi ta’sirida almashishi mumkin. Masalan, har bir davrning boshqaruv apparatidagi o‘zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikatsiyani paydo qilishi mumkin.

Shakliga ko‘ra etnik mansublik ijobiy mazmun bilan boyitilgan «tolerantlik» (bag‘ikenglik, chidamlilik) ko‘magida turli etnoslarning o‘zaro muloqot hissini «ijobiylilik» asosida shakllantiradi. Ijobiy (pozitiv) identiklik ko‘pchilik odamlarga xos bo‘lib, u kishida o‘zi mansub bo‘lgan va boshqa etnik guruhlarga nisbatan tolerantlik muvozanatini namoyon etadi. Uni bir tomondan, etnik guruhning mustaqil va barqaror hayot kechirishini ta’minlovchi shart sifatida, ikkinchi tomondan, polietnik dunyoda osoyishta madaniyatlararo muloqotning shakli sifatida baholash mumkin.

Inson identikligi qandayligiga qarab, uning xatti-harakatlarini qabul qiladigan yoki inkor etadigan qadriyat va normalar, qiziqish va tamoyillari, stereotiplar va amal qiladigan yo‘riqlarini prognozlash mumkin. Ijtimoiy identiklik o‘zida ijtimoiy guruhga mansubligini anglashga qaratilar ekan, unda mazkur guruhda ahamiyatli bo‘lgan qadriyat va yo‘riqnomalar, shakllantirilgan stereotiplarning jamiyat uchun qabul qilingan mavjud me’yorlari yashovchanligi oshadi. Taxmin qilish mumkinki, individ uchun har bir holatda identiklik turlari turli darajada dolzarb bo‘ladi. Ya’ni ayni shu holatda biron bir alohida identiklik yuzaga chiqadi va asosiy, «yetakchi» (dominant) bo‘ladi. Demak, shu paytda individ o‘z mansubligini anglash barobarida, me’yor, qadriyatlar va boshqalarning butun bir tizimiga o‘zining bog‘liq bo‘lishligini ta’minlaydi. Batafsil fikr bildiriladigan bo‘linsa, aytish mumkinki, qadriyatlar iyerarxiyasi doimiy emas, u muayyan paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi va identiklik talablariga bog‘liq ravishda amalga oshirilayotgan xatti-harakat modellarini qayta tizimlashtiradi. Shu

nuqtai nazardan muammoga nazar tashlansa, har qanday dolzarb ijtimoiy identiklik xatti-harakat va ichki mohiyatni baholashda qarorlar orqali ifodalanadi.

Xulosa va takliflar

1. Tadqiqot doirasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishni aks ettiruvchi modeli ishlab chiqildi. Mazkur model bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda real imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi, ichki va fanlararo aloqadorlik bilan boyitilgan maqsadni oydinlashtiruvchi hamda talabalarning pedagogik tolerantlik ideallarini o'zlashtirishiga qaratilgan o'quv materialini tanlash, tashkiliy, maqsadga yo'naltirilgan hamda natijaviy baholash bloklarni o'zida aks ettirdi. Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish modelining metodologik asosi sifatida shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv belgilab olindi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasidagi motivatsion-qadriyali, kognitiv-kreativ va faoliyatli-integrativ kabi komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish ta'limning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va kasbiy maqsadlarini o'zida aks ettiradi va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan tarzda olib boriladi, degan xulosaga kelindi.

3. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning quyidagi mexanizmlari aniqlandi: pedagogik tolerantlikning maxsus tamoyillarini o'zlashtirish va unga tayanish; talabalarda turli madaniy qadriyatlarga aksiologik munosabatini tarkib toptirish madaniyatlararo muloqot doirasini izchil kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro`yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 20-29.
2. Akramova G.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.nomz.diss... – T., 2007. – 139 b.
3. Андронова И.С. Технология развития толерантности младших школьников к культурным ценностям разных народов средствами русского и зарубежного фольклора. Изд-во «Ишим», 2019. – С. 28-30.
4. Ванеева Л.И. Воспитание этнокультурной толерантности у детей младшего школьного возраста // Образовательная среда сегодня: теория и практика: сб. материалов VIII Междунар. науч. – прак. конф. – Чебоксары.: Изд-во «Редкол», 2019. – С. 71-73.
5. Каражанова Г.А., Шамхалова Б.А. Модель процесса формирования педагогической толерантности у будущих бакалавров образования. Вестник ТГПУ. 2016; 1 (166): 38 – 42.



6. Нуруллаев А.А. Религиозный фактор в межнациональных отношениях / А.А.Нуруллаев//Возрождение культуры России: диалог культур и межнациональные отношения. 1996. - Вып.4. - С. 71-80.

ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРОСТЕ

Бобаева З.М.

Старший преподаватель University of Business and Science

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning kognitiv sohasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Unda muammoni o'rganish usullari va tadqiqot natijalari tasvirlangan. Maktabgacha bolalikdan boshlang'ich maktab yoshiga o'tish paytida, shuningdek, maktabning ilk bosqichidan keying bosqichga o'tish paytida og'zaki va mantiqiy fikrlashning o'zgarishi tasodify o'rganish jarayoni emas.*

Tayanch iboralar: *o'rganish, muammo, fikrlash jarayoni, fikrlash, mantiq, og'zaki-mantiqiy fikrlash, mantiqiy xulosa, bilish.*

Аннотация. В данной статье было проведено исследование когнитивной сферы детей младшего школьного возраста. В ней описываются методы, использованные для изучения поставленной проблемы, и результаты исследования. Изменение верbalного и логического мышления при переходе от дошкольного детства к младшему школьному возрасту, а также при переходе с одного этапа школьного обучения на другой, не является случайным процессом обучения.

Ключевые слова: обучение, проблема, мыслительный процесс, мышление, логика, вербально-логическое мышление, логический вывод, познание.

Abstract. *in this article, research has been conducted into the cognitive spheres of primary school children. It describes the methods used to study the problem posed and the results of the study. The change in verbal and logical thinking during the transition from preschool childhood to primary school age, as well as as you move from one stage of schooling to another, is not a random process of learning.*

Key words: *learning, problem, thought process, thinking, logic, verbal-logical thinking, inference, cognition.*

Введение

В современной системе образования младший школьный возраст охватывает период жизни ребенка примерно с шести до одиннадцати лет. В настоящее время большинство исследователей сходятся во мнении, что оптимальным периодом интеллектуального развития является дошкольный и особенно младший школьный возраст.



Система образования является одним из факторов экономического и социального прогресса социума. Уровень интеллектуального развития в большой степени влияет на эффективность осуществления этих проблем.

Можно сказать, что в этот период жизни у ребенка закладывается фундамент его мыслительных процессов. Таким образом, в младшем школьном возрасте следует проводить комплексную и целенаправленную работу по формированию и развитию у детей основ логического мышления и обучению их приемам мыслительных операций.

Анализ литературы

Интеллектуальность – это процесс познания нового обучение. Как и другие качества ума его нужно формировать, параллельно обучая отдельным элементам. Одним из таких элементов является логика и соответственно выделяют логическое мышление. Много увлекательных высказываний и ценных советов о развитии логического мышления учащихся мы встречаем в классических трудах Я. А. Коменского, К. Д. Ушинского [5].

Изучением особенностей урочной деятельности вообще и по русскому языку, по математику, по природоведению в частности занимались многие авторы, среди которых можно назвать Л.В. Байбороеву, Е.В. Широкову, Т.А. Колесникову, А.Ю. Комиссарову, Н.И. Мерлину, Н.В. Сущенцову, Е.А. Морозова, А.В. Морозову, А.В. Новоселова, Т.С. Пчелинцеву, Н.В. Сейдниязову, Л.А. Серикову, В.И. Седакову, Е.В. Тайлакову, С.Б. Носову, В.П. Труднева, Р.Х. Хайруллину и некоторых других.

